**Abstract.** This article discusses the scientific foundations, analysis methods, and practical applications of mathematical modeling of physical processes. The role of mathematical modeling in accurately describing physical phenomena using differential equations, statistical approaches, linear algebra, and numerical calculation methods is explained. The importance of modeling processes using computer programs and real-world examples are also presented.



**Key words:** mathematical modeling, physics, differential equation, numerical calculation, simulation, physical processes.

**Kirish.** Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi fizik jarayonlarni chuqur o'rganish va ularni matematik modellar orqali ifodalash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Fizikadagi ko'plab jarayonlar – mexanik harakatdan tortib, elektromagnit to'lqinlar tarqalishi, kvant hodisalarigacha – aniq matematik ifodasiz tadqiq etilishi qiyin.

Matematik modellashtirish jarayonlarni tahlil qilish, prognozlash va amaliy tajribalarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bois, fizika va matematika integratsiyasi ta'limda, sanoatda va tadqiqotlarda yuqori ahamiyatga ega.

**Fizik jarayonlarni matematik ifodalashning nazariy asoslari.** Fizik jarayonlarni tavsiflash uchun quyidagi matematik vositalar qo'llaniladi:

Yo'nalish	Asosiy matematik usullar
Mexanika	Nyuton tenglamalari, integrallar
Elektrodinamika	Maksuell tenglamalari
Termodinamika	Statistik modellar
To'lqin jarayonlari	Differensial tenglamalar
Kvant fizika	Schrodinger tenglamasi
Nazariy mexanika	Variatsion prinsiplar

Fizik hodisalar ko'pincha differensial tenglamalar orqali ifodalanadi:

$$F=ma \Rightarrow m \frac{d^2x}{dt^2} = F \Rightarrow \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{F}{m}$$

Bu yerda  $x(t)$  – vaqt bo'yicha harakat funksiyasi.

**Raqamli va analitik yechimlar.** Matematik modellarni yechish ikki xil bo'ladi:

Analitik yechim	Raqamli yechim
Aniq matematik formula	Kompyuter hisoblash algoritmlari orqali





O'zgarmas sharoitlarda qo'llaniladi	Murakkab jarayonlarga mos
Masalan: to'g'ri chiziqli harakat	Masalan: turbulent oqimlar, nolinear sistemalar

*Euler, Runge-Kutta, Gauss* metodlari ko'plab fizik simulyatsiyalarda qo'llaniladi.

**Kompyuter simulyatsiyasining o'rni.** Bugungi kunda MATLAB, Python (NumPy, SciPy), Maple va ANSYS kabi dasturlar keng qo'llaniladi. *Misol:* elektromagnit maydonlarni hisoblashda sonli kodlash (FDTD metodi).

**Natija.** vaqtni tejaydi, tajriba xarajatini kamaytiradi, xavfli jarayonlarni virtual o'rganish imkonini beradi.

*Amaliy misollar*

Fizik jarayon	Matematik model	Qo'llanish
<i>Harakat</i>	2-tartibli differensial tenglama	Robototexnika, aerokosmik muhandislik
<i>Issiqlik tarqalishi</i>	Fourier tenglamasi	Binolar izolyatsiyasi, energetika
<i>Elektr zanjirlari</i>	Kirchhoff qonunlari	Elektronika
<i>To'lqinlar</i>	To'lqin tenglamasi	Telekommunikatsiya
<i>Suprayon oqimlari</i>	Navye-Stokes tenglamasi	Aviasiya, gidrodinamika

**Fizik jarayonlar uchun matematik modellashtirish bosqichlari.** Fizik jarayonni modellashtirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Modellashtirish bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

*Fizik hodisani aniqlash va chegaraviy shartlarni belgilash:*

Ko'rib chiqilayotgan jarayon turi: issiqlik almashinuvi, mexanik harakat, to'lqin jarayoni va h.k. Dastlabki va chegaraviy shartlar belgilanadi.

**Matematik tasvirlash.** Hodisaning fundamental qonunlari asosida tenglamalar tuziladi. *Masalan:*

$$d^2x/dt^2 = a, \nabla^2 T = 1/\alpha dt \frac{d^2x}{dt^2} = a, \quad \nabla^2 T = \frac{1}{\alpha}$$





$$\alpha \frac{dT}{dt} = a \sqrt{2T} \Rightarrow dT = \frac{a}{\alpha} \sqrt{2T} dt$$

*Algoritmlashtirish.* Analitik yoki raqamli yechim tanlanadi. Euler metodi, Runge-Kutta usuli, Chebyshev polinomialari kabi usullar qo‘llaniladi.

*Kompyuter dasturida simulyatsiya.* MATLAB, Python, Simulink, ANSYS, COMSOL va boshqalar.

**Natijalarni tahlil qilish.** Grafiklar, jadval va statistik baholash orqali. Eksperimental natijalar bilan solishtirish. Modelni takomillashtirish. Fizika fanida qo‘llaniladigan asosiy matematik tenglamalar. Nyuton harakat tenglamalari:

$$F = m \cdot a$$

Bu tenglama mexanik tizimlarni modellashtirishning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Makswell tenglamalari (elektromagnit maydon).

$$\begin{aligned} \nabla \cdot \mathbf{E} &= \rho / \epsilon_0, \nabla \cdot \mathbf{B} = 0, \nabla \times \mathbf{E} = -\partial \mathbf{B} / \partial t, \nabla \times \mathbf{B} = \mu_0 \mathbf{J} + \mu_0 \epsilon_0 \partial \mathbf{E} / \partial t \\ \nabla \cdot \mathbf{B} &= 0, \\ \nabla \times \mathbf{E} &= -\partial \mathbf{B} / \partial t, \\ \nabla \times \mathbf{B} &= \mu_0 \mathbf{J} + \mu_0 \epsilon_0 \partial \mathbf{E} / \partial t \end{aligned}$$

**Navye-Stokes tenglamasi (suyuqliklar harakati).**

$$\rho (\partial \mathbf{v} / \partial t + (\mathbf{v} \cdot \nabla) \mathbf{v}) = -\nabla p + \mu \nabla^2 \mathbf{v}$$

Bu tenglama aviatsiya, gidrodinamika, meditsina va kosmik texnologiyalarda ishlatiladi.

*Raqamli hisoblash usullari*

Metod	Qo‘llanishi
Euler usuli	Oddiy differensial tenglamalar
Runge–Kutta	Yuqori aniqlik talab qilinadigan masalalar
Finite Difference (FDM)	Issiqlik, to‘lqin, elektr maydon





Finite Element (FEM)	Mexanika, qurilish, elektromagnit maydon
Monte-Carlo	Statistik fizikada ehtimollik modellar

*Misol:* Euler metodi.  $x_{n+1} = x_n + f(x_n, t_n) \Delta t$

*Amaliy trening va o'quv tajribalari.* Fizika va matematika integratsiyasini o'rgatish uchun quyidagi laboratoriya ishlarini o'quv jarayoniga kiritish mumkin:

Laboratoriya ishi	Maqsad
Erkin tushish tezlanishini aniqlash	Harakat tenglamalarini tekshirish
Issiqlik tarqalishi simulyatsiyasi	Fourier qonuni asosida tajriba
Mass-spring system modeli	Tebranish va elastiklik qonunlari
Elektr zanjiri simulyatsiyasi	Kirchhoff qonunlari bilan hisoblash
To'lqin tenglamasi animatsiyasi	To'lqin tezligi va chastotasini o'rganish

Sun'iy intellekt va fizika modellashtirish. Zamonaviy ilm-fanda AI yordamida fizik jarayonlar bashorati keng qo'llanilmoqda:

- Fluid dinamika modellarini tezlashtirish
- Kvant kimyo hisoblari
- Materiallar fizikasi (materials discovery)
- Astronomiya va kosmologiya modellashtirish

Masalan, *DeepMind* kvant energiyasini hisoblash uchun *Graph Neural Network (GNN)* modellaridan foydalanmoqda.

*Real hayotdagi amaliy misollar.* Energetika Issiqlik energiyasini uzatilishini hisoblash → binolarni energiya tejamkor dizaynlash.

*Aviatsiya va aerokosmik soha.* Aerodinamik kuchlarni hisoblash → parvoz xavfsizligi oshiriladi.

*Tibbiyot.* MRI, CT skanerlarda signal qayta ishlash → aniq tashxis.

*Robototexnika.* Harakat tenglamalari va optimallashtirish → avtonom boshqaruv tizimlari.



**Xulosa.** Fizik jarayonlarni matematik modellashtirish zamonaviy ilm-fan va texnologiya taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Matematik usullar yordamida murakkab hodisalarni chuqur tahlil qilish, ularni prognozlash va boshqarish imkoniyati kengayadi. Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida fizik modellashtirish yanada samarali bo'ladi.

Matematik modellashtirish fizika fanining zamonaviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. XXI asrda fizik jarayonlarni faqat tajriba orqali o'rganish yetarli bo'lmay qolgan – raqamli modellashtirish, simulyatsiya, differensial tenglamalar, sun'iy intellekt bilan qo'shib o'rganish ilm-fan sifatini oshirdi. Kelajakda: fizik model + AI sintezi, raqamli laboratoriyalar, bulutli simulyatsiya platformalari, katta ma'lumotlar (Big Data) fizika ta'limida yetakchi asos bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Landau L., Lifshits E. *Teoretik fizika kursi*. Moskva, 2015.
2. Kreyszig E. *Advanced Engineering Mathematics*. Wiley, 2019.
3. Boyce W., DiPrima R. *Differential Equations and Boundary Value Problems*, 2020.
4. Tursunov H. *Matematik modellashtirish asoslari*. Toshkent, 2021.
5. MATLAB Documentation, MathWorks.
6. Simion, D. *Mathematical Physics Tools*. Springer, 2022.
7. Gerald C., Wheatley P. *Applied Numerical Analysis*. Pearson, 2020.
8. Chapra S. *Applied Numerical Methods with MATLAB*, 2021.
9. COMSOL documentation, 2023.
10. Python SciPy Library Manual.



MUAZZAM BOYSUN

**Xurramova Munisa Xolto'rayevna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 1-bosqich talabasi.

Tel: +998-90-073-14-41

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan ko'hna Boysunning kelib chiqishi va uning hozirgi holati haqida so'z boradi. Boysun-moddiy va nomoddiy madaniyat beshigi. Bu joy haqida ko'pgina yozuvchilarimiz, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida ham ta'kidlab o'tgan. Boysun hozirgi kunda ham turistlar nazaridan qolmayotgan tarixiy toponimik joydir.

**Kalit so'zlar:** Boysun, Sharafiddin Ali yazdiyning "Zafarnoma"si, Boysunning tarixi, urf-odat, an'ana, Sayrob.

**Kirish**

Boysun dunyo tamaddunining eng qadimgi beshiklaridan biri sifatida jahon ilm-fani ahlida katta qiziqish uyg'otib keladi. Insoniyatning ilk manzilgohlaridan biri bo'lgan bu go'sha go'zal tabiat manzaralari, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi, moddiy va nomoddiy boyliklari, serjilo noyob qadriyatlari bilan ham mashhur.

**Asosiy qism.**

Boysun tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan(1962-yil 24-dekabrda Sherobod tumani bilan birlashtirilgan. 1965-yil 29-dekabrda qayta tuzildi). Umumiy yer maydoni 3,72 ming kv.km. Tuman markazi Termizdan 145 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Tumanda 7 ta qishloq bor. Avlod, Boysun, Darband, Machay, Rabot, Sayrob, Qo'rg'oncha. Boysun tumani viloyatning ga'rbida joylashgan. Shimoli-sharqda Sariosiyo, sharqda Qumqo'rg'on, janubida Qiziriq, Bandixon tumanlari, janubi-g'arbda Sherobod tumani bilan, shimoli-g'arbda Qashqadaryo viloyatining Qamashi va g'arbda Dehqonobod tumanlari bilan chegaradosh. Boysun tumanida qadimiy qal'a-shaharlar ko'plab topilgan.

Eng yiriklari: Poyko'rg'on, Qozimullatepa, Saribandtepa, Yalangto'shtepa, Darband, Munchoqtepa, Bo'yrachi, Qiziljartepa, Mullatepa, Kallaqo'rg'on. Ibtidoiy odamlar yashagan manzillar: Teshiktosh, Machay, Amir Temur, Sayrob chinori, Temir darvoza, Poyonqo'rg'on, Dinozavr izlari, Bibishox shotisi va shu kabi tarixiy obidalar bor. Boysundagi qadimiy Sayrob qishlog'i hududida qariyb bir asrli ikki tup chinor bor. O'tgan asr boshlarida ko'hna chinor kovagidan bir muddat askarlar qarorgohi, 1920- yilda qishloq kengashi idorasi, 1932-1934-yillarda kutubxona faoliyat olib borgan. Keyinchalik esa qishloq savdo do'koni, maktab, choyxona, sartaroshxona sifatida foydalanilgan. Hozirda bu yerda mo'jazgina muzey tashkil etilgan. Aholisi o'zbeklar va tojiklar. Boysun tumanida sanoat kam rivojlangan. Unda xalq, asosan, ko'mir bilan shug'ullanadi. Tuman hududida qazilma boyliklardan ko'mir, yonuvchi silaney, oltingugurt va boshqalar topilgan. Boysun tumanining sanoat tarixiga nazar tashlasak, 1952-yilda arteller negizida tuman sanoat kombinati tashkil etildi, 1967-yilda u mahalliy sanoat korxonasiga aylantirildi. 1972-yil mazkur korxonada Boysun experimental shoyi to'qish fabrikasi ish boshladi. Unda tikuvchilik, to'quvchilik va badiiy buyumlar ishlab chiqarish sexlari mavjud edi. Boysunda O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev, adiblar-Sattor Tursun va Erkin A'zam, shoir Usmon Azim tug'ilgan.

Hazrat Sohibqironning amir Xusayn bilan jang qilmoqqa cherik tortgani haqida so'z: 767-yilning kuzida, ya'ni ot yili hazrat Sohibqiron son-sanoqsiz lashkar tuzdi. Ularni olib Amir Husayn bilan urushmoqqa otlandi. Amir Sayfidinni katta bir guruh bilan oldinda jo'natadi. Amir Husayn o'z vaqtida Sher-Bahromni hiyla va aldov yo'ldan ozdirib makr tuzog'iga ilintirganligi ham o'ziga mute va qaram qilib olganligi sababli, hazrat Sohibqironni ham o'sha uslubda bo'hton bilan o'ynatish mumkin, degan hayolga bordi, ming afsus. Shu paytda, u Malik Bahodir va uning o'g'li Abdullohni ahdnoma ila ul Hazrat qoshiga jo'atdi va firib beruvchi so'zlardan iborat noma yubordi, ya'ni "shu paytgacha zarur umumiy masalalarni bir -birimiz bilan ittifoqda g'oliblik to'pini raqiblar va tenglashuvchilar maydonidan yulib oldik. Ma'qul uldurki, bundan keyin ham o'sha udum saqlansa va ushbu ahdnomaga to'la-to'kis ishonib, hech bir dag'dag'a xayolga keltirilmasa".

G'olib lashkar Kaxalqadan o'tib Boysun ularning Humoyun qo'nimgohi bo'lib turgan chog'da (elchilar) Malik Bahodir va Abdulloh yetib keldilar. Amir Husaynning



ahdnomasi va nomasini yetkazdilar hamda sulh va yarashmoqdan so'z otdilar. Saodatli Sohibqiron fursat bezab turgan davlat ilhomi bilan, Misra: Sening ahdingga sabo yeli ham suyana olmas, degan mazmuni anglab yetdi. Shu sababdan u ahdnomaga e'tibor va aytilgan so'zlarga quloq tutmadi. Hazrat Sohibqironning Amir Husayn ustiga cherik tortgani va parvardigor inoyatining qo'llovi bilan zafar qozonganligi haqida so'z. Amir Husayn o'z ahdu paymonini buzishni o'ylab yana dushmanlik qasdida ayyorlik nog'orasini nifoq palosi tagida chertayotganligi hamda fursat kutib o'z murodiga hiyla bilan yetishish orzusida ekanligi turli dalil va belgilardan ravshan bo'ldi.

**Xulosa:** Boysun tumani- Surxondaryo viloyatining eng qadimiy, tarixiy madaniy jihatdan boy hududlaridan biridir. Bu maskan o'zining tabiiy go'zalligi, boy folklor merosi, qadimiy arxeologik yodgorliklari va asrlar davomida shakllangan milliy an'analari bilan ajralib turadi. Boysunning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi: bu yerda qadimiy qabilalar yashagan, karvon yo'llari o'tgan, xalq og'zaki ijodi va urf-odatlar shakllangan. Tumanning nomi turkiy ildizlarga borib taqalib, "boy" – "badavlat, qudratli", "sun"- "el, xalq" ma'nolarini bildiradi. Ya'ni "qudratli xalq yurti" degan ma'noni anglatadi. Uning xalq og'zaki va marosimlari 2001-yilda UNESCO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi" sifatida e'tirof etilgan. Bu hudud o'z tarixiy ildizlarini asrab, zamonaviylik sari rivojlanayotgan, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishda muhim o'rin tutuvchi hududdir. U O'zbekiston madaniy merosining yorqin namunasi bo'lib, har bir avlod uchun faxr manbai bo'lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.uz.wikipedia.org
- 2.Shaydullayev.Sh "Surxondaryo tarixidan lavhalar"
- 3.https://boysuntakm.uz





## THE HISTORY OF STUDYING THE VOCABULARY OF NATIONAL CUSTOMS IN THE UZBEK LANGUAGE

**Abdurazzoqova Sevara**

Student of Termiz State

University of Economics and Service

### Abstract

This article explores the history of studying the vocabulary of national customs in the Uzbek language. It traces the development of linguistic research from early historical periods, such as the influence of Arabic and Persian, through the Russian and Soviet eras, to modern scholarly efforts. The article highlights key methodologies used in the study of Uzbek vocabulary, including etymology, dialectology, semantics, and discourse analysis. It emphasizes the importance of understanding the cultural and historical context behind the vocabulary of national customs, contributing to a deeper appreciation of Uzbek linguistic heritage.

**Keywords:** vocabulary, national customs, Uzbek language, etymology, dialectology, semantics, cultural heritage, linguistic research, language history, discourse analysis.

### Introduction

Language is the living soul of a nation, reflecting its history, cultural traditions, social values, and collective identity. The vocabulary associated with national customs, ceremonies, and traditional practices serves not only as linguistic elements but also as symbolic representations of a people's cultural heritage. These words preserve the unique identity of the community, embody historical developments, and facilitate the transmission of cultural values from generation to generation.

The vocabulary related to Uzbek cultural practices encompasses words and expressions describing rituals, celebrations, ceremonies, religious observances, and social customs. Examining the origins and evolution of these terms provides deeper insight into the historical background of Uzbek society, its social structures, and worldview. These words often carry layers of cultural significance, reflecting traditional beliefs, social norms, and collective memory.



Culturally, such vocabulary plays a vital role in passing down customs and traditions, ensuring their continuity over time. It acts as a bridge connecting the past with the present, helping modern generations understand and appreciate their cultural roots. In the contemporary context, studying these terms reveals how traditional customs adapt to modern influences, evolve in response to societal changes, and continue to shape national identity.

This research aims to explore the origin, development, and linguistic features of vocabulary related to Uzbek national customs. It seeks to analyze how these words originated, how they have transformed over time, and their current significance in Uzbek society. Understanding these aspects contributes to a broader comprehension of the relationship between language and culture, highlighting the importance of preserving and promoting cultural heritage through linguistic means.

Furthermore, the study of this vocabulary is valuable not only for linguists and ethnolinguists but also for historians, anthropologists, and cultural scholars. It provides a nuanced understanding of how language reflects societal values, historical experiences, and cultural identity. By examining these words, we gain insight into how traditional practices adapt within a modern, globalized world.

## Methods

This research employs a qualitative and historical-descriptive methodology to analyze the development and linguistic features of vocabulary related to Uzbek national customs. The study is based on both diachronic (historical) and synchronic (contemporary) perspectives to trace the evolution of the vocabulary across different periods.

### Primary methods include

**Etymological analysis** exploring the origins of words and their transformation over time. **Comparative and dialectological approaches** identifying regional differences in the use of words associated with customs.

**Semantic and cultural analysis** focusing on how the meanings of words reflect

social, religious, and cultural realities.

**Textual and discourse analyze** applied to samples from folklore, classical literature, proverbs, and contemporary usage. The research also draws upon materials from dictionaries, academic publications, and ethnographic studies, combining linguistic evidence with cultural interpretation. This interdisciplinary approach ensures that both the linguistic and socio-cultural dimensions of the vocabulary are thoroughly examined.

### Historical Background of the Study of Uzbek Vocabulary

The study of Uzbek vocabulary related to national customs has deep roots in Central Asian intellectual history. Early evidence of interest in the Turkic lexicon can be traced to the 11th century, when **Mahmud Kashgari's "Divanu Lug'at at-Turk"** documented words describing the daily life, social relations, and customs of Turkic peoples. This monumental work remains one of the earliest linguistic and ethnographic sources for understanding the language and traditions of ancient Turkic societies.

During the **Timurid and Shaybanid periods**, Uzbek vocabulary absorbed influences from Arabic and Persian due to religious, cultural, and literary exchanges. Words connected with Islamic practices such as *nikoh* (marriage), *iftor* (breaking fast), and *duo* (prayer) became integral to the Uzbek lexicon, reflecting the merging of linguistic and cultural traditions.

### The Soviet Period and Linguistic Standardization

The **Soviet period (1920s–1990s)** represented a major turning point in the history of Uzbek linguistic research. The establishment of the **Uzbek Academy of Sciences** and its **Institute of Language and Literature** institutionalized linguistic study. Scholars such as **A. Kononov, S. Mutallibov, and Sh. Shoabdurahmonov** contributed significantly to the development of Uzbek lexicology, morphology, and semantics (Kononov 1956; Shoabdurahmonov 1980).<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Kononov, A. N. (1960). *Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka*. Leningrad: Izdatelstvo Akademii Nauk SSSR;



Despite the Soviet policy of linguistic modernization which aimed to remove Arabic and Persian elements the vocabulary associated with national customs persisted in everyday speech and folklore. This endurance highlights the deep connection between culture and language. Ethnographers and linguists actively collected and studied terms related to weddings, hospitality, and seasonal festivals (*Navruz*, *Qurbon hayiti*, *Hosil bayrami*), ensuring their preservation.

### Modern Research Trends and Methodologies

After Uzbekistan's **independence in 1991**, national identity and cultural revival became central themes in linguistic scholarship. Modern researchers such as **N. Mahmudov, A. Madvaliev, M. Tursunov, and O. Bozorov** have emphasized the role of ethnolinguistics, cognitive linguistics, and semantic field analysis in studying Uzbek vocabulary.

Recent works analyze how words reflect collective mentality (*milliy tafakkur*), moral values, and social organization. Using corpus-based approaches, scholars now examine the frequency and context of culturally specific terms in contemporary texts, including social media, education, and literature.

### Cultural and Linguistic Significance

The vocabulary of Uzbek national customs functions as a **cultural code** that preserves the identity of the nation. Words such as *kelin salom* (bride's greeting), *sovchi* (matchmaker), and *mehmondorchilik* (hospitality) are not mere linguistic units but symbols of social norms and moral values. They reflect the Uzbek worldview, emphasizing respect for elders, family unity, and community relationships.

Through oral literature, proverbs, and idioms, this vocabulary transmits moral lessons and cultural wisdom. For instance, the proverb "*Mehmon otangdan ulug*" ("A guest is greater than your father") illustrates the high cultural value of hospitality. Thus,

---

Mutallibov, S. (1964). *O'zbek tili grammatikasi (Morfologiya)*. Toshkent: Fan nashriyoti;  
Shoabdurahmonov, Sh. (1980). *O'zbek tili leksikologiyasi*. Toshkent: Fan.



linguistic analysis of such expressions reveals the deep moral and ethical dimensions embedded in the Uzbek language.

### **Challenges and Future Perspectives**

Despite notable progress, several challenges remain in the comprehensive study of this vocabulary:

Lack of specialized ethnolinguistic dictionaries;

Limited regional documentation of dialectal variations;

Insufficient interdisciplinary cooperation between linguists, historians, and anthropologists. Future research should prioritize digital corpora development, regional fieldwork, and cultural-linguistic education. Expanding the study of national customs' vocabulary contributes to both linguistic scholarship and cultural preservation, strengthening the understanding of Uzbekistan's unique linguistic heritage in the global academic context.

### **Conclusion**

The study of vocabulary connected with Uzbek national customs plays a vital role in understanding the cultural and historical development of the Uzbek language. These lexical units not only reflect the material and spiritual life of the Uzbek people but also preserve their worldview, social norms, and moral values across generations.

Analyzing such vocabulary helps linguists trace the interaction between language and culture, as well as identify the influence of historical events, religious beliefs, and regional traditions on lexical formation. Moreover, comparing Uzbek cultural vocabulary with that of other Turkic languages provides valuable insights into shared and distinctive linguistic features.

In the age of globalization, documenting and studying such vocabulary ensures that these linguistic treasures retain their cultural essence. This research, therefore, contributes both to theoretical linguistics and to practical cultural studies, serving as a key to understanding the continuity of Uzbek traditions within the broader context of world civilizations.





## References

1. Abdurahmanov, A. *O'zbek tili leksikologiyasi*. Tashkent: Fan, 2006.
2. Shukurov, Sh. *Etnolingvistika va xalq madaniyati leksikasi masalalari*. Samarkand: SamDU, 2010.
3. Sodikov, A. *Uzbek Language and Cultural Identity*. Tashkent: Fan Publications, 2018.
4. Karimov, B. "The Evolution of Uzbek Customs in Linguistic Context." *Journal of Central Asian Studies*, vol. 12, no. 3, 2020, pp. 45–58.
5. Rasulov, D. *Comparative Analysis of Turkic Lexical Heritage*. Samarkand: Samarkand State University Press, 2022.
6. Oxford, R. *Language, Culture, and Society*. New York: Routledge, 2017.
7. Djumaniyozov, M. "Semantic Development of Uzbek Traditional Terminology." *Uzbek Linguistic Journal*, vol. 8, no. 2, 2019, pp. 55–67.
8. Qosimova, Z. *Milliy qadriyatlar leksikasining shakllanishi va rivoji*. Tashkent: Universitet nashriyoti, 2021.
9. Trubetskoy, N. S. *Principles of Phonology*. Paris: Linguistic Circle of Prague, 1939.



## SOG'LIQNI SAQLASHDA TIBBIY PROFILAKTIKANING O'RNI VA MOHIYATI.

**Jurayev Abror Xolmurod o'g'li**

TDTUTF talabasi

**Ilmiy rahbar: Saitmurotov Mirzoxid Abdumurotovich**

TDTUTF MIKROBIOLOGIYA, JAMOAT SALOMATLIGI, GIGIYENA VA MENEJMENT KAFEDRASI Assistant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tibbiy profilaktikaning zamonaviy tibbiyotdagi o' rni va ahamiyati yoritilgan. Unda kasalliklarning oldini olish, sog' lom turmush tarzini shakllantirish, aholining sanitariya-gigiyena madaniyatini oshirish orqali jamoat salomatligini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, profilaktik chora-tadbirlarning erta tashxis, immunoprofilaktika va sog' lom ovqatlanish bilan bog' liq jihatlarga alohida e' tibor qaratilgan. Tibbiy profilaktika — sog' lom avlodni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta' minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida ko' rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Profilaktika , Gigiyena ,karantin,sog' lom turmush tarzi,emlash,jamoat salomatligi, Sog' liqni Saqlash.

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Bugungi kunda tibbiyotning asosiy yo' nalishlaridan biri — bu profilaktika, ya' ni kasalliklarning oldini olishdir. Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolar, turmush tarzining o' zgarishi, stress, zararli odatlar va noto' g' ri ovqatlanish tufayli turli surunkali kasalliklar soni ortib bormoqda. Shuning uchun ham kasallikni davolashdan ko' ra uni erta bosqichda aniqlash va oldini olish dolzarb masalaga aylangan.

Profilaktik chora-tadbirlar orqali nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyatning sog‘lig‘i saqlanadi. Bu yo‘nalish sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy jihatdan ham eng samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har bir kasallikni davolashga ketadigan xarajatni bir necha baravar kamaytiradi.

Profilaktika sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish, gigiyena va ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali inson salomatligini mustahkamlaydi. Shuningdek, immunoprofilaktika, dispanserizatsiya, sanitariya-ma‘rifiy ishlar va profilaktik skrining tadbirlari orqali ko‘plab kasalliklar erta bosqichda aniqlanib, ularning og‘ir oqibatlari oldi olinadi.

Profilaktik yondashuv bugungi kunda dunyo miqyosida sog‘liqni saqlash siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ham barcha davlatlarga aholining salomatligini ta‘minlashda aynan profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirishni tavsiya etadi.

Shu bois, “Profilaktik chora-tadbirlar: zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishi” mavzusi bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy jihatdan juda dolzarb bo‘lib, sog‘lom avlodni tarbiyalash, umr davomiyligini uzaytirish va jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida profilaktik yondashuvga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib bormoqda. Tibbiyotning asosiy maqsadi endilikda faqat kasallikni davolash emas, balki insonni kasallikka olib keluvchi omillardan oldindan himoya qilishdir. Chunki har qanday kasallikni erta bosqichda oldini olish — uni davolashdan ancha oson, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan arzon hisoblanadi.

Profilaktika nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega jarayondir. Sog‘lom inson — bu faol, mehnatsevar va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan fuqaro demakdir. Shu sababli, profilaktika chora-tadbirlari nafaqat sog‘liqni saqlash muassasalari, balki ta‘lim, madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda olib borilishi lozim.

**Mavzuning maqsadi:**

Zamonaviy tibbiyotda profilaktik chora-tadbirlarning oʻrni, ahamiyati va ularni samarali amalga oshirish yoʻllarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Maqolada kasalliklarning oldini olish, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, immunoprofilaktika, gigiyenik tarbiya va erta tashxisning ahamiyati chuqur oʻrganiladi.

Shuningdek, profilaktika tizimini takomillashtirish orqali aholining salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning tarqalishini kamaytirish, sogʻliqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish hamda jamiyatda sogʻlom hayot falsafasini shakllantirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish koʻzda tutiladi.

Oʻrganish usullari:

Ushbu mavzuni oʻrganish jarayonida ilmiy tahlil va solishtirma yondashuvlar asosida bir qator metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi — profilaktik chora-tadbirlarning tibbiyotdagi oʻrni va ahamiyatini chuqur oʻrganish, ularning amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat boʻlgani sababli quyidagi usullar qoʻllanildi:

Nazariy tahlil usuli — tibbiy profilaktika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlari, normativ hujjatlar va statistik manbalar oʻrganildi, mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilindi.

Solishtirma tahlil usuli — turli mamlakatlarda, xususan, Oʻzbekiston va xorijiy davlatlarda qoʻllanilayotgan profilaktik chora-tadbirlarning oʻzaro farqlari va oʻxshashliklari solishtirildi.

Tizimli yondashuv usuli — profilaktika tizimining tarkibiy qismlari (birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika) oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganildi.

Statistik tahlil usuli — sogʻliqni saqlash sohasidagi mavjud rasmiy maʼlumotlar, kasalliklar tarqalish darajasi, emlash qamrovi va tibbiy koʻrik natijalari tahlil qilindi.

Kuzatish va tibbiy-amaliy tajriba — aholining tibbiy madaniyati, gigiyenik xulqi, sogʻlom turmush tarziga rioya etish darajasi kuzatish orqali baholandi.

Tahlil va umumlashtirish usuli — olingan maʼlumotlar asosida profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi, afzalliklari va muammoli jihatlari umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.





## Natija:

O‘zbekistonda profilaktik chora-tadbirlarni samarali qo‘llash natijasida surunkali kasalliklar (yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet) yuzaga kelish xavfi 15–20% kamayishi mumkinligi aniqlangan. Shu bilan birga, erta tashxis va emlash orqali bolalar va yoshlar orasida yuqumli kasalliklar 30–40% kamayadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirilganda, O‘zbekistondagi emlash qamrovi 85% bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 95%ga yetadi. Shu asosda samarali xalqaro metodlarni joriy etish orqali kasalliklarni 10–15% qo‘shimcha kamaytirish imkoniyati aniqlangan.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika bosqichlari tizimli qo‘llanilganda aholining surunkali kasalliklar bilan og‘rinish darajasi 20–25% kamayadi. Masalan, birlamchi profilaktika (sog‘lom turmush tarzi) bilan 10%, ikkilamchi profilaktika (skrining va erta tashxis) bilan 8–10%, uchlamchi profilaktika (rehabilitatsiya) bilan 2–5% kamayish kuzatilgan.

Rasmiy ma‘lumotlar tahlilida yurak-qon tomir kasalliklari 100 000 aholiga 1200 holatni tashkil etsa, profilaktik choralar orqali bu ko‘rsatkich 950–1000 ga tushishi mumkinligi aniqlangan. Shu bilan birga, emlash dasturi qamrovi oshirilganda yuqumli kasalliklar soni yiliga 15–20% kamayadi. 500 kishilik aholi guruhida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va muntazam tibbiy ko‘riklar natijasida 6 oy ichida kasalliklar tashxisi 12% kamaygan, jismoniy faollik darajasi 30%ga oshgan. Bu profilaktikaning bevosita amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Karantin, niqob taqish, ijtimoiy masofa, emlash kabi profilaktika choralarni kuchaytirish orqali kasallik tarqalish sur‘ati kamaytirildi. O‘zbekistonda 2021–2022 yillarda kasallanish ko‘rsatkichlari 3 baravar kamaydi; aholi orasida emlash darajasi 70% dan oshdi. Gigiyenaga rioya qilmaslik yuqumli kasalliklar tarqalishiga sabab bo‘lgan. Pandemiya davrida gigiyena madaniyatini oshirishga qaratilgan ommaviy axborot kampaniyalari olib borildi.

Aholining 90 foizi doimiy ravishda qo‘l yuvish, antiseptik ishlatish odatini shakllantirdi. Maktab va kollejlarda gigiyena darslari joriy etildi.

Hukumat tomonidan “Yashil makon” umumxalq dasturi amalga oshirildi.



2021–2024 yillar davomida 200 milliondan ortiq daraxt ekildi, bu esa havoning ifloslanish darajasini kamaytirishga yordam berdi.

Aholi profilaktik ko‘riklardan muntazam o‘tmas edi.

Elektron poliklinika va “Profilaktik tibbiyot haftaliklari” joriy qilindi.

2023-yildan boshlab O‘zbekistonda profilaktik ko‘rikdan o‘tgan aholi soni 40% ga oshdi, kasalliklar erta aniqlanmoqda.

Sifat nazorati sustligi oziq-ovqatdan zaharlanish holatlariga olib kelgan. Davlat sanitariya va epidemiologiya xizmati nazorat tizimini kuchaytirdi.

2024-yilga kelib *ovqatdan zaharlanish holatlari 25% ga kamaydi*, laboratoriya tekshiruvlari soni ikki baravar oshirildi.

### **Xulosa:**

Profilaktik chora-tadbirlar zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishi bo‘lib, kasalliklarning oldini olish, jamoat salomatligini mustahkamlash va umr davomiyligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Emlash, erta tashxis va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali surunkali va yuqumli kasalliklar darajasi sezilarli kamayadi. Shu bilan birga, profilaktika ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, sog‘lom avlodni tarbiyalash va jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “2023-yil uchun profilaktik tibbiyot dasturi”. Toshkent, 2023. Tibbiy profilaktika va sanitariya gigiyenasi asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2022.
2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST).
3. Mutaxassislikka kirish Tibbiy profilaktika Toshkent 2020

## BADIIY MATNDA MILLIY MENTALLIKNI AKS ETTIRUVCHI TASHQI VA ICHKI BELGILAR

**Cho'liyev Ruhillo Abdullayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada milliy mentallikning tashqi va ichki belgilari sanalgan kiyinish, muomala madaniyati, til vositalaridan foydalanishda lingvomadaniy birliklardan foydalanishning ahamiyati va boshqa jihatlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, mentallik, tashqi belgilar, ichki belgilar, realialar, stereotip, individuallik, tafakkur, tasavvur

O'zbek milliy-madaniy obrazi deyilganda, avvalo, ikki holat ko'z o'ngimizda gavdalanadi:

a) millat insonlarining o'z tasavvuri: bunda aynan O'zbekiston hududida yashovchi shu xalq vakillari tasavvuri emas, balki boshqa o'lka va mamlakatlarda yashovchi mazkur millat vakillarining dunyoqarashi inobatga olinadi, mentalitet tushunchasi birgina mamlakatning ichidagi obraz tushunchasi bilan chegaralanib qolmaydi, turli davlatlarda yashovchi shu millat vakillarining o'zga millat vakillaridan farqlanib turuvchi hamda O'zbekistonda yashovchi millat vakillari bilan umumlashma hosil qiluvchi milliy-madaniy qiyofasi, lingvomadaniy qiyofani tashkil etadi. Ayni millat vakillari qaysi hududda yashashlaridan qat'i nazar obrazli tasavvur ularni boshqalardan individuallashtirib turadi. Bu holat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-tashqi belgilar streotipi, ya'ni kiyinish, muomala, o'zini tutish va boshqalarga munosabatdagi belgilarga asoslanadi. Milliy o'zlikka tegishli turli milliy kiyimlar, mehmondo'stlik, odamoxunlik, samimiyat va boshqalar. Turli hududlarda yashovchi bir millat vakillarining kiyinish ashyolarining tuzilishi, rangi bir qadar farqlanishi mumkin, bu ularning qaysi millat vakillari bilan yonma-yon yashashi bilan belgilanadi;


-ichki belgilar streotipi, ya'ni millat vakillarining olam va odam haqidagi tasavvurlarini anglatadi, ularning tabiatga, qarashlarga, e'tiqodi tafakkurlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Har bir millatning umumlashtirilgan, ayni chog'da individuallashtirilgan g'oyaviy obrazlar tizimi bo'ladi, bunday obrazlar, odatda, metaforalar, o'xshatishlar, frazeologik hamda pareologik birliklar orqali yuzaga chiqadi.



Bunday birliklarni maxsus manbalar orqali tahlil qilish, izohlash yetarli emas, chunki bunday izohlar shu manzarani aniq tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi, faqatgina ichki mulqot vaziyatida bunday birliklardan qanday foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada I.Brodskiyning fikri katta ahamiyatga molik, uning ta'kidicha, "har qanday tilning o'ziga xos birliklarini tadqiq qilish uning ma'nosini izohlashda emas, balki tushunchalarning qoldirgan ichki izlariga aloqador bo'ladi. Chunki bu izlarda faqatgina sinxronik mazmun emas, balki tarixiy, milliy-madaniy izlar mujassamlashgan bo'ladi". "Bo'ri", "tuya" yoki boshqa obrazlar kiritilib qo'llangan birliklarda mazkur birliklarning hozirgi davrdagi leksik birlik sifatida ifodalanadigan ma'nolari emas, ularning etnosning tafakkuridagi semalarning yuzaga chiqarilishi muhim sanaladi. Milliy – madaniy birliklardagi ichki shakl tushunchasini fanda A.Potebnya kiritgan, B.Larin hamda G.Vinokurlar uning ishlarini davom ettirib, ichki shakl har bir leksik birlikning "tub-asl semasi" bilan bog'liqligini dalillashgan. Ichki shakl tushunchasi obrazli, ya'ni milliy-madaniy tafakkur va tasavvurning umumlashmasidir. Unda tarixiy-etimologik xotira izlari ko'rinadi, ammo qo'llovchilar buni farqlashmaydi.

"O'tgan kunlar" romanida Otabekning ota-oansiga, yoshi ulug'larga munosabati, "Mehrobdan chayon" romanidagi Anvarning otasiz qolganidan keyingi ahvoli, uning akasi va opasiga nisbatan mehr-oqibati ayna milliy madaniyatimizning ajralmas belgilari hisoblanadi. Xalqimiz orasida "otaxon", "onaxon" kabi birliklar ham ishlatiladi, undagi *ota* yoki *ona* birliklarini tushunish mushkul emas, ammo "xon" birligi qanday ma'no ifodalashi, uning lingvistik mavqeyi qanday, aynan shu holat lingvomadaniyatshunoslik bilan aloqasini ko'rsatadi, ya'ni XX asrning boshiga qadar "xon" tushunchasining mavqeyi yuqori edi. Shunday madaniy tafakkurdagi "hurmat", "ulug'lash" kabi qo'shimcha kriteriyalar ham uning ichki shaklida mavjud bo'ladi. Ichki shaklning ahamiyatini "oyi" birligi orqali ham anglash mumkin, mazkur birlikni "ona" so'zi bilan absolyut sinonim sifatida ishlatamiz, aslida, madaniy ichki faktor bunga monelik qiladi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da quyidagicha izohni uchratamiz:

"*Oyimposhsha* Bu ot "*mo'tabar*" ma'nosini anglatadigan *oim* sifati bilan "*bekach*" ma'nosini anglatish uchun ishlatiladigan *poshsho* otidan tuzilgan bo'lib, o'zbek tilida *oi* tovushlari oralig'ida *y* tovushi kiritilgan, *poshsho* qismi oxiridagi *o* tovushi *a* tovushiga almashtirilgan. Bu ot ayolga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatiladi. Bu ot so'zlashuv tilida *im* tovushlarini tashlab *oyposhsha* tarzida aytiladi. Izohli lug'atda *oim*





qismi *oyi* otiga  $-m$  qo‘shimchasi qo‘shib hosil qilingan deb xato izohlangan”. Mazkur izohdan ichki shaklning ahamiyatini yana bir karra kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Eski o‘zbek tilida “**hurmat**”, “**ulug‘lash**” ma’nosida mazkur birlikning ismlar tarkibida ishlatilganligi kuzatiladi, masalan, *Nigoroyim*, *Mohlaroyim* tarzida. XIX asrda ham mazkur birlik “ona” ma’nosida uchramaydi, balki ayolni erkalash, ulug‘lash, suyish kabi semalari mavjudligi oydinlashadi. Abdulla Qodiriy kichik asarlarida *ona* birligi o‘rnida *oyi* birligi ishlatilganki, mazkur birlikning qachon bu mazmuni to‘liq ifodalay boshlaganligi haqida tadqiqot olib borish talab etiladi. Shunga qaramay, bu birlik ichki shakl nuqtayi nazaridan tarixiy-etimologik semasidan butunlay uzilib ketmagan.

b) milliy madaniyat haqidagi tashqi tasavvur. Bunda millatning boshqalarini farqlovchi dastlabki omil til bo‘lsa-da, bu muhim ahamiyat kab etmaydi. Jumladan , biz Afrika xalqlarining tilidan mutlaqo bexabar bo‘lishimiz mumkin, muloqotdagi tilning qanday til ekanligini mutlaqo tasavvur ham qila olmasliginiz mumkin, ammo mazkur xalq, elat, millatlarning tashqi belgilari, udumlari, kiyinishi, borliqqa munosabati nuqtayi nazaridan uning qaysi millatga mansubligini bir qadar farqlaymiz. Boshqa millatlarda ham xuddi shunday tafakkur hukmronlik qiladi, millatning tashqi belgilari orqali u haqidagi obrazli tasavvuri gavdalanadi. Umumiylashgan qadriyatlar emas, balki individual belgilar alohidalaydi.

Mentallik, avvalo, tashqi tasavvur emas, balki tilning ichki leksik birliklari asosida shakllangan ichki ongdir. Buni quyidagicha izohlash mumkin: tilimiz tarkibida turlicha leksik birliklar har xil alohida tushunchalarni ifodalash vazifasini o‘taydi, biz butunlay boshqa bir geografik maydondagi ma’lum bir hayvon, o‘simlik, daraxt yoki boshqa bir tushunchani bildiruvchi leksik birlik haqida eshitamiz. Mazkur birlikning nima ekanligini dastlab o‘z bazamizdagi qaysi birlik bilan muvofiq kelishini taqqoslab ko‘ramiz, so‘ngra yangi tushunchani qabul qilamiz. Masalan, ma’lum bir so‘zni eshitganimizda u haqidagi tasavvurga ega bo‘lgan boshqa bir shaxsdan so‘raganimizda, u mazkur tildan xabardor bo‘lsa, sizning leksik qatlamingizdagi boshqa bir birlik bilan qiyoslanish asosida tushuntirishga urinadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, dunyoni anglashning asosiy belgisi sifatida mentallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olib, A.Y.Gurevich mentallikni dunyoni qabul qilish, uni tasavvur hamda tafakkur qilishning mantiqan kashf etilmagan, reflekslashmagan usuli sifatida baholaydi.




Mentallik tushunchasini faqatgina insonning falsafiy va axloqiy tafakkuri mevasi sifatida qarash cheklangan holatdir. Mentallikda tarixiy-etnik, makon va zamon munosabatlari, genetik kabi qator prinsiplar amal qiladi.

Milliy mentalitetning individual va jamoyaviy xarakter-xususiyatlari haqidagi Y. Arpesyan, O. Kornilov, Y. Yakovlevlarning chuqur ong, konseptual manzara, xalqning turmush tarzi, bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'li bilan bog'liq bo'lgan qarashlarga asoslangan tadqiqotlari ahamiyatga molikdir.

Xalq turmush tarzi undagi mentallikni ifodalash uning tashqi ko'rinishi, munosabati, vaziyatlarga nisbatan qarashlari, so'z qo'llash qobiliyati, tafakkuri hamda tasavvuri, qadriyatlar bilan qay darajada uyg'unlashib ketganligi kabilarda ko'rinadi. Bunday holatlarning yuzaga chiqishi lingvistik jihatdan qanday til birliklaridan, polisemantik, metaforalar, o'xshatishlar, maqol, matal, frazeologik birliklar, realialar va boshqa milliy-madaniy tushunchalar orqali ifodalanishi, nutq egasining ko'nikmasi, saviyasiga qarab belgilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yati:**

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. -М.: Академия, 2000.
2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.
3. Воробьев В.В. Лингвокультурология. -М.: Изд-во РУДН, 2008. -340 с.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -М.: «Русский язык», 1981. I.527
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т.: Университет, 2009. III том. – Б. 169





## BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA IJODKORLIK SOATI-LOYIHA ISHINI TASHKIL ETISHDA STEAMNING O'RNI

**Avvalova Nazokat Tursunmurotovna**

[nazokatavvalova@gmail.com](mailto:nazokatavvalova@gmail.com)


Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

84-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinfi ona tili darslarida "Ijodkorlik soati" va loyiha ishlarini tashkil etishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. STEAM integratsiyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy tafakkur va mulohaza ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda ona tili darslarida ijodkorlik faoliyatini loyihalash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, fanlararo integratsiya jarayonining metodik asoslari yoritilgan. Natijalar boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** STEAM yondashuvi, ijodkorlik soati, loyiha ishi, boshlang'ich ta'lim, integratsiya, ijodiy fikrlash

**Annotation:** This article explores the role and significance of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) approach in organizing "Creativity Hour" and project-based learning during primary school mother tongue lessons. Integrating STEAM principles into language education enhances students' independent thinking, problem-solving, creativity, and collaboration skills. The study focuses on the methodological foundations of designing creative tasks, teacher-student interaction, and interdisciplinary integration within language classes. Findings indicate that applying STEAM-oriented strategies effectively improves pupils' creative potential and motivation in primary education.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11


**Keywords:** STEAM approach, creativity hour, project work, primary education, integration, creative thinking

**Аннотация:** В статье рассматривается роль и значение подхода STEAM (наука, технология, инженерия, искусство, математика) при организации “Часа творчества” и проектной деятельности на уроках родного языка в начальных классах. Интеграция STEAM способствует развитию у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода, навыков решения проблем и коммуникации. В исследовании освещены методические основы проектирования творческих заданий, взаимодействие между учителем и учеником, а также процесс межпредметной интеграции. Результаты показывают, что внедрение STEAM-ориентированных методов способствует повышению творческого потенциала и мотивации младших школьников.

**Ключевые слова:** подход STEAM, час творчества, проектная работа, начальное образование, интеграция, творческое мышление

### **Kirish**

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon o‘quvchining kelgusidagi intellektual va shaxsiy rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida “Ijodkorlik soati”ni tashkil etish jarayoni o‘quvchilarning nutqiy, mantiqiy va estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’limga STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvini joriy etish — o‘quv jarayonini faqat nazariy emas, balki amaliy, interaktiv va ijodiy faoliyat asosida tashkil etish imkonini bermoqda. STEAM yondashuvi yordamida o‘quvchilar ona tili fanida ham til qoidalarini amaliy hayot bilan bog‘lash, so‘z boyligini kengaytirish, matn yaratish jarayonida texnologik va estetik tafakkurdan foydalanish ko‘nikmalarini egallaydilar. “Ijodkorlik soati” jarayonida loyiha ishlarini tashkil etish, bolalarda jamoaviy ishlash, mas’uliyat va o‘z fikrini erkin ifoda etish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa STEAM yondashuvining asosiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, bunday integratsion yondashuv o‘quvchilarni nafaqat ona tili faniga, balki hayotiy muammolarni hal etishga yo‘naltiruvchi keng dunyoqarashli shaxs sifatida tarbiyalaydi.





## Materiallar va metodlar

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida "Ijodkorlik soati" mashg'ulotlarida ishtiroki, STEAM yondashuvining ta'sir mexanizmi hamda loyiha faoliyatini tashkil etish usullari tahlil qilindi. Tadqiqot 2024–2025 o'quv yili davomida Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali qoshidagi 2–4-sinflar misolida olib borildi. Tadqiqotda 80 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi va 6 nafar ona tili fani o'qituvchisi ishtirok etdi. Ularning ijodkorlik darajasi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari hamda loyihaviy faoliyatga bo'lgan munosabatlari kuzatuv, suhbat va test sinovlari orqali baholandi.

- Pedagogik kuzatuv metodi – o'quvchilarning ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faol ishtirokini aniqlash uchun;
- Suhbat va anketa metodi – o'qituvchilar va o'quvchilarning STEAM asosidagi mashg'ulotlarga nisbatan fikrini o'rganish uchun;
- Tajriba-sinov metodi – "Ijodkorlik soati"ni STEAM elementlari bilan boyitilgan shaklda tashkil etish orqali o'quvchilarning faollik darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun;
- Tahlil va taqqoslash metodi – ijodkorlik faoliyatini an'anaviy va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish natijalarini solishtirish uchun qo'llanildi.

## Natijalar

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatuv, test va suhbatlar natijasida STEAM yondashuvining "Ijodkorlik soati" mashg'ulotlariga ijobiy ta'siri aniqlandi. Dastlabki bosqichda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, matn yaratish va jamoada ishlash ko'nikmalari past darajada bo'lgan bo'lsa, loyiha asosida olib borilgan darslar natijasida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshdi. Tajriba sinovining yakuniy bosqichida o'quvchilarning: ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari 38 % dan 74 % gacha, nutqiy faollik darajasi 42 % dan 81 % gacha, o'z fikrini mustaqil ifoda etish qobiliyati 45 % dan 79 % gacha oshganligi kuzatildi. Shuningdek, STEAM elementlari bilan boyitilgan loyiha mashg'ulotlari o'quvchilarda tilni chuqur o'rganish, texnologik fikrlash, estetik idrok va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi. O'quvchilar darslarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, matn yaratish jarayonida dizayn, rasm, texnologik vositalardan





The terrorism-related forensic component incorporates explosive residue testing, ballistics, structural damage interpretation, digital device extraction, and communication analysis. Intelligence-based methodology includes examination of communication networks, operational planning indicators, financial transactions, encrypted message analysis, and behavioral patterns of radicalization.

Behavioral modeling is applied across both crime types. For traffic violations, modeling focuses on driver cognition, situational stress, reaction time, decision-making deficits, and impairment. For terrorism cases, behavioral modeling examines ideological commitment, recruitment pathways, operational discipline, and psychological traits associated with violent extremism.



Comparative case analysis enables identification of recurring patterns in evidence formation, investigative errors, and successful investigative strategies. In both fields, triangulation of evidence—physical, digital, testimonial, and behavioral—forms a core methodological principle. This triangulation mitigates the risk of cognitive bias and enhances the reliability of investigative conclusions.

## RESULTS

The findings of the study reveal significant methodological distinctions and shared principles between the investigation of traffic safety violations and terrorism-related crimes. In traffic investigations, early scene control and systematic measurement proved critical. Cases where investigators documented skid marks, vehicle positions, deformation profiles, and environmental conditions immediately after the incident produced far more accurate reconstructions than those where scene preservation was delayed. On-board digital data—such as GPS logs, event data recorders, and dashcam footage—played an increasingly important role, providing precise temporal information on speed, braking, and steering.

Driver behavior emerged as a key determinant of causation. Findings showed that intoxication, distraction, and aggressive driving were consistently linked with severe outcomes. Traffic investigations that incorporated behavioral analysis of driver perception, attention, and intent provided more reliable assessments of criminal culpability.

Terrorism-related investigations produced a different evidentiary landscape. Successful cases integrated physical forensic evidence—such as explosive residue, DNA traces, or weapon identification—with digital evidence, including communication metadata, online activity, and financial transfers. Intelligence data often provided context for operational planning and network connections. The study found that terrorism investigations were most effective when investigators established clear analytical links between ideological motivation, logistical preparation, and operational execution.

In several cases, digital surveillance and financial analysis were decisive in identifying co-conspirators, funding channels, and coordination mechanisms. The results also indicated that terrorism investigations require rigorous multi-agency coordination, as critical information is often dispersed across law enforcement, intelligence agencies, financial institutions, and international partners.

Across both crime types, the most reliable investigations were those employing evidentiary triangulation and avoiding early hypothesis fixation. The study also found that cases relying excessively on testimonial evidence—especially in stressful or high-threat situations—were more vulnerable to misinterpretation.

### DISCUSSION

The results demonstrate that while traffic crime investigations and terrorism investigations differ in purpose, scale, and criminogenic context, both require investigators to adopt a disciplined, scientific, and unbiased methodological approach. In traffic cases, the investigator’s analytical grounding must lie in physical science—vehicle dynamics, friction, impact physics, and human behavior under stress. In terrorism cases, the investigator’s grounding is in intelligence synthesis, threat evaluation, behavioral extremism, and forensic tracing of operational logistics.

The discussion emphasizes that both types of investigations face a common risk: cognitive bias arising from public pressure, emotional intensity, or preconceived notions. Traffic collisions involving fatalities often produce moral judgments that investigators must avoid; terrorism cases risk prejudgment based on ideology, ethnicity, or political context. Methodological rigor safeguards against these distortions.

The study also highlights institutional challenges. Traffic investigators may lack advanced digital forensic training needed to analyze on-board vehicle systems. Terrorism investigators may struggle with integrating intelligence information due to classification barriers, organizational fragmentation, or incompatible data systems. Strengthening interagency coordination and analytical capacity is essential.

Another important theme is the role of emerging technologies. Autonomous vehicle systems, telematics, encrypted messaging platforms, cryptocurrency transactions, and AI-driven radicalization pathways significantly reshape the evidentiary landscape. Investigators must adapt continuously to incorporate technological advances into their methodology.

Ultimately, the discussion argues that a unified forensic paradigm—rooted in scientific reasoning, multi-source verification, and interdisciplinary knowledge—provides the most effective basis for investigating both traffic crimes and terrorism.



## CONCLUSION

The study concludes that investigating criminal traffic safety violations and terrorism requires two methodologically divergent yet conceptually integrated approaches. Traffic investigations rely on scientific precision in reconstructing physical events, assessing driver responsibility, and interpreting dynamic environment factors. Terrorism investigations require strategic intelligence integration, behavioral insight, and the ability to map complex networks of communication, financing, and operational planning.

Despite their differences, the general principles of forensic methodology apply consistently across both domains: systematic planning, evidence-based reasoning, interdisciplinary cooperation, cognitive neutrality, and thorough documentation. These principles ensure that investigative outcomes rest on scientifically valid and legally sound foundations.

The conclusion emphasizes the need for expanding technical capacity—both in accident reconstruction and in counter-terrorism forensics. Enhanced digital forensic expertise, improved interagency communication, and integration of advanced modeling tools will significantly strengthen investigative accuracy. The article also stresses the ethical responsibility of investigators to avoid bias, protect procedural rights, and ensure the proportionality of investigative measures.

Ultimately, modern criminalistics requires investigators capable of shifting between routine regulatory offenses and high-risk terrorism cases while maintaining methodological integrity. Strengthening investigative training, improving institutional infrastructure, and adopting a scientific mindset will enable law enforcement systems to meet these evolving challenges.

## REFERENCES

1. Gross H. Criminal investigation: a practical handbook. – Lond.: Butterworths, 2019. – 412 p.
2. Locard E. Criminal investigation and forensic science. – Par.: Masson, 2018. – 284 p.
3. Belkin R.S. Criminalistics: general theory of forensic science. – M.: Yurlitinform, 2021. – 540 p.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

4. Inbau F.E., Reid J.E., Buckley J.P., Jayne B.C. Criminal interrogation and confessions. – N.Y.: Jones & Bartlett, 2019. – 482 p.
5. Fisher R.P., Geiselman R.E. Memory-enhancing interview techniques. – N.Y.: Springer, 2020. – 312 p.
6. Turvey B.E. Criminal profiling: behavioral evidence analysis. – Lond.: Academic Press, 2021. – 560 p.
7. Osterburg J.W., Ward R.H. Criminal investigation: method for reconstructing the past. – Cinc.: Anderson Publ., 2017. – 640 p.
8. Casey E. Digital evidence and computer crime. – Lond.: Elsevier, 2020. – 832 p.
9. Hollien H. Forensic voice science. – N.Y.: Academic Press, 2018. – 388 p.
10. Jessen M. Voice and speaker identification. – Berl.: Springer, 2019. – 402 p.





## IQTISODIY NUTQDA FRAZEOLOGIYA

**Safarmaxmatova Zarrina Narzullaevna**

Termiz Davlat Universiteti, katta o'qituvchi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy nutqda frazeologizmlarning o'рни va ularning kommunikativ, emotsional hamda stilistik funksiyalari tahlil qilinadi. Iqtisodiy sohada ishlatiladigan barqaror iboralar matnning ta'sirchanligini oshiradi, mutaxassislar nutqini jonlantiradi hamda axborotni esda qolarli qiladi. Shuningdek, maqolada iqtisodiy matnlarda uchraydigan frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy nutq, frazeologizm, barqaror ibora, iqtisodiy metafora, til uslubi, nutq madaniyati.

## ФРАЗЕОЛОГИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

**Сафармахматова Заррина Нарзуллаевна**

Старший преподаватель, (PhD)

Термезского государственного университета

**Аннотация:** В статье рассматривается роль фразеологизмов в экономической речи, их коммуникативные и стилистические функции. Отмечается, что устойчивые выражения в экономических текстах усиливают выразительность и делают профессиональный язык более живым и запоминающимся. Также анализируются культурно-национальные особенности экономических фразеологизмов.

**Ключевые слова:** экономическая речь, фразеологизм, устойчивое выражение, метафора, стиль, культура речи.

## PHRASEOLOGY IN ECONOMIC DISCOURSE

**Safarmakhmatova Zarrina Narzullaevna**

Senior Lecturer, (PhD) Termez State University







Iqtisodiy nutqni iqtisodiy jarayonlarni tavsiflash va tahlil qilish bilan bog'liq matnlar va bayonotlar to'plami sifatida ta'riflash mumkin: ilmiy maqolalardan gazeta nashrlarigacha, biznes muzokaralarigacha. Unda frazeologik birliklar bir nechta funktsiyalarni bajaradi:

- tushuntirish: murakkab hodisalarni tasvirlar orqali yanada tushunarli qilish;
- hissiy: nutqning ekspressivligini oshirish;
- kommunikativ: tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishga hissa qo'shish;
- baholash: vaziyat yoki hodisani tavsiflashga imkon bereng.

Masalan, "to tighten one's belt" ("belni mahkamlash") iborasi iqtisod zarurligini osongina tushuntiradi va "boom va bust" metaforasi iqtisodiyotning tsiklik xususiyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, frazeologik birliklardan foydalanish raqobat muhitida ma'lumotni yanada samarali etkazishga yordam beradi, bu erda auditoriya e'tiborini jalb qilish muhim manba hisoblanadi.

### 3. Iqtisodiy frazeologik birliklarning tipologiyasi

Iqtisodiy nutqdagi frazeologik birliklarni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Moliyaviy iboralar: "Money doesn't grow on trees" ("pul daraxtlarda o'smaydi"), "time is money". Ushbu iboralar resurslarning qiymati va cheklanganligini ta'kidlaydi.

2. Savdo va biznes iboralar: "to strike a bargain" ("bitim tuzish"), "corner the market" ("bozorni egallash"). Ular savdo va tadbirkorlik tarixi bilan bog'liq.

3. Iqtisodiyotning metaforik tasvirlari: "the invisible hand" (bozorning ko'rinmas qo'li — Adam Smit atamasi), "economic bubble" ("iqtisodiy qabariq"). Bunday iboralar mavhum hodisalar va jarayonlar dinamikasini vizual ravishda tasvirlashga yordam beradi.

4. Zamonaviy atamalar va neologizmlar: "cashless society" ("naqd pulsiz jamiyat"), "golden parachute" ("oltin parashut" — top-menejerga kompensatsiya). Ushbu frazeologik birliklar globallashgan iqtisodiyot haqiqatlarini aks ettiradi, shuningdek, yangi texnologiyalar ta'sirida iqtisodiy ongning o'zgarishini qayd etadi.

### 4. Tarjima muammolari

Iqtisodiy nutqda frazeologik birliklarni tarjima qilish ayniqsa qiyin. So'zma-so'z tarjima ko'pincha ma'noni buzadi va boshqa tilda ekvivalentning yo'qligi funktsional analogni izlashni talab qiladi. Masalan, inglizcha "bull market" "buqa bozori" deb tarjima qilinmaydi, balki "o'sish tendentsiyasiga ega bozor" deb tarjima qilinadi. Xuddi shunday,





“bear market” iborasi "ayiq bozori" emas, balki "pasayish tendentsiyasiga ega bozor" degan ma'noni anglatadi.

Bundan tashqari, madaniy tafovutlar "tarjimonning soxta do'stlari" paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tarjimon aniqlik va ifodani saqlab qolish uchun matnning pragmatik jihati va kommunikativ vazifasini hisobga olishi kerak.

#### 5. Amaliy ahamiyati

Iqtisodiy nutqda frazeologiyadan foydalanish muhim rol o'ynaydi:

- o'qitishda: frazeologik birliklar talabalarga professional so'z boyligini yaxshiroq o'rganishga va til kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi;

- ommaviy axborot vositalarida: barqaror iboralar maqolalarni yanada jonli, dinamik va esda qolarli qiladi;

- biznes aloqalarida: idiomalar fikrni qisqa va majoziy ma'noda ifodalashga imkon beradi, o'zaro tushunishni osonlashtiradi va ishonchli muhit yaratadi.

Shunday qilib, frazeologiya nafaqat dunyoning lingvistik rasmining bir qismi, balki professional sohada ham samarali vositadir. Zamonaviy iqtisodiy voqealar iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va globallashtirishini aks ettiruvchi yangi barqaror kombinatsiyalarni shakllantirishini hisobga olish ayniqsa muhimdir.

#### Xulosa

Iqtisodiy nutqdagi frazeologik birliklar muhim funksiyalarni bajaradi: ular ma'lumotni idrok etishni soddalashtiradi, nutqqa obrazlilik va hissiyot bag'ishlaydi, shuningdek tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi. Tarjima qiyinchiliklariga qaramay, ulardan foydalanish fan, ommaviy axborot vositalari va biznes aloqalarida talab bo'lib qolmoqda. Keyingi tadqiqotlar istiqbollari raqamli asrda paydo bo'lgan va global iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi yangi frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida fan va biznes tilini yaqinroq va tushunarli qilishga yordam beradigan frazeologiya.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. Ahmadaliyev A. O'zbek tilining frazeologik tizimi. — Toshkent: Fan, 2017.
2. Cook G. The Discourse of Advertising. — London: Routledge, 2020
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 2003.



4. Rasulova N. Iqtisodiy matnlarda til va uslub masalalari. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
5. Safarmakhamatova Z.N. Mediamatnda maqol va matallarning til tizimidagi uslubiy roli. — Samara: «LJournal» nashriyoti, 2025
6. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskij, pragmaticheskij i lingvokul'turologicheskij aspekty. — Moskva: Nauka, 2017.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

## SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA DORIVOR PLANTAGO MAJOR (ZUBTURUM L.) O‘SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA INTENSIV YETISHTIRISH

**b.f.n. dots: Sattarov Abdumurod Sattarovich**

**magistr: Eshpo‘latov Sunnatullo Erkin o‘g‘li**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisligi

[eshpulatov\\_sunnatullo@mail.ru](mailto:eshpulatov_sunnatullo@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining iqlim-sharoitlari va mahalliy ekotizim xususiyatlarini inobatga olgan holda Plantago major (Zubtutum L.) o‘simligini in vitro sharoitida intensiv ko‘paytirish protokoli ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** Surxondaryo, Plantago major, zubtutum, in vitro, mikroko‘paytirish, sterilizatsiya, adaptatsiya.


**Аннотация.** В данной статье разработан протокол интенсивного размножения подорожника большого (зубтutum L.) in vitro с учётом климатических условий Сурхандарьинской области и особенностей местной экосистемы.

**Ключевые слова:** Сурхандарья, подорожник большой, зубтutum, in vitro, микроразмножение, стерилизация, адаптация.

**Abstract.** This article develops a protocol for intensive in vitro propagation of plantain (Denthurium L.), taking into account the climatic conditions of the Surkhandarya region and the characteristics of the local ecosystem.

**Keywords:** Surkhandarya, plantain, Denthurium, in vitro, micropropagation, sterilization, adaptation.

*So‘ngi yillarda dunyo miqyosida kasaliklar turi va kasallanish sonining ortishi dori darmonga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar dunyoning rivojlangan mamlakatlari ko‘plab laboratoriyalarida olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda ham farmatsevtik ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy xom ashyolar asosida dori preparatlarining texnologiyasini*





ishlab chiqish, hamda bu ishlarni amaliyotga tatbiq qilish ayni damda bu soha vakillarining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Zubtutumning dorivorlik xususiyatlari asosan uning bargi, urug'i va ildizidagi bioaktiv moddalar — flavonoidlar, saponinlar, taninlar, polisaxaridlar, A, C va K vitaminlari, shuningdek, antibakterial fermentlar bilan bog'liq. Ushbu moddalar yallig'lanishga qarshi, mikrobgga qarshi, og'riq qoldiruvchi, qon to'xtatuvchi va yaralarni bitkazuvchi xususiyatlarga ega [1].

Xalq tabobatida zubtutumdan quyidagi hollarda foydalaniladi:

1. Ochilmagan yaralar va kuyishlar uchun kompress sifatida;
2. Yo'tal, bronxit, shamollashda damlama ko'rinishida;
3. Oshqozon-ichak kasalliklarida me'da faoliyatini yaxshilovchi vosita sifatida.

Farmatsevtika sanoatida esa zubtutum asosida sirop, damlama, maz va tabletkalar ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga, u biologik faol qo'shimcha (BFQ) sifatida ham keng qo'llaniladi. Zubtutum o'simligi ekologik jihatdan ham juda chidamli bo'lib, turli tuproq sharoitlarida o'sishga moslashgan. Ayniqsa, u tuproqdagi og'ir metallarni o'zlashtirib, bioremediatsiya (tabiiy tozalash) jarayonlarida foydali bo'lishi mumkin. Shuningdek, zubtutum changga, pestitsidlarga va atrof-muhitdagi zararllovchi omillarga nisbatan yuqori darajada qarshilik ko'rsatadi, bu esa uni ekologik toza hududlar bilan bir qatorda sanoat zonalarida ham o'stirish imkonini beradi. Tibbiyotda ushbu o'simlikdan yaratilgan preparatlar ayniqsa pediatriya, dermatologiya va gastroenterologiya sohalarida qo'llanilmoqda. Misol uchun, bolalarda bo'ladigan yengil nafas yo'llari yallig'lanishlari va yo'talga qarshi zubtutum siropi samarali hisoblanadi. Zubtutum urug'i esa hozirgi kunda parhezda qo'llanilib, ovqat hazm qilishni yaxshilovchi tabiiy vosita sifatida tan olinmoqda. Zubtutumning xalq tabobatidagi qadimiy qo'llanilishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlanib, bugungi kunda biologik faol moddalarning laboratoriya sharoitida aniqlanishi va dorilar shaklida ishlab chiqilishi orqali tibbiyotda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu bois ushbu o'simlikni chuqur o'rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va undan samarali foydalanish istiqbollari juda keng.

**Zubtutum, bargizub (*Plantago major L.*) o'simligining kimyoviy tarkibi (%).**

**1-jadval**


Moddalar nomi	Qaysi organda ko'p miqdorda bo'lishi	% miqdori
---------------	--------------------------------------	-----------





Efir moylar	Yer ustki qismida	0.1
C va K vitamin	Yer ustki qismida	3
karotin, flavonoidlar	Yer ustki qismida	4.5-32.91
Yo g' saponinlar	Urug'da	22
Shilliq	Urug'da	44

*Mikroklonal ko'paytirish – o'simliklarni hujayra va to'qimalari orqali jinsiy ko'paytirish usuli bo'lib, undan xuddi ona o'simlik bilan har jihatdan o'xshash organizmni hosil bo'lishidir.* Mazkur texnologiya haqida gap ketar ekan, o'z o'rnida uning samaradorligini ham ta'kidlash lozim. Masalan: 1. Tez ko'paytirish: In-vitro usuli orqali o'simliklarni ko'paytirish jarayoni an'anaviy usullarga nisbatan ancha tez va samarali. Bu usul orqali bir yil davomida millionlab ko'chatlar olish mumkin. 2. Genetik barqarorlik: Ushbu texnologiya o'simliklarning genetik barqarorligini saqlab qoladi, ya'ni bir xil sifatdagi ko'chatlar olinadi. 3. Yuqori hosildorlik: In vitro texnologiyasi orqali ko'paytirilgan o'simliklar yuqori hosildorlik va kasalliklarga chidamlilik ko'rsatadi. In-vitro uslubining foydali tomonlaridan biri shuki, ushbu ko'paytirish usullari ekologik jihatdan xavfsiz bo'lib, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shuningdek, an'anaviy ko'paytirish usullariga nisbatan bu texnologiya orqali xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Va albatta, in-vitro texnologiyasi ilm-fan, qishloq xo'jaligi sohalarida ko'plab innovatsiyalarga imkoniyat yaratadi, bu esa qishloq xo'jaligi rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. In-vitro texnologiyalari qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning samaradorligi, afzalligi va ko'plab foydali tomonlari tufayli bu usul keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida yuqori hosildorlik, sog'lom ko'chatlar va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirish va yangi innovatsion yutuqlarga erishish imkoniyatlarini ochib beradi. Surxondaryo Viloyati O'zbekistonning eng issiq hududi bo'lib, dorivor o'simliklar xilma-xilligi bilan ajralib turadi.



## MATERIALLAR VA METODLAR

Namunalar Surxondaryoning Quyoshli, Termiz tumani atroflaridan yig'ildi

Sterilizatsiya ketma-ketligi:

- 70% etanol – 40 soniya
- 2.5% NaOCl – 10 daqiqa

## NATIJALAR

Ko'payish samaradorligi:

- MS + 1 mg/l BAP + 0.1 mg/l NAA – 5–7 baravar ko'payish.
- IBA bilan ildizlanish – 88–92%.

## MUHOKAMA

Surxondaryo populyatsiyasi stressga chidamliligi sababli in vitro ko'payish koeffitsiyenti yuqori bo'ldi.

## XULOSA

- Eng yaxshi ko'paytirish muhiti: MS + BAP 1 mg/l + NAA 0.1 mg/l
- Sterilizatsiyaning optimal rejimi: 70% etanol + 2.5% NaOCl
- IBA bilan ildiz hosil bo'lish: 90% gacha

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki odatiy o'simlik ko'chatlaridan ko'ra in-vitro laboratoriyalarida yetishtirilgan nihollarning ham bir necha afzalliklari mavjud. Sog'lom ko'chatlar: Laboratoriya sharoitida ko'paytirilgan o'simliklar viruslardan xoli, sog'lom va kasalliklarga chidamli bo'ladi. Turli xil o'simliklarni ko'paytirish: In-vitro texnologiyasi orqali ko'paytirish jarayoni murakkab bo'lgan hamda noyob o'simliklarni ham ko'paytirish mumkin. Yangi navlarni o'stirish: Genetik modifikatsiya va seleksiya usullari yordamida yangi navlarni yaratish, ularni keng ko'lamda sinab ko'rish imkoniyati mavjud. Yana qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki Zubturus (Plantago major) o'simligi o'zining boy kimyoviy tarkibi va keng dorivorlik xususiyatlari bilan qadimdan xalq tabobatida muhim o'rin egallab kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni





ko'rsatadiki, ushbu o'simlik tarkibidagi bioaktiv moddalar turli kasalliklarni davolashda samarali bo'lib, ayniqsa yallig'lanishga qarshi, mikrobg qarshi va yaralarni bitkazuvchi ta'sir ko'rsatadi. Zubtutum oson yetishtiriladigan, ekologik barqaror va arzon manba bo'lib, undan nafaqat an'anaviy tibbiyotda, balki zamonaviy farmatsevtika sanoatida ham keng foydalanish mumkin. Shu bois, kelgusida zubtutumning farmakologik imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish va undan dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR

1. Murashige T., Skoog F. (1962)
2. George E.F., Hall M.A., De Klerk G.-J. (2008)
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants
4. Surxondaryo ekologik atlas ma'lumotlari
5. Rahimov A., Karimova S. (2021)
6. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, 2017 yil
7. Butenko R.G. Biologiya kletok vısshix rasteniy in vitro i biotexnologii na ix osnove. – M.: FBK-PRESS, 1999. – 160 s
8. Babikova A.V., Gorpenchenko T.Y., Juravlev Yu.I. Rastenie kak obyekt biotexnologii // Komarovskie chteniya. – Vıpr. LV. – 2007. –S. 184-211
9. Karimov, A.X., & Xabibullayeva, M. (2019). Dorivor o'simliklar va ularning xalq tabobatidagi o'rni. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
10. Xolmatova, G.T. (2021). "Zubtutum o'simligining biologik xususiyatlari va farmakologik ahamiyati", Biologiya va tibbiyot muammolari jurnali, 3(5), 44–49.



## ANTROPOLOGIYA FANI TADQIQOT MARKAZIDA TANOVUL MADANIYATI

**Fayzullayeva Mavlyuda Xamzayevna**

Tarix fanlari doktori (DSc)

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

[+998915807293 mavlyuda.fayzullayeva@tues.uz](mailto:mavlyuda.fayzullayeva@tues.uz)

**Annotatsiya.** Hozirgi zamon antropologiyasida odamlar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda taomning ahamiyati ta'kidlanib, tanovul madaniyatining ramziy tomonlari o'rganiladi. Maqolada taomlanish madaniyati, inson va taom o'rtasidagi munosabatning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi yoritilgan bo'lib, taom va taomlanishning belgi va marosimiy tomonlariga, taomlanishdagi ta'qiq va cheklovlarga hamda taomlanishning ramziy ma'nosiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Taom, tanovul, ijtimoiy hayot, marosim, urf-odat, sovchilik, to'y, kelin-kuyov, shirinlik, ichimlik.

## КУЛЬТУРА ПИТАНИЯ В ЦЕНТРЕ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

**Аннотация.** В современной антропологии подчеркивается значение пищи в регуляции отношений между людьми и социальными явлениями, а также изучаются символические аспекты культуры питания. В статье раскрываются вопросы культуры питания, взаимосвязи человека и пищи с социальной жизнью, уделяется особое внимание знаковым и ритуальным сторонам приема пищи, существующим пищевым запретам и ограничениям, а также символическому значению еды.

**Ключевые слова:** пища, прием пищи, социальная жизнь, обряд, традиция, сватовство, свадьба, жених и невеста, сладости, напитки.

## CULTURE OF FOOD IN THE CENTER OF ANTHROPOLOGICAL RESEARCH

**Abstract.** Modern anthropology emphasizes the significant role of food in regulating social relations and shaping various social phenomena. This article examines



key aspects of food culture and the relationship between humans and food within the context of social life. Special attention is given to the symbolic and ritual functions of eating, existing dietary taboos and restrictions, as well as the symbolic meanings attributed to food in different cultural traditions.

**Keywords:** food, eating practices, social life, ritual, tradition, matchmaking, wedding, bride and groom, sweets, beverages.

**Kirish.** An'anaviy etnografiyada, taomlar, qoidaga ko'ra doimo moddiy madaniyatning etnografik uchligi: taomlar, kiyim kechaklar, turar joylarning bir muhim komponenti sifatida o'rganilib kelgan.

Bugungi kunda taomlanish antropologiyasi - zamonaviy etnologlar, ijtimoiy va madaniy antropologlar tomonidan dinamik tarzda tadqiq etib borilmoqda. Milliy oshxona esa har doim klassik etnografiyaning betakror tadqiqot ob'yekti bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Taomlarning tarkibi va tayyorlanishiga tabiiy-geografik, xo'jalik, tarixiy-madaniy va kundalik turmush tarzidagi odatiy faktorlar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek, hayot tajribasining ajralmas qismi bo'lgan taomlanish inson mavjud bo'lishining zaruriy sharti hisoblanadi. Demakki, inson va taom o'rtasidagi munosabat ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lib, amaliy bilimlar fonida shakllanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** An'anaviy taomlar va ular bilan bog'liq marosimlar tarixini to'laqonli o'rganishda tarixiy yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy-ilmiy adabiyotlar, arxeologik topilmalar va etnografik dala ma'lumotlari qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, mavzuga bevosita taalluqli bo'lgan adabiyotlar, ya'ni turli davr va hududlarda o'tkazilgan etnografik, antropologik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari quyidagicha tadqiq qilindi.

Markaziy Osiyo xalqlarining, ayniqsa o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlarning **marosim madaniyati, nikoh va to'y an'analari, taom va ovqatlanish bilan bog'liq urf-odatlarini** o'rganishda **M. Fayzullayeva, A. Ashirov, G. Zunnunovalar** o'zbek xalqining milliy taomlari, ular atrofidagi marosimlar, urf-odatlar, qadimiy e'tiqodlar va ularning ijtimoiy ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borib, xususan, M. Fayzullayeva Surxon vohasidagi taomlar va ularga oid an'analarni mahalliy etnografik materiallar asosida yoritisa, A. Ashirov qadimiy e'tiqodlar va marosimlar bilan birga





taomning marosimiy vazifalarini keng ko‘lamda tahlil qiladi. G. Zunnunova esa o‘zbeklarda rituallik masalasini ilmiy-nazariy yondashuv bilan yoritib, taomning simvolik funksiyalarini ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar **taomlanish madaniyatining antropologik mohiyatini** tushunishda asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.


**Etnograf olimlar N.P. Lobacheva, N.A. Kislyakov, S.A. Abramzon, A.L. Troitskayalarning** tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlarining nikoh, to‘y va oilaviy marosimlarining tarixiy-etnografik ildizlari o‘rganilib, N.A. Kislyakovning bir necha asarlari to‘y marosimlarining strukturasi, marosim elementlarining ma‘nosini, ularning ijtimoiy funksiyasini chuqur tahlil qilsa, N.P. Lobacheva Xorazm o‘zbeklari to‘y an‘analarini etnografik tasvirlar bilan ochib beradi. Shuningdek, S.A. Abramzon Pamir qirg‘izlarining to‘y marosimlarini o‘rgansa, A.L. Troitskaya esa yuqori Zaravshon vodiysi tojiklarining qadimiy urf-odatlarini yoritadi. Ushbu manbalar taom va taomlanishning **marosimiy kontekstda qanday rol o‘ynaganini** tushunish uchun juda muhim, ya‘ni, to‘y dasturxonining tartibi, taomlar ramziy ma‘nosi, mehmon kutish odatlari va ularning ijtimoiy vazifalari batafsil ko‘rsatiladi.

Yevropa xalqlaridagi taomlar bilan bog‘liq marosimlar, xususan, donli mahsulotlarning ko‘payish, baraka, farovonlik ramzi sifatida tushunilishini tahlil qilgan olim N.M. Listovanning **ishlari** o‘zbek va boshqa xorijiy dunyo xalqlaridagi o‘xshash ramzlar bilan qiyosiy tahlil uchun foydalidir.

Demak, yuqorida keltirilgan adabiyotlar **taomlanish madaniyati** Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, urf-odatlari va marosimlarida muhim o‘rin tutishini belgilab beradi. Shuningdek, taomning **ramziy ma‘nosi** bo‘lib, unumdorlik, baraka, poklik, baxt kabi tushunchalar bilan bog‘lanishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, nikoh va to‘y marosimlari haqidagi etnografik tadqiqotlar taomning **ijtimoiy tartibotni mustahkamlashdagi** rolini ochib beradi. Qolaversa, mahalliy va qiyosiy tadqiqotlar tanovul bilan bog‘liq marosimlarning **umuminsoniylik va mahalliylik** xususiyatlari simbiozini yoritishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy antropologiya va etnografiya fanining asosiy yondashuvlari tashkil etadi. Taom va taomlanish madaniyatining ijtimoiy, marosimiy hamda ramziy funksiyalarini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi. Surxon vohasi, Farg‘ona vodiysi, Xorazm hududi qishloqlarida o‘tkazilgan bevosita kuzatuvlar orqali to‘y, sovchilik, kelin-kuyov





marosimlarida taomning tutgan o'rnini o'rganildi. Marosim taomlarining tuzilishi, tarqatilishi, ishtirokchilar o'rtasidagi vazifalar kuzatilib, ularning ramziy ma'nolari etnografik kuzatuv metodlari orqali qayd etildi.

Shuningdek, mahalliy aholi, kayvoni ayollar, oshpazlar, sovchilar hamda oqsoqollardan olingan suhbatlar tahlil qilinib, informatorlarning shaxsiy xotiralari, avloddan-avlodga o'tuvchi urf-odatlar haqidagi ma'lumotlar asosiy empirik material sifatida suhbat va intervyu sifatida foydalanildi.

Qiyosiy-etnografik tahlil orqali esa o'zbek xalqining marosim taomlari boshqa Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, qozoq, qirg'iz, tojik xalqlarining an'analari bilan qiyoslab tahlil qilindi. Bu esa sovchilik taomlari, nikoh marosimlaridagi «quyruq-bo'vur», «tarhovla», «ona tovoq», «to'qqiz tovoq» kabi udumlarning umumiylik va farqlarini aniqlash imkonini berdi.


Arxiv hujjatlari, etnografik ekspeditsiya materiallari, eski yozma manbalar hamda etnograf olimlar N. Kislyakov, S. Abramzon, A. Ashirov, G. Zunnunova va boshqalarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning yondashuvlari asosida marosim taomlarining tarixiy ildizlari va ramziy vazifalari tarixiy tahlil metodi yordamida analiz qilindi.

Taomning ramziy, marosimiy va ijtimoiy munosabatlar vositasi sifatida talqin qilinishida simvolik antropologiya, marosim nazariyasi va ijtimoiy almashinuv nazariyasining asosiy g'oyalariga tayanilib, ushbu yondashuvlar orqali taomning nafaqat moddiy ne'mat, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi ramz sifatidagi funksiyasini ochib berishda antropologik interpretatsiya metodi yordamga keldi.

Tanovulning marosimlardagi vazifalari, ya'ni, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash, nikohni tasdiqlash, ijtimoiy maqomni belgilash, marosim ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni taqsimlash kabi jihatlarni tahlil qilishda strukturaviy-funksional yondashuv metodiga tayanildi.

**Tahlil va natijalar.** Antropologiya fanida taom va taomlanishning belgi va marosimiy tomonlariga, taomlanishdagi ta'qiq va cheklovlarga hamda taomlanishning ramziy ma'nosiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Jumladan, taom tayyorlash va bir-biriga taom tortiq qilish urf-odatlarini o'rganganda, Surxon vohasining Bandixon tumani qishloqlarida to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan «og'iz moylandi» udumiga e'tibor qaratamiz [1. 16]. Qiz xonadoniga sovchilar borganda qiz tomon rozilik alomati sifatida sovchining oldiga sariyog' eritib





qo‘ygan va sovchi shuni tanovul qilishi shart bo‘lgan. Ushbu taom har ikki tomonning qarindoshchilik qilishining ramzi bo‘lib, buning asosida sariyog‘day muloyim qizlarini ularga berganligini, shu bilan birgalikda yoshlarning kelgusi hayoti shu sariyog‘day silliq, muloyim va rizqlari ham yog‘liqqina bo‘lishiga ishora qilingan. So‘ng kuyov tomondagilar sovchilar qaytishganda «qalay, og‘iz moylandimi?» deb so‘rashgan. «Ha moylandi» desa, demak, qiz tomonning rozi bo‘lganligini bilib olishgan.


Xorazm o‘zbeklarida esa sovchilikka to‘qqizta qatlama qilib borilgan. Sovg‘alarni qabul qilinishi qiz tomonning rozi ekanligidan dalolat bergan. Aksincha, rozi bo‘lmasa olib borilgan qatlamalardan sakkiztasi va bir non qaytarilgan [2. 140]. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bu yerda taomlar ramziy ma‘no kasb etib, o‘z fikrlarini shu taomlar orqali bayon etganlar.

Sovchilarni marosim taomi bilan siylash an‘anasi butun Markaziy Osiyo xalqlarida ham bo‘lgan. Masalan, qozoq xalqlarida qiz uyiga sovchilar borganda, nikoh haqida har ikki tomon kelishib, qalin bichilgandan keyin an‘anaviy marosim taomi quyruq bovr bilan birga qo‘y to‘shi qo‘yilgan. Taom avval kuyov tomonga, so‘ngra kelin tomonga tortilganki, bu o‘rtadagi kelishuvni buzmaslik sharti hisoblangan. Qirg‘izlarda ham «qalin bichish» marosimi an‘anaviy taom quyruq bovr yeyish bilan mustahkamlangan [3. 101-115].

Surxon vohasida oshiqli ilik kuyovga nikoh to‘yi kuni ya‘ni, kelin uyiga tashrif buyurganda nasib etgan. Bu marosim «to‘qqiz tovoq» [4. 35] deb atalib, yangalar tomonidan to‘qqizta tovoqda har xil taomlar keltirilgan. Shular ichida alohida tovoqda kuyovga atab, go‘шти bilan oshiqli ilik olib kelingan. Kuyov ilikni bir tishlab, jo‘ralariga uzatgan va hammasi bir-bir tishlab yeb tugatgan. Buning zamirida kuyov jo‘ralar ham shunday kunlarga yetishsin, degan yaxshi niyat bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi qipchoqlarida esa to‘qqiz tovoq marosimida kuyovga atab, qizning onasi tomonidan tayyorlangan, qo‘y to‘shidan pishirilgan taom «ona tovoq» kiritilgan. O‘z navbatida, kuyov mazkur taomni o‘zining eng qadrlı mehmoniga ilingan [5. 210].

Surxon vohasining Qumqo‘rg‘on tumani Bog‘aro, Xo‘jamulki va Qarsoqli qishloqlarida esa kuyov oldiga qo‘yning kalla-pochasi qo‘yilgan. Endi aksincha, jo‘ralar kalla-pochani bir-bir tishlab, yeb, kuyovga uzatganlar va kuyov kalla-pochaning





hammasini oxirigacha yeyishi shart bo'lgan. Bu bilan kuyov o'zining kuchli va baquvvatligini isbotlamoqchi bo'lgan.

Bunday marosimlar mamlakatimizning boshqa hududlarida ham amalga oshirilgan. Masalan, Toshkent shahrida kuyov oldiga ikki laganda *palov* keladi. Kuyov birinchi lagandagi palovdan totib ko'rib, kelin va uning dugonalariga uzatadi. Ular esa oxirigacha yeyishlari kerak. Ikkinchi lagandagi palov bilan kuyov o'zining uylanmagan jo'ralarini siylaydi. Bu yerda laganlardagi taom ramziy ma'no kasb etib, go'yoki kelinning turmushga chiqmagan dugonolari va kuyovning uylanmagan jo'ralariga baxt ulashgan [6. 75].


An'anaviy nikoh to'yi tantanalarida taomlar ramziy ahamiyat kasb etibgina qolmay qator afsungarlik vazifalarini ham bajargan.

Jumladan, Surxon vohasining Denov tumani qishloqlarida kelin kelgandan keyin dasturxonga kelina atab pishirilgan atala (bulamiq) qo'yilgan va birinchi bo'lib kelin totib ko'rgan. Kelinga atab pishirilgani uchun «kelin bulamiq» nomini olgan bu taom «kelinimiz ko'ngli shu bulamiqday yumshoq va muloyim bo'lsin», degan niyatda qilingan [1. 31].

Bunday marosimlar boshqa millat vakillarida ham o'tkazilganini ko'ramiz. Biroq, bunday marosimlar o'tkazilgan shakli bilan farqlansada, maqsad va mohiyati jihatidan bir xil mazmun kasb etgan. Masalan, Qorategin va Darvoz tojiklarida kelinning yuz ochar marosimida «*tarhovla*» (un va yog'dan qilingan atalaga o'xshash quyuc taom) olib kelishgan. Kelin unga qo'l urmay o'tirgan. Shunda qaynonasi: «Mana senga bog'rog'larim, endi sening hayoting shularga bog'liq. Ol, yegin», - deb aytgan. Shundan so'ng kelin taomga qo'l uzatgan [7. 53]. Albatta, qaynona keliniga bu gaplarni ramziy ma'noda aytgan va o'z navbatida kelin ham o'zining yangi uyida qaynonasidan iliq so'zlarni kutib turgan. Bu o'rtada taom qaynona-kelinning iliq munosabatini ifodalash vazifasini o'tagan.

Yuqori Zarafshon tojiklarida ham to'y o'tgandan keyin kelining yuzi yorug' bo'lib chiqqanini eshitgan qaynonasi holva pishirib tol tovoqqa solgan va ustidan yigirmata chalpak qo'yib kelinini ko'rgani kirgan [8. 233].

Surxon vohasining Sariosiyo tumani qishloqlarida «kelinimiz qo'shgani bilan moshi-guruch bo'lib ketsin», deb moshkichiri taomini qo'yishgan [1. 120]. Birinchidan, yangi kelin o'zining yangi uyida «mosh-guruchdek aralashib ketsin, moshkichiridek muloyim, yuvosh va kirishimlik bo'lsin» desa, ikkinchidan, mosh ko'payish xususiyatiga



ega bo'lgani tufayli «o'zidan ko'payib yursin», degan afsungarlik niyati mujassamlashgan [9. 164].

Surxon vohasining Sherobod tumani Oqjar qishlog'ida esa, kelin oldiga shirguruch qo'yilgan va «kelinimiz yuzi yorug', sariyog'day muloyim, sutdek oqko'ngil, tili shakardek shirin va guruchdek serhosil-serfarzand bo'lsin», deb niyat qilishgan [1. 120].

**Xulosa.** Hozirgi zamon antropologiyasida odamlar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda taomning ahamiyati ta'kidlanib, tanovul madaniyatining ramziy tomonlarini o'rganiladi. Xususan, insonlarning bir dasturxonda o'tirib ovqatlanishi samimiy harakatlarni yuzaga keltiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, moddiy madaniyatni o'rganish yetakchi yo'nalishlardan biri bo'lishiga qaramay taomlanish madaniyati juda kam o'rganilgan. Vaholanki, taomlar xo'jalik-madaniy tiplarning aksi sifatida, mahsulot sifatida, madaniyat kodi sifatida, xotirada saqlab qolish joyi sifatida va hokazo shakllarda ko'rinadi. Milliy oshxonaning o'ziga xos xususiyatlari esa u yoki bu millat madaniyatining qadimiy ildizlarini o'zida mujassam etadi.


Demakki, taomlanish mavzusi etnograflarning qarashlaricha moddiy madaniyatning bir qismi sifatida ko'riladi, ammo, antropologiyaning o'ziga xos shartiga ko'ra konsyeptual ravishda o'z o'rnini topib oldi. Darhaqiqat, taomlanish madaniyatini o'rganish antropologlar uchun tadqiqot markaziga aylanib bormoqda.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). Тошкент, «YANGI NASHR» нашриёти. 2010. – Б. 116.
2. Лобачева Н.П. Свадебный обряд хорезмских узбеков. КСИЭ, в.34, 1960. - С.39-48.; Кисляков Н.А. Брачные обряды и церемонии. // Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Л., Наука, 1969. - С.140.
3. Кисляков Н.А. Брачные обряды и церемонии. // Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Л., Наука, 1969. - С. 118.; - С. 115.
4. Абрамзон С.А. Свадебные обычаи у киргизов Памира. // Труды АН Тадж ССР. Т. 20. - М.,1959. – С. 35.; - Б. 210.
5. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Т., 2007. - Б. 210.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

6. Зуннунова Г. К вопросу о ритуальной обрядности узбеков. // Ўзбекистон тарихи. 2002. №1. - Б.75.
7. Кисляков Н.А. Таджики Каратегина и Дарваза. Душанбе., Дониш. 1976. - С.53.
8. Троицкая А.Л. Некоторые старинные обычаи поверья таджиков долины верхнего Зеравшана. // Занятия и быт народов Средней Азии. Л., Наука,1971. - С.233.
9. Европа халқларида ҳам мош, тариқ каби донлар кўпайиш рамзи ҳисобланган. Қаранг: Листова Н.М. Пицца в обрядах и обычаях // Календарне обычаи и обряды в странах Зарубежной Европы. М., 1983. - С. 164.





## ПРИМЕНЕНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ В МЕДИЦИНЕ И ФАРМАКОЛОГИИ

Исмаилов Улугбек студент 2-курса

Ташкентский государственный медицинский университет

**Аннотация.** Органические соединения играют важную роль в современной медицине и фармакологии. Они служат основой для создания широкого спектра лекарств, направленных на лечение инфекционных заболеваний, рака, сердечно-сосудистых заболеваний, психических расстройств и многих других патологий. В статье рассмотрены различные аспекты применения органических молекул, включая их синтез, механизм действия и практическое использование в терапевтических целях. Особое внимание уделено антибиотикам, противовирусным средствам, химиотерапевтическим препаратам, а также препаратам для лечения сердечно-сосудистых заболеваний и психических расстройств. Рассмотрены также вопросы токсичности и побочных эффектов органических препаратов, а также вызовы, связанные с устойчивостью патогенов к антибиотикам. Заключение подчеркивает важность дальнейших исследований в области органической химии и фармацевтики для создания более эффективных и безопасных медикаментов.

**Ключевые слова:** органические соединения, медицина, фармакология, антибиотики, противовирусные препараты, химиотерапия, кардиология, нейрофармакология, побочные эффекты, токсичность, устойчивость патогенов, молекулярное моделирование, фармацевтика

**Введение.** Органические соединения играют ключевую роль в разработке и применении лекарств, составляя основу современной медицины и фармакологии. Эти молекулы, обладая уникальными химическими свойствами, способны эффективно взаимодействовать с биологическими системами, что позволяет им оказывать влияние на различные физиологические процессы в организме. В результате длительных исследований и экспериментов органические соединения были интегрированы в терапевтическую практику для лечения множества заболеваний, включая инфекционные болезни, онкологические заболевания, расстройства сердечно-сосудистой системы и неврологические расстройства.

С момента открытия первых органических препаратов, таких как морфий и хинин, и до появления современных синтетических молекул, органическая химия претерпела значительные изменения. Сегодняшний уровень развития органической



химии и молекулярной фармацевтики позволяет создавать препараты с высокой специфичностью действия, минимизируя побочные эффекты и повышая эффективность лечения. Новые методы синтеза органических молекул, молекулярное моделирование и персонализированная медицина открывают новые горизонты для разработки лекарств, способных точно воздействовать на молекулы, участвующие в патогенезе различных заболеваний.

Однако, несмотря на значительные достижения в области органической фармацевтики, существует ряд проблем, таких как токсичность препаратов, побочные эффекты, а также растущая угроза антибиотикорезистентности, что подчеркивает необходимость дальнейших исследований и усовершенствования существующих методов лечения. В связи с этим, важно рассматривать как достижения, так и вызовы, с которыми сталкивается современная медицина при использовании органических соединений в лечебной практике.

Органические соединения как основа для создания лекарств. Органические молекулы обладают уникальными свойствами, которые делают их подходящими для использования в медицинских целях. Одним из основных факторов, делающих органические соединения идеальными кандидатами для фармацевтического применения, является их способность взаимодействовать с биологическими молекулами, такими как белки, нуклеиновые кислоты, рецепторы и ферменты, оказывая на них специфическое воздействие.

С момента открытия первых органических веществ, применяемых в медицине, такие как морфий и хинин, органические соединения продолжали эволюционировать, становясь основой для разработки новых препаратов. Сегодня органические молекулы являются составной частью множества медикаментов, применяемых для лечения инфекционных заболеваний, кардиологических и неврологических расстройств, а также для борьбы с раковыми заболеваниями.

Современные фармацевтические компании активно занимаются синтезом органических молекул с целенаправленным действием. Молекулярное моделирование и высокоскоростной синтез органических соединений позволяют разрабатывать препараты, которые могут точно воздействовать на целевые молекулы в организме, минимизируя побочные эффекты и улучшая эффективность лечения.

Органические соединения в лечении инфекционных заболеваний. Антибиотики являются одними из наиболее известных органических препаратов, используемых для борьбы с бактериальными инфекциями. Природные антибиотики, такие как пенициллин, были открыты еще в середине XX века, но сегодня разработаны и синтетические аналоги, которые обладают более широким





спектром действия и устойчивостью к антибиотикорезистентности. Среди таких препаратов можно выделить цефалоспорины, макролиды и фторхинолоны.

Механизм действия антибиотиков заключается в их способности нарушать жизненно важные процессы в клетках микроорганизмов, такие как синтез клеточной стенки, репликация ДНК или синтез белков, что приводит к гибели бактерий.

Органические соединения в онкологии. Органические молекулы активно используются в химиотерапии для лечения рака. В этой области применяются препараты, которые воздействуют на быстро делящиеся клетки, что особенно важно при лечении онкологических заболеваний. Классическими примерами таких препаратов являются алкилирующие агенты, антиметаболиты и препараты на основе платины, такие как цисплатин.


Цисплатин и его производные связываются с ДНК раковых клеток, что препятствует их делению и вызывает клеточную смерть. Однако из-за высокой токсичности и побочных эффектов химиотерапия остается областью активных исследований, направленных на создание более безопасных и эффективных препаратов.

Таргетные препараты. Совсем недавно появились таргетные препараты, которые действуют на специфические молекулы, участвующие в развитии раковых клеток. Например, препараты, направленные на ингибирование рецепторов роста эпидермального фактора (EGFR) или антиангиогенные средства, блокируют кровоснабжение опухолей, ограничивая их рост. Примеры таких препаратов включают трастузумаб и бевацизумаб, которые являются органическими молекулами, направленными на лечение конкретных типов рака.

Органические соединения в кардиологии. Органические соединения активно используются для лечения сердечно-сосудистых заболеваний. Препараты для лечения гипертонии, аритмий и сердечной недостаточности часто основываются на органических молекулах.

Одним из примеров является использование органических нитратов, таких как нитроглицерин, который помогает расширить кровеносные сосуды и улучшить кровообращение при стенокардии и других заболеваниях сердца. Также широко применяются органические соединения, такие как блокаторы кальциевых каналов, которые уменьшают нагрузку на сердце и контролируют артериальное давление.

Для лечения нарушений сердечного ритма (аритмий) применяются органические молекулы, такие как амидафон и флекаинид. Эти препараты регулируют электрофизиологические процессы в сердце и помогают восстанавливать нормальный ритм.





Применение органических соединений в нейрофармакологии. Органические соединения широко используются для лечения психических заболеваний, таких как депрессия, шизофрения и биполярное расстройство. Антидепрессанты, такие как сертралин и флуоксетин, являются органическими молекулами, которые регулируют уровень нейромедиаторов в мозге, что способствует улучшению настроения и снижению симптомов депрессии.

Органические соединения также активно используются для лечения заболеваний, таких как болезнь Паркинсона. Леводопа, которая используется в качестве основного средства лечения, является органическим соединением, которое преобразуется в допамин в мозге и помогает улучшить движение у пациентов с этим заболеванием.


Экологическая безопасность и побочные эффекты. Применение органических соединений в медицине не обходится без определенных рисков. Одним из важных аспектов является токсичность препаратов. Многие органические молекулы могут оказывать побочные эффекты на организм, что требует тщательной дозировки и мониторинга при их применении.


Кроме того, важным вопросом является устойчивость патогенов к антибиотикам, что требует постоянных исследований и разработки новых, более эффективных и безопасных препаратов.

**Заключение.** Органические соединения играют незаменимую роль в современной медицине и фармакологии, являясь основой для разработки множества эффективных препаратов, направленных на лечение различных заболеваний. От антибиотиков и антисептиков до таргетных терапий для лечения рака и заболеваний сердечно-сосудистой системы, органические молекулы продолжают оказывать значительное влияние на терапевтическую практику. Синтетическая и природная органическая химия позволяет разрабатывать препараты, обладающие высокой специфичностью действия, что способствует минимизации побочных эффектов и повышению эффективности лечения.

Однако несмотря на значительные успехи в этой области, существует ряд актуальных проблем, таких как токсичность препаратов, побочные эффекты, а также угроза устойчивости патогенов к антибиотикам. Эти вызовы подчеркивают важность дальнейших исследований и разработок, направленных на создание более безопасных и эффективных лекарств, а также на поиск новых методов борьбы с проблемой антибиотикорезистентности.

Несмотря на то, что эстетический вопрос не получил однозначного ответа за последние несколько сотен лет, пространство с водоемом и обилие окружающей природы, представляет собой область, которая положительно действует на людей, которые там проживают. В соответствии с работами Американского философа Денис Даттона, универсальные эстетические критерии [1], независимо от географической широты, люди предпочитают зеленую среду с рекой.

Основные потребности, необходимые человеку для выживания, и связанные с этим эстетические потребности, привели к строительству поселений в окрестностях рек. Река обычно становится важным элементом, составляющий городской план. При правильном использовании река — это элемент городской композиции, которая формируется в зависимости от горожан, а точнее от их потребностей. Как



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

и любой природный строительный материал, реку также можно использовать для создания архитектурного пространства.

Из анализа территории было выявлено отсутствие внимания к реке. С точки зрения планировки города – город и река существуют раздельно.

Необходимо создать общественные пространства, не только путем увеличения зеленых территорий, но и другие места притяжения граждан в городском пространстве - магазины, рестораны, зоны и площадки отдыха. Отсутствие сейчас связи между существующими зелеными пространствами, тоже является недостатком. Нет подходов к реке, что делает ее бесполезной для жителей города

### **Самарканд. Побережье Даргома**

Озеленение – при назначении форм и размещения элементов системы озеленения следует учитывать, что, вопреки широко распространенному мнению, зеленые насаждения могут сыграть отрицательную роль в распространении благоприятного тепло-ветрового воздействия реки на застройку прибрежных территорий. Плотные многорядные посадки деревьев вдоль береговой линии на нижней и промежуточных террасах берегового склона, а также в непосредственной близости от его бровки препятствуют продвижению воздушных масс с реки на прибрежную территорию. Посадки на бровке верхней террасы увеличивают аэродинамическое сопротивление склона и способствуют отклонению бризовых потоков вверх, где они смешиваются с воздухом суши и теряют положительные свойства.

Формирования комфортного тепло-ветрового режима. Воздействие плотных зеленых посадок и подошвы склона суммируются с аэродинамическим сопротивлением самого склона, что способствует уменьшению скорости потока на 20% - 30% первоначального значения. Тем самым увеличивается время трансформации воздушных масс с реки над сушей и, как следствие, сокращается зона влияния реки на застроенную территорию. Собственная генерация зелеными насаждениями пониженной температуры и повышенной влажности воздуха в летний период энергетически значительно менее активна, чем аналогичное воздействие реки. Тепло-ветровое воздействие ограниченного по размерам массива деревьев распределяется в основном лишь на его площадь.



Поэтому при решении проблемы улучшения тепло-ветрового режима застройки с использованием благоприятного воздействия реки предпочтение следует отдавать проектным решениям озеленения территории, которые способствуют свободному поступлению воздушных масс с реки в застройку. С этой точки зрения целесообразно применение следующих основных приемов и решений. На площадях, которые расположены ближе к береговому склону свободных от водонепроницаемых покрытий, следует применять посев трав (газон) и посадку кустарников небольшими массивами в соответствии с общим архитектурно-композиционным решением набережной (одно-, двух рядный кустарник вдоль проезжей части, тротуаров и т.д.). При необходимости размещения деревьев для декоративного оформления их следует располагать отдельными группами, не создающими плотной непрерывной преграды для воздушных потоков. На верхней террасе полоса шириной.

Деревья должны группироваться на удаленной от бровки берегового откоса территории (450 - 600 м) непосредственно перед фронтом застройки. При этом массивы деревьев целесообразно располагать напротив фасадов зданий, оставляя в створе улиц и крупных разрывов между ними, выходящих из застройки на верхнюю террасу, коридоры для пропуска воздушных потоков с реки в застройку.

Склоны следует планировать с наклоном  $6^\circ - 16^\circ$  (уклон 1: 3), что совпадает с требованиями устойчивости. При этом следует избегать больших перепадов, высоких подпорных стенок, древесной растительности на бермах и террасах.

Целесообразно устройство промежуточных горизонтальных террас, которые способствуют стабилизации потоков. Ширина террас определяется значениям общего проектного уклона и формами естественного рельефа планируемого склона.

Микроклиматическая эффективность различных мероприятий по озеленению территории улиц и застройки, а также устранению перегрева подстилающей поверхности приведены в таблице 1.

При размещении зданий и элементов системы озеленения на такой территории следует предусматривать возможность поступления масс воздуха с реки по улицам-створам и экранирование зданиями и массивами зелени ветров, несущих нагретый





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

сухой воздух из районов, удаленных от реки, формирующих дискомфортный тепло-ветровой режим в застройке. Этому способствует раскрытие застройки в сторону поступающих потоков воздуха с реки и плотная фронтальная постановка зданий по направлению неблагоприятных ветров.

При использовании периметральной и квартальной застройки целесообразно озеленение дворовых пространств для создания сомкнутого полога крон деревьев, предохраняющих здания и дворовое пространство от перегрева.

Таблица 1. Эффективность мероприятий, способствующих увеличению влияния реки и регулирующих микроклиматические условия прибрежных территорий

	Рекомендуемо мероприятие	Эффект воздействия	Значение эффекта
1	Устройство газонов и зеленого покрова	Снижение температуры воздуха Повышение влажности воздуха	4°C -5°C 18%
2	Озеленение нагреваемых склонов и поверхностей кустарником и группами деревьев	Снижение температуры воздуха в пределах затененной площадки в солнечные штилевые дни	8°C -10°C
3	Устройство парков	Снижение температуры и повышение влажности воздуха в прибрежной зоне	8°C -12°C 28%
4	Развитие системы парков и бульваров	Снижение температуры воздуха в парке утром и вечером	5°C -7°C до 10°C
5	Насаждения вдоль асфальтовых пешеходных дорожек и тротуаров	Снижение температуры стен зданий	2-3°C
6	Дождевание зеленых насаждений	Снижение температуры и повышение влажности воздуха	5°C -6°C 20%

**Рекомендации по контролю за уровнем реки, изменение русла реки**



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

Влияние реки на городское пространство представляет собой противоречие. По многим очевидным причинам река может быть основной причиной создания города, и в то же время действовать как мощная граница внутри его структур. Строительные переходы, участки суши под застройку, регулирование его хода, а также защита от затопления - огромные инженерные усилия. Несоответствие человека и природы всегда сопровождает архитектурное пространство. Строя дом, человек старается изолировать себя от природы, при этом человек не может обходиться полностью без контакта с природой.

Аналогичный сценарий касается и города, который развивается на реке, хотя масштаб намного больше. Город, который имеет функционирующую реку имеет дело со всеми последствиями его присутствия. Двойственный характер функционирования рек в городах проявляется и в их городской состав. Исключая позитивные аспекты природы, такие как доступ к воде, естественные укрепления и удобное сообщение и транспорт, стоит отметить, что присутствие воды в ландшафте доставляет людям массу положительных эмоций.

Плотины - одни из самых известных аспектов современной инфраструктуры водной системы. На протяжении всей истории плотины играли важную роль в росте и расширении цивилизации. Многие древние градостроители полагались на плотины, чтобы направлять воду через свои города, даже если они были далеко, в то время как военные лидеры использовали плотины, чтобы изменить местность, на которой они планировали сражаться.

Однако их существование спорно. Паводковые воды могут обеспечить почву ценными питательными веществами и легко восполнить запасы воды, но также могут разрушить дома и имущество, если не контролировать их должным образом. В результате строятся плотины для хранения воды и контроля количества воды, движущейся вниз по ручью или реке.

Плюсы плотин:

– Гидроэнергетика - одно из наиболее выгодных аспектов плотин является возможность создания гидроэлектроэнергии. Гидроэлектроэнергия создается, когда вода проходит через плотину через турбину.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

Гидроэлектроэнергия - одна из наиболее изученных форм альтернативной энергии, поскольку она относительно надежна и стабильна, а большинство гидроэлектростанций имеют низкие эксплуатационные и эксплуатационные расходы.

– Контроль водных путей – это защита от наводнений, так как это проблема может иметь катастрофические последствия для многих сообществ, особенно если близлежащие водные ресурсы трудно контролировать. Плотины могут перенаправлять водные пути в другие районы, чтобы обезопасить общины или открыть больше земли для строительства. Плотины для защиты от наводнений специально смягчают паводковые воды, собирая воду, а затем безопасно отводя воду.

– Отличный источник орошения - наличие плотины создает водохранилище, которое можно использовать в качестве отличного источника воды, особенно для сельскохозяйственных и промышленных предприятий.

Минусы плотин:

– Риск накопления осадка - когда вода устремляется через плотину и ее внутренние турбины, она может создать отличное место для захвата и скопления слоев отложений, которые затем могут загрязнить воду и нарушить экологию водной среды.

– Вред для окружающей среды - стремительные паводковые воды пополняют запасы питательных веществ в почве в воде, что полезно для всех растений и животных в реках и других водотоках. Отвод воды из-за плотины может серьезно нарушить хрупкую природную экосистему.

– Эрозия окружающей почвы - после строительства многих плотин была замечена эрозия прилегающих земель.

Так как исследование проводилось при определенном уровне реки, и соответственно влияние реки определялось при этом же уровне, то в случае изменения уровня реки, влияние реки тоже будет изменяться.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

Сейчас уровень Даргома не всегда стабилен, возникают случаи сильного уменьшения уровня и наоборот. В связи с этим вопрос управления за уровнем реки в быстрорастущем городе Самарканд становится актуальным. Для того чтобы предотвратить чрезвычайные ситуации необходимо разработать вопрос отсутствия сооружений инженерной защиты от негативного воздействия вод, так как город и река находятся в определенной близости друг от друга.

### **Заключение**

Даргом в Самарканде предоставляет собой важный источник естественной вентиляции территории и одновременно мощный термостат для города. Прибрежная часть Даргома — это наиболее комфортные градостроительные территории, требующие комплексного градостроительного освоения.

Поэтому, для формирования развитой социальной и инженерно-транспортной инфраструктуры прибрежной зоны Даргома властям города Самарканда необходимо формирование концепции развития прибрежных территорий Даргома.

### **Литература**

1. Леонов, О.В. Застройка приречных территорий городов / Градостроительная оценка и принципы планировочной организации. / О.В. Леонов. – Киев: Будивельник, 1977. – 72 с.
2. Методика оценки среды при проектировании жилых районов и микрорайонов. - М., 1990
3. . Микулина, Е.М. Взаимодействие города и окружающей среды / Е.М. Микулина. - М.:МАРХИ, 1985. – 33 с.
4. . Борушко, И.С. Влияние водоемов на температуру и влажность воздуха побережья. - В кн. Трудов ГГО им. А.И. Войкова, вып. 182. - Гидрометеиздат, Л., 1965. - 81-98 с.
5. Шукуров И.С. Организация инженерно-технического обустройства городских территорий. М., АСВ, 2015
6. Иваненко Т.А. Комплекс экологически безопасных технических решений застройки прибрежных рекреационных зон / Т. А. Иваненко, Н. М. Ветрова // Проблемы экологии. — 2013. — № 1 (31). — С. 91—99.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

## YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHI – TENDENSIYALAR VA TRANSFORMATSIYALAR

**Faxriddin Yormatov Joylovovich,**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrasini mudiri, t.f.n, dotsent.

[faxriddin\\_yormatov@tues.uz](mailto:faxriddin_yormatov@tues.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida ilm-fan sohasini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor hamda erishilgan ijobiy o‘zgarishlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, ilm-fan, innovatsion rivojlanish, amaliy loyihalar, Prezident farmonlari, konsepsiya.

## РАЗВИТИЕ НАУКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ – ТЕНДЕНЦИИ И ТРАНСФОРМАЦИИ

**Фахриддин Ёрматов Джайловович**  
Кандидат исторических наук, доцент,  
заведующий кафедрой “История”  
Термезского университета экономики и сервиса

[faxriddin\\_yormatov@tues.uz](mailto:faxriddin_yormatov@tues.uz)

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о внимании, уделяемом развитию сферы науки в период Нового Узбекистана, а также о достигнутых положительных изменениях.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, наука, инновационное развитие, прикладные проекты, указы Президента, концепция.

## DEVELOPMENT OF SCIENCE IN NEW UZBEKISTAN: TRENDS AND TRANSFORMATIONS



**Faxriddin Yormatov Djoylovovich**

PhD in History, Associate Professor

Head of the Department of History

Termez University of Economics and Service

**Abstract.** This article provides information regarding the increased focus on the development of the scientific sphere during the New Uzbekistan period, as well as the positive advancements achieved in this direction.

**Keywords:** New Uzbekistan, science, innovative development, applied projects, presidential decrees, concept.

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan hamda texnika rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi, shu ma'noda dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fanga alohida e'tibor qaratiladi. Ilm-fan-har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o'rinli, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqliq, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik-aql-zakovat va ilm, eng katta meros—bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik—bu bilimsizlikdir"[1].

Shu bois halqimizning bilimi, saviyasini oshirish orqali O'zbekistonda ilm-fanni taraqqiy ettirish farovonlik va barqarorlik yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Yangi tahrirda qabul qilingan hamda 2023 yil 1 maydan amal qila boshlagan Konstitutsiyamizning 53-moddasida "har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" deya qa'tiy belgilab qo'yilganligi ham mazkur ishlarni yanada rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning yaqqol ifodasidir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun yangi O'zbekiston va uchinchi renessans so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, halqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda[2].

Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Tarixdan o'zbek jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an'ana sifatida saqlanib kelgan. Buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy





aytganlaridek, “dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Shunisi e‘tiborliki, ilm-fan ijtimoiy asoslarda yoki davlat tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilmasin, u davlat ahamiyatiga ega bo‘ladi. O‘tmishda ham olimlar, ijod ahli faoliyati davlat rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Bizning zamonimizga kelib, u aksariyat davlatlarda xalq xo‘jaligining ajralmas sohasiga aylangan va u davlat tomonidan mablag‘ bilan ta‘minlanadi hamda uning ijrosi nazorat qilinadi. Dunyo mamlakatlarida fan va texnikaning rivojlanish tarixi va sanoatdagi ulkan o‘zgarishlarning o‘ziga xos jihatlarini hamda uning insoniyat hayotida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan yanada ko‘proq o‘rganish juda muhimdir.

Ayniqsa yangi va eng yangi davrda jahon ilm-fani va texnikasi tarixida juda ko‘pgina qimmatli olamshumul ixtirolar va yangilanishlarning sodir bo‘lishi, sanoat inqilobining yuzaga kelishi va taraqqiyoti dunyo xalqlari hayotida muhim bir tarixiy davr sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki bu davrda jahon mamlakatlari ayniqsa, g‘arb davlatlarida o‘ziga xos olamshumul kashfiyotlar yuz berib, kishilar mehnati ham ancha osonlasha bordi. Mamlakatimizda ham mustaqillikning ilk davridan ilm-fan rivojiga juda jiddiy e‘tibor berilib, nihoyatda keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ilm-fan rivojiga mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida alohida ahamiyat qaratildi. Bunday ijobiy o‘zgarishlar ayniqsa, Sh.M. Mirziyoyev Prezidentlik qila boshlagan dastlabki vaqtlardan oq izchil davom ettirilib yanada yangi bosqichga ko‘tarildi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. 2017 yil 20 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori[3] ham mazkur maqsadlarni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jamiyatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek “Tarixan O‘zbekiston Respublikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asr boshlarida o‘zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtda jahondagi ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgari ketgan”[4]. Prezident farmoniga asosan, mamlakatimizda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘armaning jami daromadlari bugungi kun holatiga 8,7 mln AQSh dollari miqdorida shakllantirildi. Jamg‘arma tomonidan hozirgi kunga qadar 33 nafar yosh olimning xorij mamlakatlariga



ilmiy stajirovkalari tashkillashtirildi. Jalb qilingan xorijiy yuqori malakali olim va mutaxassislarning xarajatlarini moliyalashtirishga 17,0 ming AQSh dollari hamda 70 mln so‘m miqdorida mablag‘ yo‘naltirildi.

Bundan tashqari, 2018 yil 20 avgustda yosh olimlar uchun qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida tanlov e‘lon qilindi, 8 nafar yosh olim tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. 2019 yili Hindiston, Turkiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlari bilan hamkorlikda 40 mlrd so‘mga yaqin grantlar e‘lon qilinishi rejalashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-sonli qaror[5] bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashirish Prezident jamg‘armasi tuzildi. Ilmiy va ilmiy-texnik ishlanmalarni o‘rganish va tijoratlashirishning normativ-huquqiy bazasini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3855-son qarori[6]ga muvofiq tasdiqlangan 43 ta ishlanmaning tijoratlashirilishi bilan bog‘liq barcha masalalarga Fanlar Akademiyasining 15 ta ilmiy tekshirish institutlari va 6 ta tijorat banklari jalb etildi. Tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq 18 ta loyiha bo‘yicha innovatsion kompaniyalar ochildi, 9 ta loyiha bo‘yicha litsenziya shartnomasi imzolandi.


Hozirgi kunda changtutgich loyihasi Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati mablag‘lari hisobidan tijoratlashirilib, dastlabki ikki bosqichi yakuniga yetdi. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2019-2021 yillarga mo‘ljallangan amaliy ilmiy-texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar iqtisodiyot tarmoq va sohalarini innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalaridan kelib chiqib, xorijiy tajribalarni e‘tiborga olgan holda bosqichma-bosqich shakllantirilib, grantlar doimiy ravishda e‘lon qilinmoqda. Jumladan, 2018 yilda jami 1748 ta loyiha 193,4 mlrd so‘m miqdorida moliyalashtirilib, shundan amaliy loyihalar tegishliligi bo‘yicha 912 ta va 114,5 mlrd, fundamental loyihalar 369 ta va 38,2 mlrd, innovatsion loyihalar 285 ta va 32,9 mlrd, yosh olimlarning amaliy loyihalari - 165 ta va 6,3 mlrd, xalqaro ilmiy-texnik loyihalar esa - 17 ta va 1,3 mlrd so‘mni tashkil etadi. Ushbu loyihalarning natijaviyligi yuzasidan doimiy monitoring olib borilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni har tomonlama yuksak darajada rivojlantirishning ustuvor jihatlari haqida 2020 yil 25 yanvarda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida alohida



to‘xtalib, “Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz”[7] degan fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb bildik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yurtimizda muayyan ishlar amalga oshirildi va mazkur sohani rivojlantirishga ko‘plab mablag‘lar ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida keltirilgan quyidagi ma‘lumotlarga e‘tiborlaringizni qaratmoqchiman. “Bu yil ilm-fan va innovatsiyalarga 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bu - 2017 yilga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p, degani. Olimlarning ish haqi ham 4,5 barobar oshirildi. Bularning barchasi hisobidan nano va biotexnologiyalar, raqamli geologiya kabi 18 ta yangi ilmiy yo‘nalish tashkil etildi. Kelgusi yili ilm-fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so‘m ajratiladi. Endi olimlarimiz suv va energiyani tejash, tuproq unumdorligi va hosildorlik, geologiya, sanoat, qurilish kabi bugungi kunda biz uchun dolzarb yo‘nalishlarda aniq natijalar ko‘rsatishlari kerak”[8]. Ilmiy tashkilotlarni davlat budjetidan moliyalashtirishda qonunchilikda bir qator Prezident farmonlari va qonunlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida[9]” gi PF-6097-son farmon 2020 yil 29 oktabrda tasdiqlangan edi. 2025 yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030 yilgacha esa 10 baravarga oshirish, 2025 yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030 yilgacha esa 30 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan[10].

Ma‘lumki, bugungi kunda dunyo ilm-fani sun‘iy intellekt, nanotexnologiya, biotexnologiya, koinotni o‘rganish, tibbiyot, “yashil” energetika va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha jadal rivojlanmoqda. Davlatlar, xalqlarning ushbu sohalardagi yaqin hamkorligi doimo jamiyat taraqqiyotini ildamlashtiradigan muhim omillaridan biri ekanini hayotning o‘zi isbotlamoqda. Shu ma‘noda hozirgi tezkor zamonda O‘zbekiston ham iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, ilm-fan va innovatsiya yo‘nalishida





dunyoning ilg'or mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlab borishi juda muhim. – bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, O'zbekistonda qabul qilingan Innovatsion taraqqiyot strategiyasi 2030 yilgacha respublikamiz dunyodagi eng kuchli 50 mamlakat safidan joy olishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiya sohasi taraqqiyotini jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi ikki muhim qonuni[11] qabul qilingan. Ayni dam ushbu hujjatlar yurtimizda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

## АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси” Т.: “O‘zbekiston” 2021.-Б.24.
2. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Toshkent: “O‘qituvchi”MU MCHJ.2021-Б.11.
3. Халқ сўзи.2017. 20 апрель.
4. Yormatov F. J. “Fan va texnika taraqqiyoti hamda sanoatdagi o‘zgarishlar” (XVII-XXI asr boshlari).Т.-В.4.
5. O‘sha kitob-В.5.
6. <https://lex.uz/docs/3853858>.
7. Жаҳонгиров Б.Б. “Ўзбекистонда илм-фан ривожланиши ҳолати, тараққиёт йўналишлари 1985-2010 йиллар)”Т.: “Qaqnus-media” 2020.-Б.3.
8. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
9. <https://lex.uz/docs/5073447>.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сон фармони, 4-боб.
11. Yormatov F. J. “Fan va texnika taraqqiyoti hamda sanoatdagi o‘zgarishlar” (XVII-XXI asr boshlari).Т.-В.163.



## KORRUPSIYANING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ILDIZLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

**Asadova Ruxsara Ergash qizi**

Surxondaryo viloyat Pedagogik mahorat markazi pedagogika,  
psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrası  
pedagogika va psixologiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik ildizlari, uning jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri hamda uni bartaraf etishning samarali yo‘llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida korrupsiyaning shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar — shaxsiy manfaatning ustuvorligi, ijtimoiy muhitning korrupsiyani oqlovchi normalari, mas’uliyatning pastligi va ijtimoiy adolatsizlikning idrok qilinishi kabi jihatlar o‘rganiladi. Shuningdek, korrupsiyani kamaytirishda ma’naviy tarbiya, fuqarolarning huquqiy ongi, shaffof boshqaruv tizimi, raqamlashtirish va jamoatchilik nazoratining o‘rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashda kompleks yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy muhit, shaxsiy manfaat, adolatsizlik, huquqiy ong, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, profilaktika.

### KIRISH

Korrupsiya zamonaviy jamiyatlar rivojiga xavf solayotgan eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolardan biridir. Uning mavjudligi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuviga, balki jamiyatda adolatsizlik, ishonchsizlik va befarqlik kabi salbiy psixologik holatlarning kuchayishiga olib keladi. Korrupsiya jarayoni ko‘plab omillar yig‘indisidan iborat bo‘lib, uning ildizlari nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy muammolarda, balki chuqur ijtimoiy-psixologik omillarda ham mujassamdir. Shu sababli, korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uning psixologik va ijtimoiy asoslarini o‘rganish hamda bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish orqali kamaytirish mumkin. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bag‘rikenglikning

mavjudligi, ayrim ijtimoiy guruhlar orasida korrupsion xatti-harakatlarga ijobiy munosabatning shakllanishi va shaxsiy manfaatni jamoaviy manfaatdan ustun qo'yish kabi holatlar korrupsiyaning davomiyligiga sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, psixologik bosim, ma'naviy zaiflik, motivatsion buzilishlar, ijtimoiy taqlid va normalarning buzilishi kabi psixologik mexanizmlar korrupsiyaning ildizlarini yanada mustahkamlaydi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilish, ularning mohiyatini aniqlash va korrupsiya holatlarining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yoritish hamda ushbu illatni bartaraf etishning samarali yo'llarini ilmiy asosda taklif etishdan iborat. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, huquqiy ongni oshirish, boshqaruv tizimini shaffoflashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda psixologik profilaktika usullarining o'rni alohida ko'rib chiqiladi.

### **Materiallar va usullar**

Ushbu tadqiqot korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik ildizlarini aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, quyidagi uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: Jamiyat a'zolari va davlat xizmatchilari orasida korrupsiya bilan bog'liq psixologik holatlar, shaxsiy manfaatni ustuvor qo'yish, adolatsizlikni idrok etish va guruh bosimi kabi omillar aniqlash uchun maxsus psixologik testlar va baholash indikatorlari qo'llanildi. Davlat idoralari, tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolar faoliyatidagi korrupsion holatlar kuzatildi. Ushbu kuzatuvlar asosida ijtimoiy-psixologik xatti-harakatlar strukturasi aniqlashga imkon yaratildi. Ekspertlar, davlat xizmatchilari va tadbirkorlar bilan intervyular o'tkazilib, korrupsiyaga olib keluvchi psixologik va ijtimoiy sharoitlar, shuningdek, bartaraf etish yo'llari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri fikrlar yig'ildi. Korrupsiyaga qarshi ishlab chiqilgan qonunlar, davlat dasturlari va ichki monitoring hisobotlari o'rganilib, ularning samaradorligi va ijtimoiy-psixologik asoslari tahlil qilindi. SWOT tahlil va psixologik profilaktika modellari yordamida korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqildi, jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash va xulq-atvorni optimallashtirish choralari aniqlab berildi.

### **Natijalar**

Tadqiqot natijalari korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik ildizlari va ularni bartaraf etish yo'llarini tizimli tahlil qilish imkonini berdi: Korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik






omillari aniqlangan. So‘rov va intervyular natijasida shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish, guruh bosimi, ijtimoiy adolatsizlikni idrok etish va normalarni noto‘g‘ri talqin qilish kabi omillar korrupsiyaning asosiy ildizlari sifatida belgilandi. Shu bilan birga, korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy bag‘rikenglik va befarqlik yuqori ekanligi kuzatildi. Fuqarolar va xizmatchilar xatti-harakatlaridagi tendensiyalar Yarim tuzilmaviy intervyular shuni ko‘rsatdiki, davlat xizmatchilari orasida shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish holatlari, tadbirkorlar esa ruxsatnoma va moliyaviy jarayonlarda korrupsion mexanizmlardan foydalanish holatlarini ma‘lum darajada normal holat deb qabul qilmoqda. Bu ijtimoiy-psixologik muhitning korrupsiyani mustahkamlashiga sabab bo‘ladi. Korrupsiyani bartaraf etish mexanizmlarining samaradorligi. Hujjatlar va normativ-huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaffof boshqaruv, jamoatchilik nazorati, raqamlashtirish va profilaktik psixologik tadbirlar korrupsiyani kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarning yetarlicha keng tatbiq etilmaganligi korrupsiyaning davomiyligiga hissa qo‘shmoqda. SWOT tahlil natijasida korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, jamiyatdagi xulq-atvorni ijobiy yo‘naltirish orqali korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi ko‘rsatildi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy ta‘lim va ma‘naviy tarbiya jarayonining muhimligi aniqlangan.

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik ildizlari uning faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan bog‘liq emasligini, balki shaxsiy xulq-atvor, ijtimoiy normalar va guruh bosimi kabi psixologik omillarga ham bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish, adolatsizlikni idrok etish va korrupsiyani normallashtiruvchi ijtimoiy muhit uni davom ettirishga zamin yaratadi. Birinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, korrupsiyani kamaytirishning samarali yo‘li — jamiyat a‘zolarining huquqiy va ma‘naviy ongini oshirishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy ta‘lim, axloqiy tarbiya va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirish korrupsiyaga qarshi barqaror psixologik profilaktik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, shaffof boshqaruv va jamoatchilik nazorati mexanizmlari korrupsiyaning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, aholining faol nazorati va ma‘lumotga erkin kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan korxonalar va idoralarda korrupsion holatlar sezilarli







darajada kamaygan. Uchinchidan, raqamlashtirish va elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish korxon va idoralardagi xulq-atvorni optimallashtirishga yordam beradi. Bu jarayon korrupsion imkoniyatlarni kamaytirib, xodimlarning harakatlariga aniq javobgarlik yuklaydi. Shuningdek, SWOT tahlil va intervyu natijalari shuni ko'rsatdiki, korrupsiyaga qarshi kompleks yondashuv — psixologik, ijtimoiy, huquqiy va texnologik choralarni birlashtirish — eng samarali strategiya hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy intolerantlikni kuchaytiradi va shaxslarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'naltirish imkonini yaratadi. Umuman olganda, tadqiqot korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uning ijtimoiy-psixologik ildizlarini bartaraf etish orqali samarali kamaytirish mumkinligini ko'rsatdi. Bu yondashuv jamiyatning barqaror rivojlanishi, ishonch va adolat muhitini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korrupsiyaning ildizlari faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillarda emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik faktorlar — shaxsiy manfaatni ustun qo'yish, ijtimoiy adolatsizlikni idrok etish, guruh bosimi va normativ normalarni noto'g'ri talqin qilishda mujassamdir. Ushbu psixologik omillar jamiyatdagi korrupsion xatti-harakatlarni davom ettiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Korrupsiyani bartaraf etishda eng samarali strategiya — psixologik, ijtimoiy va huquqiy choralarni kompleks tarzda qo'llashdir. Xususan: Huquqiy va ma'naviy ongni oshirish — fuqarolar va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga nisbatan intolerantligini kuchaytirish. Shaffof boshqaruv va jamoatchilik nazorati — idoralarda xulq-atvorni monitoring qilish va javobgarlikni oshirish. Raqamlashtirish va elektron boshqaruv tizimlari — korrupsion imkoniyatlarni kamaytirish va ish jarayonlarini shaffoflashtirish. Psixologik profilaktika va ijtimoiy ta'lim — korrupsiyaga qarshi barqaror ijtimoiy-psixologik muhit yaratish. Shu tariqa, korrupsiyani kamaytirish uchun jamiyatda psixologik ongni rivojlantirish, ijtimoiy normativlarni kuchaytirish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi lozim. Bu yondashuv nafaqat korrupsiyaga qarshi samarali kurashni ta'minlaydi, balki jamiyatda adolat, ishonch va barqaror rivojlanish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. — Berlin, 2023.
2. Rose-Ackerman, S. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
3. Klitgaard, R. Controlling Corruption. — Berkeley: University of California Press, 1988.
4. World Bank. Diagnostic Tools for Assessing Corruption in Public Institutions. — Washington D.C., 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha davlat dasturi”. — Toshkent, 2022.
6. Heidenheimer, A. J., Johnston, M. Political Corruption: Concepts and Contexts. — Routledge, 2019.
7. Bashirov, T. Ijtimoiy-psixologik omillar va korrupsiya. // “Ijtimoiy fanlar va psixologiya” jurnali. — 2021.
8. Ulmasov, B. Korrupsiya va ijtimoiy ong: ilmiy tadqiqotlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. OECD. Preventing Corruption in Public Sector Institutions. — Paris: OECD Publishing, 2021.
10. Yusupov, F. Ijtimoiy normalar va korrupsiya: psixologik tahlil. // “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali. — 2022.





## SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

**Turayev Baxrom Ergashevich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot ta’lim yo’nalishi, 2-kurs magistranti

[tbahrom@mail.ru](mailto:tbahrom@mail.ru)


### **Annotatsiya**

Hududiy sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy tuzilmasi asosan xomashyo va qishloq xo‘jaligiga tayanib kelgan hududlarda sanoatni diversifikatsiya qilish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish, bandlikni kengaytirish hamda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti misolida hudud sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va diversifikatsiyasini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy sanoat rivojlanishining hozirgi holati, tarkibiy nomutanosibliklar, investitsion faollik va institutsional omillar kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar hudud sanoatini modernizatsiya qilish, yangi sanoat yo‘nalishlarini shakllantirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Hududiy sanoat, iqtisodiy samaradorlik, sanoat diversifikatsiyasi, mintaqaviy rivojlanish, investitsiyalar, sanoat siyosati, Surxondaryo viloyati.

### **Abstract**

The issue of sustainable development of regional industrial sectors and increasing their economic efficiency is one of the priority areas in the theory and practice of modern regional economics. Especially in regions whose economic structure is mainly based on raw materials and agriculture, creating added value through diversification of industry, expanding employment, and increasing regional competitiveness are of urgent importance. This article analyzes the scientific and theoretical foundations and practical ways to increase the economic efficiency and diversification of regional industrial sectors





using the example of the economy of Surkhandarya region. The study examines the current state of regional industrial development, structural imbalances, investment activity, and institutional factors based on an integrated approach. The results obtained serve to develop practical recommendations for the modernization of regional industry, the formation of new industrial directions, and the development of regional economic policy.

**Keywords:** Regional industry, economic efficiency, industrial diversification, regional development, investments, industrial policy, Surkhandarya region.

### KIRISH

Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog‘ining roli tarixan yetakchi bo‘lib kelgan. Sanoat ishlab chiqarishi nafaqat yalpi hududiy mahsulot hajmini oshiradi, balki xizmatlar sohasi, infratuzilma, bandlik va ilmiy-texnologik salohiyatning rivojlanishiga kuchli multiplikativ ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar jarayonida hududlararo rivojlanish tafovutlarini qisqartirish, iqtisodiy o‘shishning yangi drayverlarini shakllantirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu jarayonda sanoat tarmoqlarini hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish va ularni diversifikatsiya qilish muhim strategik vazifa sifatida belgilanmoqda.

Surxondaryo viloyati iqtisodiy strukturasi qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, sanoat salohiyati ham mavjud bo‘lib, u hali to‘liq ishga solinmagan. Aholi sonining tez o‘shishi, tabiiy resurslar bazasi, qulay geografik joylashuv va qo‘shni mamlakatlar bilan chegaradoshligi sanoat rivoji uchun muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishida yuqori texnologiyali, chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan tarmoqlarning yetishmasligi hudud iqtisodiy samaradorligini cheklab kelmoqda.

Kirish qismida ta‘kidlash lozimki, sanoatni faqat hajm jihatdan kengaytirish yetarli emas. Asosiy e‘tibor ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish, mahsulot nomenklaturasini kengaytirish va qiymat zanjirlarini chuqurlashtirishga qaratilishi zarur. Aynan sanoat diversifikatsiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolada Surxondaryo viloyati misolida sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va diversifikatsiyasini ta‘minlash masalasi ilmiy asosda yoritiladi.





## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hududiy sanoat rivojlanishi va uning diversifikatsiyasi masalalari iqtisodiyot fanida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda bu muammo mintaqaviy iqtisodiy o'sish nazariyasi, klasterlashuv, innovatsion rivojlanish va sanoat siyosati doirasida tahlil qilinadi. M. Porter, P. Krugman, J. Stiglitz kabi olimlarning tadqiqotlarida hududiy raqobatbardoshlik va sanoat tuzilmasining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ularning fikricha, sanoat diversifikatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda hududiy rivojlanish, sanoat salohiyatidan foydalanish va investitsion faollik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud. O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan hududlarni kompleks rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonolari faoliyatining samaradorligi tahlil qilingan. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlar, xususan Surxondaryo viloyati sanoatining diversifikatsiyasi imkoniyatlari yetarli darajada chuqur va tizimli o'rganilmagan.


Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda sanoat samaradorligi ko'pincha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib, ishlab chiqarish strukturasi ichki sifati, texnologik daraja va qo'shimcha qiymat masalalari ikkinchi darajada qolmoqda. Mazkur maqola ushbu kamchiliklarni hisobga olgan holda sanoatni diversifikatsiya qilish orqali hududiy samaradorlikni oshirish masalasiga kompleks yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish hamda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini strukturaviy baholash metodlaridan foydalanildi. Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha ochiq rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Metodik yondashuvda sanoat samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, qo'shimcha qiymat ulushi, eksport salohiyati va bandlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Diversifikatsiya darajasi esa sanoat tarmoqlarining tarkibiy xilma-xilligi va texnologik murakkabligi asosida baholandi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati sanoatining hozirgi rivojlanish bosqichi asosan past va o'rta texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlariga tayanayotganini ko'rsatdi.





Sanoat ishlab chiqarishida xomashyoni birlamchi qayta ishlash ustun bo‘lib, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi nisbatan past.

Shu bilan birga, viloyatda oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to‘qimachilik va kimyo sanoati yo‘nalishlarida diversifikatsiya imkoniyatlari mavjud ekanligi aniqlandi. Resurs bazasidan samarali foydalanish va investitsiya jalb etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoni yuqori.

### MUHOKAMA

Hudud sanoatini diversifikatsiya qilishda eng muhim omil sifatida qo‘shimcha qiymat zanjirini chuqurlashtirish turadi. Surxondaryoda mavjud xomashyo resurslari iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lishi uchun ular faqat qazib olinishi emas, balki qayta ishlanishi, tayyor mahsulotga aylanishi, eksportga yo‘naltirilishi talab etiladi. Shu ma’noda, mineral resurslar asosida qurilish materiallari va kimyo sanoatini kengaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosida oziq-ovqat, sharbat, konserva va tayyor meva mahsulotlari ishlab chiqarish klasterlari tashkil etish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, energiya tejamkor qurilmalar, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish zarur. Shuningdek, Yevropa va Osiyo davlatlarining tajribasida bo‘lgani kabi, hududda texnoparklar, startaplar uchun sanoat inkubatorlari, ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarini tashkil etish sanoat innovatsion salohiyatini oshiradi.

Diversifikatsiyaning yana bir muhim elementi — malakali kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishdir. Surxondaryoda zamonaviy muhandislik, texnologik jarayonlarni boshqarish, dasturlash, agrotexnologiya sohalarida mahalliy kadrlarni tayyorlash iqtisodiy samaradorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

### XULOSA

Tadqiqot Surxondaryo viloyatining sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Biroq ushbu imkoniyatlarni to‘liq ishga solish uchun qayta ishlash sanoatini kengaytirish, kichik sanoat zonalarini to‘liq quvvatga chiqarish, logistika va energetik infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsion muhitni liberallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Diversifikatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati hududning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlaydi, eksport salohiyatini oshiradi va aholi farovonligiga bevosita ta’sir




ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

qiladi. Ushbu maqolada taqdim etilgan ilmiy asoslangan takliflar Surxondaryo viloyati sanoatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Porter M. *Competitive Advantage of Regions*. – New York: Free Press, 2019. – 412 b.
2. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge: MIT Press, 2018. – 311 b.
3. Karimov B. *Hududiy sanoatni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish*. – Toshkent: Fan, 2021. – 296 b.
4. Abdug‘afforov A. *Mintaqaviy iqtisodiyot va sanoat siyosati*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 328 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Surxondaryo viloyati sanoat ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2023. – 145 b.



## MIGREN KASALLIGI

**Borotov Mexroj Abdusattorovich**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

Tibbiy psixologiya, nevrologiya va psixiatriya kafedrasi assistenti

[mexrojjon0228@gmail.com](mailto:mexrojjon0228@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada migren kasalligining kelib chiqish sabablari, simptomlari, tashxis qo‘yish yo‘llari va zamonaviy davolash usullari tahlil qilinadi. Migren — asosan ayollar orasida uchraydigan, surunkali va og‘riqli bosh og‘rig‘i bilan kechuvchi nevrologik kasallik hisoblanadi. Tadqiqotlar asosida migrenning hayot sifatiga salbiy ta‘siri va individual yondashuv asosida samarali davolash mumkinligi isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** migren, bosh og‘rig‘i, aura, nevrologik kasallik, davolash, dori vositalari, turmush tarsi.

### Migraine Disorder

**Annotation:** This article examines the causes, symptoms, diagnostic methods, and modern treatment approaches for migraine. Migraine is a chronic and painful neurological disorder, predominantly affecting women and characterized by recurring headaches. Based on research, the negative impact of migraines on quality of life has been confirmed, and it has been proven that effective treatment is possible through individualized approaches.

**Keywords:** migraine, headache, aura, neurological disorder, treatment, medication, lifestyle.

Migren — bu asosan bir tomonlama, urib turgan shakldagi kuchli bosh og‘rig‘i bilan namoyon bo‘ladigan surunkali nevrologik kasallikdir. Jahon sog‘liqni saqlash



tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, migren dunyo bo'yicha har 7-insonga ta'sir qiladi va ish qobiliyatini pasaytiruvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Migren odatda 20–40 yoshlar orasida boshlanadi va ayollar orasida erkaklarga nisbatan uch baravar ko'proq kuzatiladi. Kasallikning rivojlanishiga genetik moyillik, gormonlar, stress, uyqu buzilishi, ovqatlanish tartibsizligi kabi omillar sabab bo'ladi. Migren og'rig'i ko'pincha "aura" bilan boshlanadi — ya'ni ko'rish, eshitish yoki his qilishdagi vaqtinchalik buzilishlar bilan.

So'nggi yillarda migren kasalligining tarqalish darajasi ortib bormoqda. Zamonaviy turmush tarzi, texnologik muhit, yuqori psixologik bosim, gormonal o'zgarishlar va ekologik omillar bu kasallikning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, stress va uyqu buzilishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan migren, yoshlar orasida ham keng tarqala boshlagan.

Shuningdek, migren bilan og'rikan bemorlar orasida kasallikning to'g'ri tashxislanmasligi holatlari ham mavjud. Ko'p hollarda migren oddiy bosh og'rig'i bilan adashtiriladi yoki noto'g'ri davolanishga duchor bo'ladi. Bu esa kasallikning surunkali tus olishiga olib keladi.

Migrenni erta aniqlash, to'g'ri baholash va zamonaviy davolash usullarini qo'llash nafaqat bemorning sog'lig'i, balki uning ijtimoiy va mehnat faoliyatini tiklashda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada migrenning asosiy klinik belgilarini, tetiklovchi omillarni va dori hamda nodoriviy davolash yondashuvlarini chuqur tahlil qilamiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, bemorlarning 64% holatida og'riq har hafta takrorlangan, 22% holatda esa kunora davom etgan. Aura simptomlari 43% bemorlarda kuzatilgan. Eng

Stress va asabiylik	76%	ko'p uchraydigan tetiklovchi omillar quyidagilar bo'ldi:	
Uyqu rejimining buzilishi	62%		
O'tkir hidlar yoki yorug'lik	48%		
		<b>Tetiklovchi omil</b>	<b>Bemorlar soni (%)</b>





Ovqatlanishdagi o'zgarishlar 41%

Og'riqni kamaytirishda eng samarali usul — tripton preparatlari va kofeinli analgetiklar qo'llanilishi bo'lgan. Bundan tashqari, muntazam jismoniy faollik va stressni kamaytirish usullari ham bemorlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Migren oddiy bosh og'rig'idan farqli o'laroq, murakkab nevrobiologik holat bo'lib, bosh miyada qon tomirlarning torayishi va kengayishi bilan bog'liqdir. Aura holatlari ko'pincha og'riqdan oldin paydo bo'ladi va bemorlarni ogohlantiruvchi belgi hisoblanadi.

Migren bilan kasallangan bemorlar ko'pincha ijtimoiy faoliyatdan chetlanadi, ish faoliyatida qiynchiliklarga duch keladi. Shu bois, bu kasallikni erta aniqlash va individual yondashuv asosida davolash muhim hisoblanadi.

Farmakologik davolash (triptonlar, beta-blokatorlar, antidepressantlar) bilan bir qatorda, turmush tarzini sog'lomlashtirish, stressni kamaytirish, ovqatlanishni tartibga solish, muntazam uyqu va meditatsiya mashqlari ham tavsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, migren har bir bemorda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim bemorlarda og'riq o'rtacha darajada bo'lsa, boshqalarda u kundalik faoliyatga to'sqinlik qiluvchi og'ir holatda kechadi. Shuningdek, aura simptomlarining mavjudligi yoki yo'qligi ham davolash yondashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Stress eng asosiy tetiklovchi omil bo'lib qolmoqda. Ishdagi bosim, o'quv jarayonidagi zo'riqish, oilaviy muammolar yoki doimiy ruhiy tanglik holatlari migren xurujlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, noto'g'ri ovqatlanish (masalan, shokolad, kofe, pishloq yoki yarim tayyor mahsulotlar iste'moli), kuchli hidlar, haddan ortiq yorug'lik, shovqin va iqlim o'zgarishlari ham migrenni kuchaytiruvchi omillar sifatida qayd etildi.

Davolash usullari orasida triptanlar (sumatriptan, rizatriptan) qisqa muddatli og'riqni bartaraf qilishda samarali bo'lsa-da, ularni haddan ortiq va nazoratsiz qabul qilish boshqa nevrologik muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ko'p mutaxassislar uzoq muddatli profilaktika uchun beta-blokatorlar, antidepressantlar yoki kalsiy kanal blokatorlaridan foydalanishni tavsiya etishmoqda.

Nodoriviy yondashuvlar – meditatsiya, yoga, nafas olish mashqlari, uyqu gigiyenasini saqlash, ovqatlanish tartibini me'yorga solish – bemorning holatini



barqarorlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, turmush tarziga oid o'zgarishlar (sog'lom uyqu, stressni kamaytirish, jismoniy faollik) migrenni kamaytirishda dori vositalariga nisbatan kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda sinovdan o'tkazilayotgan yangi terapiyalar, xususan CGRP (Calcitonin Gene-Related Peptide) ingibitorlari migrenning profilaktik davolashida istiqbolli yo'nalish hisoblanmoqda. Ushbu dorilar xurujlarning chastotasini kamaytirishda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda, ayniqsa boshqa dorilarga javob bermagan holatlarda.

Shunday qilib, migren kasalligini davolashda bir yoqlama yondashuv emas, balki kompleks individual reja tuzish — farmakologik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish — optimal natija beradi.

Shuningdek, so'nggi yillarda botulotoksin in'yeksiyalari va CGPR-inhibitorlari kabi yangi innovatsion terapiya turlari ham qo'llanilmoqda.

Migren — murakkab, ammo boshqarilishi mumkin bo'lgan surunkali kasallikdir. Har bir bemorga shaxsiylashtirilgan davolash rejasi tanlash, tetiklovchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhimdir. Sog'lom turmush tarzi, dori vositalarining to'g'ri qo'llanilishi va zamonaviy terapiya usullari orqali migrenni nazorat ostida ushlab turish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. (2023). Headache disorders: Fact sheet.
2. Goadsby, P. J., et al. (2017). Pathophysiology of Migraine. *The Lancet Neurology*.
3. Silberstein, S. D. (2015). Preventive treatment of migraine. *Headache Journal*.
4. Lipton, R. B., & Bigal, M. E. (2005). *Migraine and Other Headache Disorders*.
5. Mayo Clinic. (2022). *Migraine: Symptoms and Causes*.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. (2021). *Nevrologiya asoslari*.



## OZIQ-OVQAT ISHLAB CHIQRISH ZANJIRIDA XALQARO STANDARTLARNI (ISO, HACCP, CODEX ALIMENTARIUS) JORIY ETISHNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

**Safayeva Sevaraxon Davlaterovna**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, elektronika va avtomatika muhandisligi fakulteti 1-bosqich magistranti


### Annotatsiya

Ushbu maqola oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish zanjirida xalqaro standartlar — ISO 22000, HACCP tizimi va Codex Alimentarius me'yorlarini joriy etishning samaradorligini ko'p qirrali tahlil qiladi. So'nggi yillarda globalashuv, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq xavf omillarining murakkablashuvi oziq-ovqat korxonalaridan sifatni boshqarishning universal va xalqaro miqyosda tan olingan standartlariga moslashishni talab qilmoqda. Tadqiqotda ushbu standartlarning nazariy asoslari, ishlab chiqarish zanjiriga integratsiya jarayonlari, xavf identifikatsiyasi va nazorat mexanizmlari, korxonalar samaradorligiga ko'rsatadigan iqtisodiy, texnik va tashkiliy ta'sirlar o'rganilgan. Olingan natijalar xalqaro standartlarning joriy etilishi mahsulot xavfsizligini oshirish, korxonada ichki jarayonlarini optimallashtirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Maqola oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjirida standartlashtirishning ilmiy asoslangan, tizimli va holistik yondashuv sifatidagi ahamiyatini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** ISO 22000; HACCP; Codex Alimentarius; oziq-ovqat xavfsizligi; ishlab chiqarish zanjiri; risklarni boshqarish; sifat menejmenti; global standartlar; sanitariya nazorati; eksport salohiyati.

### Abstract

This article provides a multifaceted analysis of the effectiveness of implementing international standards — ISO 22000, HACCP system and Codex Alimentarius standards in the food industry production chain. In recent years, globalization, expansion of international trade relations, and the complexity of risk factors related to food safety require food enterprises to adapt to universal and internationally recognized standards of





quality management. The study examines the theoretical foundations of these standards, integration processes into the production chain, risk identification and control mechanisms, and economic, technical and organizational impacts on the efficiency of enterprises. The results obtained show that the implementation of international standards serves as an important factor in improving product safety, optimizing internal processes of the enterprise, strengthening export potential and ensuring competitiveness in the market. The article substantiates the importance of standardization in the food production chain as a scientifically based, systematic and holistic approach.

**Keywords:** ISO 22000; HACCP; Codex Alimentarius; food safety; production chain; risk management; quality management; global standards; sanitary control; export potential.

### KIRISH

Oziq-ovqat sanoati bugungi global iqtisodiyotda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki aholi salomatligi, xavfsizlik, ekologik barqarorlik va xalqaro savdo bilan chambarchas bogʻlangan strategik tarmoq sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichi — xom ashyo yetkazib berishdan tortib, qayta ishlash, qadoqlash, transport, saqlash va isteʼmolchiga yetkazishgacha — koʻplab xavf omillarini oʻzida mujassam etadi. Mikroorganizmlar bilan ifloslanish, kimyoviy kontaminatsiya, allergenlar bilan chatishtirish, texnologik buzilishlar, gigiyenik meʼyorlarning buzilishi kabi xavflar oziq-ovqat zanjirining har bir pogʻonasida yuzaga kelishi mumkin. Shu sabab sifat menejmentining xalqaro standartlarga asoslanishi global miqyosda umumiy talabga aylandi.

ISO 22000 standarti oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi sifatida barcha turdagi korxonalar uchun amaliy mexanizm vazifasini bajaradi. U risklarni aniqlash, tahlil qilish va ularni nazorat qilish uchun tizimli yondashuvni shakllantiradi. HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points) tizimi esa xavf tahlili va muhim nazorat nuqtalarini aniqlash orqali ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz monitoringini taʼminlaydi. Codex Alimentarius talablar majmuasi esa oziq-ovqat xavfsizligi va sifati boʻyicha xalqaro meʼyorlar tizimi boʻlib, Jahon savdo tashkiloti tomonidan eʼtirof etilgan global standart sifatida ahamiyat kasb etadi.

Kirish qismida ushbu uch standartning joriy etilishini talab qilayotgan asosiy omillar yoritiladi. Birinchidan, global savdo oqimi kuchaygan sari davlatlar oʻrtasida





gigiyenik, sanitariya va fitosanitariya talablarining uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etdi. Ikkinchidan, iste'molchilar ongining o'sishi, ularning xavfsiz oziq-ovqatga bo'lgan talabi korxonalarini yanada mas'uliyatli boshqaruv tizimlarini tatbiq etishga majbur qilmoqda. Uchinchidan, zamonaviy oziq-ovqat texnologiyalarining murakkablashuvi ishlab chiqarish jarayonlarini qat'iy nazorat qilishni talab etadi.

Kirish bo'limining ilmiy mazmuni xalqaro standartlarning o'zbek oziq-ovqat sanoati va keng xalqaro amaliyot kontekstida dolzarbligini asoslaydi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun ISO, HACCP va Codex talablari nafaqat sifat belgisi, balki xalqaro bozorlarga kirish uchun "kirish vizasi" sifatida qaraladi. Shuning uchun ushbu standartlarning samaradorligini ilmiy tahlil qilish zamonaviy oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanish strategiyasida asosiy ilmiy vazifa hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Xalqaro standartlarning oziq-ovqat sanoatiga ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlar xavfsizlik, sanitariya nazorati, risklarni boshqarish, sifat menejmenti va texnologik intizomning integratsiyalashgan yondashuvini o'rganishga qaratilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va FAO tomonidan chop etilgan metodik qo'llanmalar Codex Alimentariusning global oziq-ovqat savdosidagi o'rni, uning xavfsizlik me'yorlarini uyg'unlashtirishdagi roli va ishlab chiqarish jarayonlariga qo'shilgan qiymati haqida muhim nazariy asoslarni beradi.

HACCP bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uning funksional mohiyati — ya'ni xavflarni oldindan aniqlash va ularni jarayon davomida nazorat qilish mexanizmlarini yoritadi. R. Mortimore va C. Wallace HACCP tizimining kuchi muhim nazorat nuqtalarining to'g'ri identifikatsiyasi va monitoring strategiyasining uzluksiz takomillashtirilishida ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, HACCP nafaqat gigiyenik intizomni kuchaytiradi, balki korxonaning boshqaruv madaniyatini ham o'zgartiradi.

ISO 22000 standarti bo'yicha ilmiy adabiyotlar uning universalligi, ya'ni har qanday hajmdagi korxonaga mosligi, hamda ISO 9001 sifat menejmenti bilan integratsiyalashuv imkoniyatiga urg'u beradi. Shuningdek, adabiyotlarda ISO 22000 joriy etilishi korxonalar samaradorligini oshirish bilan birga, xodimlarning mas'uliyatini kuchaytirishi, ichki jarayonlarning shaffofligini oshirishi ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi.





Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalarda texnologik intizom, xavfsizlik ko'rsatkichlari, sanitariya holati, yetkazib beruvchilar bilan ishlash sifati, mahsulot izchiligi sezilarli yaxshilanadi. Adabiyotlar tahlili ushbu standartlarning samaradorligi faqat me'yoriy talablar emas, ularga asoslangan boshqaruv madaniyatining shakllanishida ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifat tahlili, tizimli tahlil va komparativ yondashuvni birlashtirgan bo'lib, xalqaro standartlarning ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Birinchi bosqichda ISO, HACCP va Codex Alimentarius bo'yicha xalqaro regulator hujjatlar, ilmiy maqolalar, FAO va WHO hisobotlari, sanitariya va gigiyena me'yorlari o'rganildi. Bu bosqich standartlarning konseptual asoslari, talablar tizimi va boshqaruv mexanizmlarini aniqlashga yordam berdi.

Ikkinchi bosqichda oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalaridan olingan sifat menejmenti tizimlari bo'yicha hujjatlar, audit natijalari, ichki monitoring hisobotlari va jarayon xaritalari tahlil qilindi. Bu ishlab chiqarish zanjirining real holatini baholash, xavf nuqtalarini aniqlash va standartlarga moslik darajasini tushunish imkonini berdi.


Uchinchi bosqich komparativ metod asosida ISO, HACCP va Codex standartlarining o'zaro farqlari, umumiy jihatlari va qo'llanish samaradorligi solishtirildi. Shuningdek, tadqiqotda ekspert intervyular va korxonada mutaxassislari fikrlari ham o'rganildi.

Metodologiyaning ilmiy asosi — jarayonlardagi xavflarni tizimli aniqlash, boshqaruv intizomini baholash va standartlar integratsiyasining samaradorligini holistik yondashuvda tahlil qilishdan iborat.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ko'rsatdi:

1. ISO 22000 joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz nazoratini kuchaytiradi, xodimlar mas'uliyatini oshiradi va jarayonlarni aniq hujjatlashtirish orqali ichki boshqaruvning shaffofligini ta'minlaydi. ISO standartiga ega korxonalarda jarayonlar izchilligi va auditga tayyorgarlik darajasi yuqori bo'ladi.
2. HACCP tizimi ishlab chiqarish zanjirida eng kritik nuqtalarni aniqlash, xavflarni oldindan ko'ra olish va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Muvofiq ravishda,





HACCP joriy etilgan korxonalarda mikrobiologik xavf ko'rsatkichlari pasayadi, texnologik buzilish darajasi kamayadi.

3. Codex Alimentarius talablari eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun muhim bo'lib, xalqaro savdo talablariga mos standartlashtirish tizimini yaratadi. Codex me'yorlariga mos korxonalar xalqaro sertifikatlash jarayonlaridan oson o'tadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu uch standartning integratsiyasi korxonaning sifat menejmenti tizimini mustahkamlovchi sinergiya yaratadi. Xususan, HACCPning xavfga yo'naltirilgan yondashuvi ISO 22000ning boshqaruv strukturasi mukammal mos tushadi, Codex esa xalqaro savdo uchun zarur normativ bazani ta'minlaydi.

### **MUHOKAMA**

Natijalarning talqini xalqaro standartlarni joriy etishning samaradorligi faqat texnologik me'yorlarga emas, balki korxonada boshqaruv madaniyatiga, xodimlar tayyorgarligiga, jarayonlarni tizimli hujjatlashtirishga va rahbariyatning sifat bo'yicha strategik qarashiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Standartlar joriy etilgan ko'plab korxonalarda dastlabki bosqichda tashkiliy qiyinchiliklar kuzatilgan bo'lsa-da, jarayonlar barqarorlashgach, samaradorlik, sifat izchilligi, audit natijalari va mahsulot xavfsizligining ancha yaxshilangani kuzatilgan.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, xalqaro standartlar korxonani faqat gigiyenik me'yorlarga moslashtiribgina qolmay, balki uni strategik boshqaruvning yangi bosqichiga olib chiqadi. Jarayonlarga riskga asoslangan yondashuv ishlab chiqarish intizomini mustahkamlaydi, korxonani global raqobatga tayyorlaydi.

### **XULOSA**

Maqola ISO, HACCP va Codex Alimentarius standartlarining oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjiriga joriy etilishi korxonalar barqarorligini oshirishi, xavfsizlik darajasini kuchaytirishi, xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtirishi va sifat menejmentini yangi bosqichga olib chiqishini ilmiy asosda tasdiqladi. Xalqaro standartlar zamonaviy oziq-ovqat ishlab chiqarishida nafaqat ixtiyoriy talablarga javob beruvchi tizim, balki tarmoq barqarorligining poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mortimore R., Wallace C. HACCP: A Practical Approach. – London: Springer, 2020. – 298 p.



2. FAO/WHO. Codex Alimentarius: Food Hygiene Basic Texts. – Rome: FAO Publishing, 2018. – 322 p.
3. ISO. ISO 22000: Food Safety Management Systems — Requirements. – Geneva: ISO, 2019. – 45 p.
4. Manning L. Food Safety Management in International Supply Chains // *Journal of Food Policy*. – 2021. – Vol. 98. – Pp. 1–14.
5. Wallace J., Sperber W. Food Safety for the 21st Century. – New York: Wiley, 2019. – 410 p.



## XXI ASRDAGI URUHLARNING KELAJAKDAGI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Sadikova Dilrabo**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Salomov Himoyiddin O'ral o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
Universiteti 2-kurs talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada XXI asrda sodir bo'layotgan urushlarning kelajakdagi iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. dunyoda yuz beradigan iqtisodiy o'zgarishlar, inflyatsiya, investitsiya oqimlari o'zgaruvi, energetika soxasi va xalqaro jaxon bozorida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga alohida e'tibor beriladi. Tahlil jarayonida urushlarning uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlarini o'rganib global iqtisodiy tinchlikni saqlab qolish va bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozning oldini olish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Asosiy tahlil urushlarning iqtisodiyot bo'linmalariga, xalqaro jaxon savdosining kelajakdagi dinamikasiga ta'sir doirasi ko'zdan kechiriladi. Tekshirish paytida shuni ko'rsatishi mumkunki, XXI asrda bo'lgan va bo'lishi mumkun bo'lgan urushlar kelajakda ba'zi iqtisodiyotning muhim bo'linmalari inqiroziga olib kelsa, ba'zi mintaqalarda yangi iqtisodiy rivojlanish sarhadlarini ochishga yordam beradi. XXI asrdagi qurolli to'qnashuvlar nafaqat ularga bevosita ularga aloqador davlatlar, balki butun dunyo xalqaro global iqtisodiyotiga katta ta'sir qilishini oldindan aytishimiz mumkin.

***Kalit so'zlar:** urush, investitsiya, global iqtisodiyot, inflyatsiya, energetika, jaxon bozori, strategiya, kelajak dinamikasi.*

### **Kirish**

XXI asrda sodir bo'layotgan qurolli mojarolar va urushlar global iqtisodiy tizimga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Geosiyosiy muammolar natijasida xalqaro savdo aloqalari izdan chiqmoqda, ta'minot zanjirlari uzilmoqda va investitsiya oqimlarida keskin o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Urushlar natijasida energiya, oziq-ovqat va xom ashyo





bozorlaridagi beqarorlik ortib borayotgan bo'lsa, xalqaro moliya tizimi ham bosim tagida qolmoqda. Bundan tashqari, qurolli nizolar natijasida davlatlarning harbiy xarajatlari ortib, ichki infratuzilma va ishlab chiqarish tarmoqlari zarar ko'rmoqda, bu esa global iqtisodiy inqiroz ehtimolini kuchaytiradi. Shu bois, bugungi davrda urushlarning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish va ularning kelajakdagi iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini o'rganish nihoyatda muhim masalaga aylangan.

Jahon iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi sababli, har qanday yirik mojaro alohida davlatlar doirasida qolib ketmay, butun dunyo iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Masalan, <sup>1</sup>Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush global oziq-ovqat va energiya bozorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Urush tufayli Ukrainadan don va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish qiyinlashdi, bu esa xalqaro bozorda narxlarning oshishiga olib keldi. Xuddi shunday, Rossiyaga nisbatan kiritilgan sanksiyalar natijasida neft va gaz yetkazib berishdagi to'xtalishlar Yevropa davlatlarida energiya yetishmovchiligiga sabab bo'ldi. Yaqin Sharq va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi geosiyosiy keskinliklar esa xalqaro savdo yo'nalishlariga va moliyaviy bozorlarning barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holatlar shuni ko'rsatadiki, qurolli mojarolar va urushlar nafaqat jang maydonlarida, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlar darajasida ham uzoq muddatli o'zgarishlarga olib keladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi XXI asrda sodir bo'layotgan urushlarning global iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish, ularning inflyatsiya, investitsiyalar, ta'minot zanjirlari va moliyaviy bozorlar bilan bog'liq jihatlarini chuqur o'rganishdan iborat. Tadqiqot davomida urushlarning qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlari ko'rib chiqilib, davlatlarning iqtisodiy strategiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishi baholanadi. Shuningdek, ushbu mojarolar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy va savdo xatarlari, shuningdek, ayrim mintaqalar uchun vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarblig sababi shundaki, zamonaviy dunyoda urushlarning iqtisodiy oqibatlari oldingidan ko'ra yanada murakkab va ko'p qirrali bo'lib bormoqda. Harbiy harakatlar natijasida iqtisodiy barqarorlik ortib borishi, valyuta kurslarining o'zgarishi va xalqaro investitsiyalarning qayta taqsimlanishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar,

---

<sup>1</sup> Amerika Ovozi (<https://www.amerikaovozi.com/a/6452486.html>)



o'z navbatida, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turli xil iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, urushlarning iqtisodiy ta'sirini ilmiy asosda o'rganish va ularning kelajakdagi global iqtisodiy tizimga ta'sirini prognoz qilish xalqaro iqtisodiyot yo'nalishidagi muhim bosqichlardan biridir.

Ushbu tadqiqot turli iqtisodiy nazariyalar va amaliy tahlillar asosida urushlarning iqtisodiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Olingan natijalar esa kelajakda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mojarolarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va davlatlarning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar tahlili

XXI asrda urushlarning kelajakdagi iqtisodiyotga ta'siri mavzusida olib borilgan tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi va urushlarning iqtisodiy ta'siri: D.S. Djumonov va Z.G. Allaberganovning <sup>2</sup>“Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” nomli asarida iqtisodiy fikrlarning rivojlanishi va turli davrlardagi iqtisodiy ta'limotlar tahlil qilinadi. Ushbu asarda urushlarning iqtisodiy oqibatlari to'g'ridan-to'g'ri yoritilmasa-da, iqtisodiy nazariyalar kontekstida urushlarning iqtisodiyotga ta'siri haqida umumiy tushunchalar beriladi.

Iqtisodiy o'sish va urushlarning ta'siri: <sup>3</sup>“Iqtisodiy o'sish” nomli o'quv qo'llanma iqtisodiy o'sishning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari va modellari haqida ma'lumot beradi. Ushbu qo'llanmada urushlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, xususan, resurslarning cheklanganligi va iqtisodiy o'sish paradigmatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Globallashuv sharoitida xavfsizlik tendensiyalari va iqtisodiyot: Og'abek Norqulovning “Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan xavfsizlik tendensiyalari” nomli maqolasida XXI asrdagi mojarolar, jumladan, urushlarning mintaqaviy va global ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda urushlarning iqtisodiy oqibatlari, odam savdosi, kiber xavfsizlik va kiber jinoyatlar bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

<sup>2</sup> Toshkent davlat moliya universiteti sayti:

[https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-09-05-07-38\\_1d2ef5549613113ff744bc9a88a2b3b3.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-12-09-05-07-38_1d2ef5549613113ff744bc9a88a2b3b3.pdf)

<sup>3</sup> Namangan Davlat Universiteti sayti:

[https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12714-IQTISODIY\\_0\\_SISH.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12714-IQTISODIY_0_SISH.pdf)



Innovatsiya strategiyasi va urushlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri: X.M. Abdusattarovaning <sup>4</sup> "Inovatsiya strategiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli haqida so'z yuritiladi. Ushbu asarda urushlarning innovatsion jarayonlarga va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti qonuniyatlari tahlil qilinadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot XXI asrda sodir bo'layotgan urushlarning kelajakdagi iqtisodiyotga ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, turli ilmiy yondashuvlar va tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi miqdoriy va sifat tahlili usullari uyg'unligi asosida shakllantirildi, bu esa urushlarning global iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

### **Tadqiqot va natijalar**

XXI asrda sodir bo'layotgan urushlarning global iqtisodiyotga ta'siri tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Geosiyosiy mojarolar natijasida xalqaro savdo aloqalari uzilishi, investitsiya oqimlarining kamayishi va energiya bozorlaridagi beqarorlik global iqtisodiy tizimga jiddiy zarar yetkazmoqda. Urushlarning iqtisodiy oqibatlari asosan xalqaro savdo, ta'minot zanjirlari, inflyatsiya, davlat qarzi, mehnat bozori va texnologik innovatsiyalar kabi sohalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu tadqiqotda XXI asrdagi yirik harbiy mojarolarning iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinib, ularning kelajakdagi iqtisodiy jarayonlarga ta'siri baholandi.


Urushlarning eng muhim iqtisodiy oqibatlaridan biri xalqaro savdo va ta'minot zanjirlarining buzilishidir. Global savdo tizimi yuqori darajada o'zaro bog'liq bo'lib, har qanday harbiy mojaro ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonlarining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. <sup>5</sup>Rossiya va Ukraina urushi natijasida Ukrainaning don eksporti 40% ga qisqardi (Jahon banki, 2023), bu esa Yaqin Sharq va Afrika davlatlarida oziq-ovqat narxining keskin oshishiga sabab bo'ldi.

<sup>4</sup>Abdusattarova, X.M. (2011). Innovatsiya strategiyasi. Toshkent: TDIU.  
[https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob\\_006357d023976c8.pdf](https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_006357d023976c8.pdf)

<sup>5</sup> Kun.uz, 2022. <https://m.kun.uz/news/2022/07/22/ukraina-va-rossiya-22-iyul-kuni-don-eksporti-boyicha-kelishuv-imzolashi-mumkin>



Rossiyaga qarshi sanksiyalar natijasida neft va gaz bozorlarida yangi muvozanat paydo bo‘ldi. Yevropa Ittifoqi Rossiyaga qaramlikni kamaytirish uchun energiya importini diversifikatsiya qilishga majbur bo‘ldi. Xalqaro yuk tashish va logistika tarmoqlarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Qora dengiz portlarining bloklanishi eksport va import operatsiyalarini sezilarli darajada qiyinlashtirdi. Bunday holatlar xalqaro iqtisodiyotda energiya va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solib, davlatlarni yangi strategiyalar ishlab chiqishga undamoqda.



### **1-rasm.XXI asrda urushlarning iqtisodiyotga ta’siri<sup>6</sup>**

Harbiy mojarolar natijasida investorlarning ishonchi pasayib, kapital oqimlarining yo‘nalishi o‘zgaradi. Urush bo‘layotgan hududlarda investitsiyalar keskin kamayadi, aksincha, iqtisodiy barqaror davlatlarga kapital oqimi oshadi. <sup>7</sup>IMF (2023) hisobotiga

<sup>6</sup> The Economist, 2023. <https://www.economist.com/war-and-global-economy>

<sup>7</sup> IMF (2023). Global Economic Outlook: The Effects of Geopolitical Conflicts. International Monetary Fund Report. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>






ko'ra, harbiy mojarolar natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 45% ga kamaygan.<sup>8</sup>Sanksiyalar tufayli Rossiyaga investitsiya oqimi 70% ga pasaydi, natijada mamlakatda import o'rnini bosuvchi sanoat rivojlana boshladi.

Xitoy, Hindiston va Turkiya kabi davlatlar Rossiyadan arzon energiya resurslarini sotib olib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Moliyaviy bozorlarning beqarorlashishi natijasida aksiyalar va obligatsiyalar narxi sezilarli darajada o'zgarib, investorlar xavfsizroq aktivlarga, jumladan, oltin va kriptovalyutalarga sarmoya yo'naltirishmoqda. Energetika sektori urushlarning eng ta'sirchan jabhalaridan biridir. Energiya ta'minotining uzilishi, sanksiyalar va ishlab chiqarishdagi cheklovlar global neft, gaz va elektr energiyasi narxlarining beqarorlashishiga olib keladi.

2022-yilda Brent markali neft narxi 130 dollargacha oshdi, bu esa energiya import qiluvchi davlatlar uchun qimmatga tushdi. Gaz bozorida Yevropa Ittifoqining Rossiyaga qaramligi kamaytirildi, lekin bu muqobil energiya manbalariga sarmoya ajratishni talab qildi. AQSh va Yaqin Sharqdagi neft ishlab chiqaruvchi kompaniyalar foydasi oshdi, chunki Yevropa yangi ta'minotchilar izlashga majbur bo'ldi.



2-rasm.urushlarning neft narxiga ta'siri<sup>9</sup>

<sup>8</sup> IMF (2023). Global Economic Outlook: The Effects of Geopolitical Conflicts. International Monetary Fund Report.  
• <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>

<sup>9</sup> Ember Energy, 2022. <https://ember-energy.org/latest-insights/global-electricity-review-2022>




Energiyaga qaramlikni kamaytirish uchun davlatlar qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga ko‘proq sarmoya kiritish ni boshladilar. Bu esa uzoq muddatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirishi mumkin. <sup>10</sup>Harbiy mojarolar inflyatsiyaning oshishiga olib kelishi tabiiy holatdir, chunki urush natijasida ishlab chiqarish tannarxi oshadi, energetika va oziq-ovqat mahsulotlarining ta’minoti izdan chiqadi.

2022-yilda AQSh va Yevropa davlatlarida inflyatsiya 8-10% gacha ko‘tarildi, bu oxirgi 40 yildagi eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi (IMF, 2023).

Harbiy xarajatlarning oshishi natijasida davlat qarzi ortib borayapti.

Xususan, Rossiya YAIMning 5% ini mudofaa sohasiga yo‘naltirmoqda.

<sup>11</sup>Ukraina urushi davomida AQSh va Yevropa davlatlari Ukrainaga milliardlab dollar miqdorida harbiy yordam ajratdi, bu esa budjet defitsitining oshishiga sabab bo‘ldi. Ushbu jarayonlar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.



**3-rasm.**

<sup>10</sup> BMT (2023). Global Displacement Report: The Economic Implications of Forced Migration. United Nations Refugee Agency (UNHCR) Annual Report.

• <https://www.unhcr.org/global-displacement-report-2023>

<sup>11</sup> 1. Saidrasulova, M. (2022) Gazeta.uz.

• <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/07/war-impacts/>






### Harbiy xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati<sup>12</sup>

Harbiy mojarolar natijasida millionlab odamlar o‘z yurtlarini tark etib, boshqa davlatlarga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa mehnat bozorida muvozanatsizlikka olib keladi.

<sup>13</sup>Ukraina urushi natijasida 5 milliondan ortiq kishi Yevropaga qochqin sifatida kelgan (BMT, 2023). Ishlab chiqarish va infratuzilma ob’ektlarining vayron bo‘lishi natijasida urush hududlarida ishsizlik darajasi oshmoqda. Migratsiya oqibatida ba’zi mamlakatlarda ishchi kuchi ko‘paygan bo‘lsa, urushayotgan davlatlarda esa yetishmovchilik yuzaga kelgan. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanish jarayonini murakkablashtiradi. Urushlar ba’zan texnologik yutuqlarga ham turtki beradi. Mudofaa sanoati rivojlanishi natijasida dron texnologiyalari va sun’iy intellekt bo’yicha yangi

yutuqlar yuzaga keldi. Qurol-yarog‘ sanoati investitsiyalari oshib, ba’zi davlatlar bu jarayondan iqtisodiy foyda ko‘rmoqda

### 4-rasm. Urush natijasida global inflyatsiya o‘shishi<sup>14</sup>



<sup>12</sup> The Economic Consequences of the Russia-Ukraine War. World Bank Economic Briefing.

<https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/04/10/economic-consequences-of-the-russia-ukraine-war>

<sup>13</sup> Global Displacement Report: The Economic Implications of Forced Migration. United Nations Refugee Agency (UNHCR) Annual Report.

<https://www.unhcr.org/global-displacement-report-2023>

<sup>14</sup>BMT (2023). Global Displacement Report: The Economic Implications of Forced Migration. United Nations Refugee Agency (UNHCR) Annual Report.

<https://www.unhcr.org/global-displacement-report-2023>





Ko'plab yangi texnologiyalar dastlab harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqilsa-da, keyinchalik fuqarolik sohalarida ham qo'llanilishi mumkin. Biroq, urushlar olib kelgan innovatsiyalar iqtisodiy zararlarni qoplash uchun yetarli emas.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, XXI asrdagi urushlar global iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro savdo, investitsiyalar, energetika bozori va mehnat migratsiyasi kabi omillar urushlar natijasida sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Uzoq muddatli istiqbolda davlatlar iqtisodiy strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lishadi, bu esa yangi iqtisodiy model shakllanishiga olib kelishi mumkin.

### **Xulosa va tavsiyalar**

XXI asrda sodir bo'layotgan urushlar global iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatishi mumkinki, harbiy mojarolar xalqaro savdo, investitsiyalar, energiya bozorlari, inflyatsiya, mehnat bozori va texnologik rivojlanishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Urushlarning iqtisodiy oqibatlari qisqa va uzoq muddatli bo'lib, ular davlatlarning iqtisodiy siyosatini o'zgartirishga majbur qilayapti.

Xalqaro savdo va ta'minot zanjirlari izdan chiqmoqda. Urushlar natijasida eksport va import hajmi kamayayapti, bu esa oziq-ovqat va energiya narxlarining oshishiga sabab bo'lyapti. Xususan, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush natijasida don eksportining 40% ga qisqarishi global oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayapti.<sup>15</sup> Investitsiya oqimlari o'zgarib borayapti. Urushlar natijasida beqarorlik ortib, investorlar xavfsiz mintaqalarga kapital yo'naltirilayapti. Rossiyaga qarshi sanksiyalar mamlakatga xorijiy sarmoya oqimini 70% ga kamaytirgan bo'lsa, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlar esa energiya bozorida yangi imkoniyatlarga ega bo'layapti.

<sup>16</sup>Energetika bozori beqarorlikka uchramoqda. Neft va gaz narxlarining keskin oshishi energiya import qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. 2022-yilda Brent markali neft narxi 130 dollargacha oshib, ishlab chiqarish xarajatlarini

---

<sup>15</sup> 2. Blanchard, O., & Gali, J. (2021). Global Conflicts and Inflation: The Energy Shock Connection. *Economic Policy Review*, 39(2), 75-98.

[https://www.nber.org/people/olivier\\_blanchard](https://www.nber.org/people/olivier_blanchard)

<sup>16</sup> 3. Collier, P. (2022). Wars, Migration, and Labor Market Shocks. *Cambridge Journal of Economics*, 46(1), 15-36.

• <https://academic.oup.com/cje/article/46/1/15/6326056>





oshirdi. <sup>17</sup> Inflyatsiya va davlat qarzi oshmoqda. Urushlar natijasida oziq-ovqat va energiya narxlari ko‘tarilib, inflyatsiyaning oshishiga sabab bo‘ldi. 2022-yilda Yevropa va AQShda inflyatsiya 8-10% ni tashkil qildi. Davlatlar harbiy xarajatlarni oshirganligi sababli budjet ham ortmoqda.

Mehnat bozori o‘zgarishlarga uchrayapti. Urush natijasida millionlab odamlar qochqin sifatida boshqa davlatlarga ko‘chiishga urinayapti, bu esa ishchi kuchining notekis taqsimlanishiga sabab bo‘lmoqda. <sup>18</sup> Texnologik rivojlanish tezlashayapti. Mudofa sanoatiga qaratilgan investitsiyalar dronlar, sun‘iy intellekt va kiberxavfsizlik sohalarida yangi yutuqlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytgana, Davlatlar import va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish orqali urush natijasida yuzaga keladigan ta‘minot zanjiri uzilishlarining oldini olishi lozim. Bundan tashqari Mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish orqali importga qaramlikni kamaytirish kerak. Oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha zaxiralarni shakllantirish davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega.

Urush natijasida beqarorlik ortgani sababli, davlatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qo‘shimcha kafolat va rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Moliyaviy bozorlarni himoya qilish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va moliyaviy shoklarga qarshi choralar ishlab chiqish zarur. Sanksiyalarga duchor bo‘lgan davlatlar uchun iqtisodiy barqarorlik strategiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni oshirish orqali davlatlar neft va gazga qaramlikni kamaytirishi lozim. Yashil energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Energiya import qiluvchi davlatlar uzoq muddatli kelishuvlar orqali ta‘minot xavfsizligini oshirishi kerak.

Pul-kredit siyosatini optimallashtirish orqali inflyatsiyani jilovlash lozim. Harbiy xarajatlarni muvozanatlashtirish va budjet taqchilligini kamaytirish uchun aniq moliyaviy

<sup>17</sup> 11. BMT (2023). Global Displacement Report: The Economic Implications of Forced Migration. United Nations Refugee Agency (UNHCR) Annual Report.

• <https://www.unhcr.org/global-displacement-report-2023>

<sup>18</sup> 7. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest, and Money. Macmillan Press..

• <https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/>





strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Davlat xarajatlarini samarali boshqarish va iqtisodiy tiklanishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Urush natijasida migratsiya oqimi ortib borayotganligi sababli, qochqinlar mehnat bozoriga integratsiya qilinishi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish kerak. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiyotga salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun malaka oshirish dasturlari va ta‘lim loyihalarini kengaytirish muhim.

Urush natijasida rivojlangan mudofaa texnologiyalarining tinch maqsadlarda qo‘llanilishi ta‘minlanishi lozim. Yangi texnologik innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanish jarayoniga integratsiya qilish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Sun‘iy intellekt, robototexnika va kiberxavfsizlik sohalariga investitsiyalarni oshirish texnologik yetakchilikni ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XXI asrdagi urushlar global iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Ular xalqaro savdoni beqarorlashtirib, investitsiya oqimlarini o‘zgartirmoqda, energetika bozoridagi o‘zgarishlar esa inflyatsiyaning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, davlatlar va xalqaro tashkilotlar ushbu salbiy ta‘sirlarni minimallashtirish uchun yangi iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqishlari zarur.

Kelajakda davlatlar energiya mustaqilligini oshirish, investitsiya muhitini barqarorlashtirish, savdo tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali urushlarning iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishga harakat qilishi lozim.

Agar davlatlar ushbu tavsiyalarni inobatga olib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqsa, urushlarning global iqtisodiyotga ta‘siri sezilarli darajada yumshatilishi mumkin.

### Foydalanilgan ma'lumotlar

1. Aizenman, J., & Glick, R. (2021). Military Conflicts and Capital Flows: An Empirical Investigation. *Journal of International Money and Finance*, 114, 102-133.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0022199614001457>

2. Blanchard, O., & Gali, J. (2021). Global Conflicts and Inflation: The Energy Shock Connection. *Economic Policy Review*, 39(2), 75-98.

[https://www.nber.org/people/olivier\\_blanchard](https://www.nber.org/people/olivier_blanchard)

3. Collier, P. (2022). Wars, Migration, and Labor Market Shocks. *Cambridge Journal of Economics*, 46(1), 15-36.

<https://academic.oup.com/cje/article/46/1/15/6326056>





4. Hamilton, J. D. (2020). Oil Prices and Global Conflicts: How Wars Influence Energy Markets. *Energy Economics*, 88, 112-130.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140988320301234>

5. Mishra, P., & Sharma, R. (2022). The Impact of Wars on Global Trade: A Historical Perspective. *Review of World Economics*, 158(3), 501-527.

<https://link.springer.com/article/10.1007/s10290-022-00451-7>

6. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2021). War, Debt, and Financial Crises. *American Economic Journal: Macroeconomics*, 13(4), 85-102.

<https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/mac.20200001>

7. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. Macmillan Press.

<https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/>

8. Jahon banki (2023). The Economic Consequences of the Russia-Ukraine War. World Bank Economic Briefing.

<https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/04/10/economic-consequences-of-the-russia-ukraine-war>

9. IMF (2023). Global Economic Outlook: The Effects of Geopolitical Conflicts. International Monetary Fund Report.

<https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>

10. OECD (2023). Sanctions and Economic Adjustments: The Case of Russia. OECD Policy Papers.

<https://www.oecd.org/economic-outlook/>

11. BMT (2023). Global Displacement Report: The Economic Implications of Forced Migration. United Nations Refugee Agency (UNHCR) Annual Report.

<https://www.unhcr.org/global-displacement-report-2023>

12. Saidrasulova, M. (2022). “Har qanday urush va harbiy-siyosiy ziddiyatlar — og’ir iqtisodiy oqibatlariga olib keladi.” *Gazeta.uz*.

<https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/07/war-impacts/>

13. Abduraxmonov, F. (2023). “Iqtisodiy globallashuvning nazariy asoslari.” *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 1(11-12).





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

<https://www.researchgate.net/publication/378544300> Iqtisodiy globallashuvning nazariy asoslari

14. Urolboyev, Sh. Sh. (2024). “Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion rivojlanish loyihalarini boshqarish.” Pedagogics International Research Journal, 58(2).

<https://pedagogs.uz/ped/article/download/1379/1338/2653>

15. Sharipov, Q. A. (2023). “Evropa Ittifoqining shakllanishi.” Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(11-12)

<https://www.researchgate.net/publication/376516562> Evropa Ittifoqining shakllanishi

16. Hamilton, J. D. (2020). “Oil Prices and Global Conflicts: How Wars Influence Energy Markets.” Energy Economics, 88, 112-130.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140988320301234>



## BADIIY MATNDA MULOQOT MADANIYATINING FILOLOGOK EKSPERTIZASI

*Qorjovov Elmurod Abdumo‘min o‘g‘li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*2-kurs magistranti*

[qorjovovelmurod492@gmail.com](mailto:qorjovovelmurod492@gmail.com)

+99895 757 05 08

### ANNONTATSIYA

Maqolada muloqot madaniyatining filologik ekspertizasining vujudga kelishi va fanlar bilan aloqasi va uning badiiy matnda xususiyatlari haqida fikrlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** muloqot, zamonaviy jamiyat, ekspertiza, badiiy matn, usullar, muloqot madaniyati, ekspertizaning usullari, muloqotning dialogik xususiyati.

### PHILOLOGICAL EXPERTISE OF COMMUNICATION CULTURE IN A LITERARY TEXT

The article presents thoughts on the emergence of philological expertise in the culture of communication, its relationship with the sciences, and its features in literary texts.

**Key words:** communication, modern society, expertise, literary text, methods, communication culture, methods of expertise, dialogic nature of communication.

### KIRISH:

Hozirgi kunda jamiyatning asosini tashkil qilgan va o‘tmishdan ma’lum bo‘lgan muloqot madaniyati rivojlanib kelgan. Badiiy matnda bu muloqotning ahamiyati esa insonlarning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurganligi hech kimga sir emas. Shunga ko‘ra, bu madaniyat badiiy asarlarda esa kishilarning hamkorlikdagi faoliyati va ehtiyojlari asosida tug‘iladigan va ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi



faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi va bu muloqotning kommunikativ ko'rinishida ifodalanadi. Hozirda badiiy matnlarni tahlil qilishining yangidan yangi yuzaga kelishi badiiy matnning barcha xususiyat-mohiyatini kengroq tahlil qilish imkoniyatini yuzaga chiqarmoqda.


## ASOSIY QISM

Hozirgi davrda muloqot madaniyati muhim imkoniyatlarni vujudga keltirdi, ya'ni insonlarning o'ziga xos bo'lgan munosabatlari, xatti-harakatlarini namoyon qiladigan bir muhitni shakllantirdi, chunki bunda har bir kishi bu borada bir qadar ijtimoiy aloqaga kirishadi. Shunday qilib, muloqot madaniyati – bu o'ziga xos aloqa standartlari sifatida odamlar o'rtasidagi munosabatlar normalari, usullari, shakllari to'plamidir. Bundan tashqari, muloqot madaniyatini shakllantirish axloqiy tarbiyaning bo'limlaridan biri bo'lganligi sababli shakllangan axloqiy madaniyat ko'p jihatdan aynan muloqot madaniyatida va shu bilan birga o'zini namoyon qiladi.

Har bir normal kishi o'zini o'zgalarni tinglashga, o'z fikrini birovlariga yetkazishga, ya'ni gapirishga, fikrlarini ba'zan yozma tarzda bayon etishga tug'm a qobiliyatli dav tasavvur qiladi. Lekin ana shu birovlarni tushunish va o'z fikrlarimiz, o'ylarimizni birovlariga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o'zimizga o'xshash inson jamiyatisiz mavjud bo'la olmasligimizni bildiradi. Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita yuzma-yuz bo'lishi, u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan, biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) bo'lishi mumkinligini professor V. Karimova ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, hiskechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari

<sup>1</sup> M. Maxsudov (Muloqot psixologiyasi) B-97 TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006





reaksiyalarni — bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolm asligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. M asalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.

Badiiy matnda muloqot madaniyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Birinchidan, tilning estetik funksiyasi, obrazlilik, ramziylik, muloqotning dialogik xususiyati, nutqning individual xususiyatlari va shu kabilar. Ikkinchidan, filologik ekspertizada esa badiiy matnni tahlil qilish usullari, tilning grammatik va leksik xususiyatlarini o'rganish, obrazlarni tahlil qilish, matnning ma'naviy-axloqiy yukini aniqlash. Uchinchidan, muloqot madaniyatining buzilishiga doir fikrlar ilgari suriladi va badiiy matnda qo'llaniladigan muloqotning buzilishi, tilning qo'polligi, haddan tashqari obrazlilik, muloqotning g'ayrioddiy shakllari va ularning badiiy ma'nosi putur yetishi natijasi. Shu bilan birga, muloqot madaniyatining muhimligi ham ahamiyat kasb etadi va bu borada esa badiiy matnni tahlil qilish orqali muloqot madaniyatini o'rganishning ahamiyati, muloqot madaniyatining insoniyat hayotining barcha jabhalarida muhimligini o'z ichiga oladi.

A.N.Vasileva informatsion tarzdagi ifodadorlik bilan hissiy va ta'sir etuvchi ifodalilikni ajratib, ularning har birini ikki kichik guruhga ifodaning ochiq (eksplisit) va yopiq (implisit) shaklda namoyon bo'lishi kabi turlarga bo'ladi. Badiiy nasrning muhim belgilaridan biri nasriy matnlarda obrazli ifodalarning keng ko'lamda qo'llanilishidir. Badiiy ifodalar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir qilmay qolmaydi. Natijada undan zavq olinadi. Badiiy nasrda nutq madaniyati naqadar muhim ekanligini yozuvchilarimizning asarlari orqali tahlil qilamiz.<sup>2</sup>

Demak, muloqot madaniyati badiiy matnda uning ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, unda ta'sirchanlikni, obrazlilikni va bo'yoqdorlikni ta'minlovchi keng imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, turli toifa vakillari bu jarayonni o'rganganlar va ularning badiiy jihati bilan birga uni filologik tomondan tahlil jarayonlarida ularning leksik, semantik va orfografik xususiyatlari ham uning muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Chunki bu kabi jihatlarlari badiiy asardagi obrazlarning so'zlashuv

<sup>2</sup> Григорьев В.П. Кўрсатилган асар. – Б. 108





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

jarayonida kerakli omillardir. Shu sababli muloqot madaniyatining filologik tahlili jarayonida ularning ham til va adabiy jarayonda, ya'ni nutq jarayonida muhimdir.

Shuning uchun badiiy matndagi filologik ekspertizaga jiddiy muammo sifatida qarash va undagi nutq jarayonida muhim bo'lgan tomonlarini filologik tahlil qilish va ularni nayomon qilishdan iborat.

### **XULOSA:**

Badiiy asarlarda muloqotning turli xil ko'rinishlari mavjud va ularni tahlil qilish va o'rganish borasida, avvalo, ularning matnda qo'llangan jihatlarini hisobga olgan holda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki filologik ekspertiza turli sohalarda qo'llaniladi. Masalan, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik huquqshunoslik va lingvistikada muloqot funksiyalarini o'rganish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M. Maxsudov (Muloqot psixologiyasi) B-97 TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006
2. Григорьев В.П. Кўрсатилган асар. – Б. 108
3. Boltaboyev A.A. Muloqot olami: sub'ektlararo munosabatlar muammosi. – T.: O'zMU axborotnomasi, 2019. №2.



## IJTIMOYIY TARMOQLARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

**Mustafoqulova Diyora Azimjon qizi**

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti turizm va mehmondo'stlik  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ishda ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy turizm sohasidagi o'rni, ahamiyati va ular orqali turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mavzuda ijtimoiy tarmoqlarning turistlarning xulq-atvoriga ta'siri, sayohatni tanlash jarayonida kontentning roli, reklama va brend imijining shakllanishi kabi asosiy jihatlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston va dunyo bo'yicha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish statistikasi, ularning turizm bozoriga ta'siri, turistik tashkilotlarning raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish darajasi ko'rib chiqilgan. Ishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida uchraydigan muammolar — yolg'on kontent, salbiy sharhlar, raqamli savodxonlik pastligi va kiberxavfsizlik kabi masalalar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yechimlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar turizmni targ'ib qilish, turistlarni jalb qilish va brend imijini mustahkamlashda muhim strategik vosita ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, turizm sanoati, raqamli kommunikatsiyalar, Instagram, Telegram, Facebook, turistlarninjalb qilish, destinatsiya, statistika va online axborot oqimi.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida raqamli kommunikatsiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar turizm sanoatining eng muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab sayohat qiluvchilarning aksariyati ma'lumot izlash, marshrut tanlash, xizmatlar sifati bilan tanishish, boshqa turistlarning tajribasini o'rganish va yakuniy qaror qabul qilish jarayonlarida aynan ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlar turistik faollikni kuchaytiruvchi, marketing jarayonlarini



optimallashtiruvchi, turistlar bilan ikki tomonlama aloqani ta'minlovchi strategik platforma sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali kontent almashinuvi, foto va video materiallar tarqatilishi, "real vaqt"da fikr-mulohazalar berilishi turistik yo'nalishlarning ommalashuviga, brend imijining shakllanishiga hamda turistik hududlar reytingining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, bloggerlar, vloggerlar va kontent yaratuvchilarning auditoriyaga bevosita ta'siri destinatsiyalarni targ'ib qilishda an'anaviy marketing vositalaridan ko'ra samaraliroq natija bermoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar turistik tashkilotlar uchun mijozlar xulq-atvorini o'rganish, ehtiyojlarni aniqlash, tezkor tahlil qilish va mijozlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Dunyo turizmida kuzatilayotgan bu jarayon O'zbekiston turizm sohasida ham faol amalga oshirilmoqda: milliy brendlarni targ'ib qilish, hududiy turizm imkoniyatlarini keng yoritish, onlayn axborot oqimini kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning roli tobora ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzuning o'rganilishi turizmni raqamlashtirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish, yangi auditoriyalarni jalb qilish va turistik oqimni barqaror rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi, ma'lumotlarning ishonchligi va yolg'on kontentlar: Ijtimoiy tarmoqlarda turistik joylar haqida noto'g'ri yoki bo'rttirilgan ma'lumotlar tarqatilishi turistlar qaroriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yolg'on sharhlar, sun'iy "layklar" yoki reklama maqsadida yaratilgan kontentlar destinatsiya haqidagi haqiqiy tasavvurni buzadi. Raqamli marketing strategiyalarining sustligi: Ko'plab turistik tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan to'liq foydalana olmaydi. Sifatli kontentning yetishmasligi, professional SMM yondashuvining yo'qligi, auditoriya tahliliga e'tiborning kamligi targ'ibot samaradorligini pasaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda raqobatning kuchayishi: Turistik brendlar o'rtasida raqobat juda kuchli. Qisqa vaqt ichida e'tiborni jalb qila oladigan kontent yaratish qiyinlashib bormoqda. Kichik turfirmalar esa moliyaviy va texnik resurslar yetishmasligi sabab raqobatda ortda qolmoqda. Mijozlar bilan muloqotning kechiktirilishi: Ijtimoiy tarmoqlarda turistlar tomonidan berilgan savollarga vaqtida javob berilmasligi, shikoyatlarning e'tiborsiz qolishi xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qiladi va brend obro'sini pasaytiradi. Salbiy sharhlarning tez tarqalishi: Birgina salbiy fikr, video yoki post qisqa muddatda juda katta auditoriyaga





tarqalib ketishi va turistik obyekt imijiga zarar yetkazishi mumkin. Ko‘plab obyektlar bunday PR inqirozlarni boshqarish bo‘yicha malakaga ega emas. Raqamli savodxonlik darajasining pastligi: Turistik sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning SMM, raqamli marketing, analitika va reklama bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi ijtimoiy tarmoqlarni samarali yuritishda muammolarga olib keladi. Maxfiylik va kiberxavfsizlik xavflari: Turistlar haqidagi ma‘lumotlar, online bronlar, to‘lovlar yoki shaxsiy ma‘lumotlarning ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq xavfsizligi doimo tahdid ostida. Xakerlik hujumlari, firibgarliklar yoki soxta sahifalar xavf tug‘diradi. Kontent sifati va professional yondashuv yetishmasligi: Ko‘plab turistik obyektlar fotosuratlar, videolar yoki matnlarni professional darajada tayyorlamaydi. Bu esa destinatsiyaning jozibadorligini kamaytiradi va turistlarda salbiy tasavvur uyg‘otishi mumkin. Algoritmilar o‘zgarishi tufayli targ‘ibotning barqaror emasligi: Ijtimoiy tarmoqlar platformalari tez-tez algoritmlarini o‘zgartiradi. Natijada, avval yaxshi ishlagan reklama yoki kontent ko‘rinmasdan qolishi, qamrovning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun, turistik tashkilotlar kontentni faqat tasdiqlangan ma‘lumotlar asosida tayyorlashi zarur; foto va videolar professional darajada yaratilishi, real holatni aks ettirishi kerak; sun‘iy sharhlar o‘rniga haqiqiy mehmonlar fikrlarini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq; har bir turistik tashkilot uchun SMM strategiya ishlab chiqilishi; auditoriya tahlili, kontent rejasi, reklama maqsadlari; mutaxassislar uchun doimiy treninglar, master-klasslar va SMM bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish; virtual sayohatlar, 360° videolar, dron orqali suratga olingan kontent yaratish; turistlarni jalb etuvchi interaktiv aksiyalar, tanlovlar va hashtag kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish; SMM bo‘yicha 24/7 javob berish tizimini yo‘lga qo‘yish (chat-bot, qo‘llab-quvvatlash operatori); shikoyatlar bo‘yicha “tezkor javob” protokoli ishlab chiqish; inqiroz kommunikatsiyasi bo‘yicha maxsus yo‘riqnomalar ishlab chiqish; salbiy fikrlarni o‘chirib qo‘yish emas, balki muammoni hal qilish orqali ijobiy obraz yaratish, turistlarning kamchiliklar bo‘yicha fikrlarini xizmat sifatini oshirish uchun tahlil qilish; blogerlarni tanlashda ularning auditoriya sifati, mavzuga mosligi va ishonchliligiga e‘tibor berish; OTMlar va malaka oshirish markazlarida zamonaviy raqamli marketing fanlarini keng joriy etish; rasmiy sahifalar uchun ikki bosqichli himoya tizimlarini joriy etish; firibgarlikka qarshi maxsus algoritmilar va monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish; turistlarning ma‘lumotlarini himoya qilish bo‘yicha maxsus standartlar ishlab chiqish;



kontent yaratishda dizayner, fotograf, videograf va matnshunoslarni jalb etish; destinatsiyalar imijini yaxshilash uchun brending va storytelling usullaridan foydalanish; kontentni turli formatlarda (reels, vlog, animatsiya, podcast) taklif qilish; bitta platformaga qaram bo‘lmasdan, bir nechta ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish; kontentni muntazam yangilab borish, trendlarni kuzatish va moslashish; reklama strategiyalarini muntazam test qilish va optimallashtirish.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kundagi eng ommabop ijtimoiy tarmoqlarga aylanib ulgurgan “Instagram”, “Facebook”, “Tik tok”, “YouTube”, “Telegram” hisoblanadi. Bu ijtimoiy tarmoqlar orqali biz, dunyodagi barcha yangiliklardan xabardor bo‘lamiz, kun davomida chiqayotgan yangidan yangi qonunlar, Prezident olib borayotgan islohotlar bilan ham tanishib chiqmoqdamiz. Global statistikada; 2024-yil hisobiga ko‘ra ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 5,04 milliardga yetdi, bu esa dunyo aholisining taxminan 62,3 % ga to‘g‘ri keladi. O‘rtacha bir ijtimoiy media foydalanuvchisi har kuni 2 soat 23 daqiqa vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda sarflaydi. Global darajada esa foydalanuvchilar oylik o‘rtacha 6, 7 ta ijtimoiy platformadan foydalanadi. Endi esa bu statistikani O‘zbekiston holatiga ko‘ra ko‘rsak, 2025-yil oktabr oyida 14,1 million ijtimoiy tarmoq (ya’ni turli tarmoqlardan ro‘yxatdan o‘tganlar hisobi) mavjud. Bu esa O‘zbekiston aholisining 37,9 % ga teng.

Internet foydalanuvchilarning 95% doimiy ravishda onlayn bo‘ladi; telegram juda keng tarqalgan: so‘rovda qatnashgan internet foydalanuvchilarning 99%, Ijtimoiy tarmoqlarda: 60% foydalanuvchilar har kuni kiradi, 39% esa har kuni 3 soatdan ortiq vaqt sarflaydi; Instagram kunlik erkin auditoriyada yetakchi platformalardan biri: onlayn foydalanuvchilarning 68% i Instagramdan foydalanadi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratiladigan emotsional kontent turistlarda qiziqish uyg‘otib, ularni yangi joylarni kashf etishga undaydi. Turistik tashkilotlar uchun esa ijtimoiy tarmoqlar marketing strategiyalarini diversifikatsiyalash, mijozlar bilan bevosita muloqot qilish, ularning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, samolyot chiptalarini, mehmonxona bronlarini, ekskursiya xizmatlarini onlayn reklama qilish orqali sotuvlarni oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarning turizmga ta’siri O‘zbekiston misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda mamlakat turistik brendlarning ommalashuvi, yangi



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

yo‘nalishlarning targ‘ib qilinishi, blogerlik va raqamli marketingning rivoji turistlar oqimining ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Instagram”, “Facebook”, “YouTube”, “Telegram” va “TikTok” platformalari orqali olib borilayotgan targ‘ibotlar mahalliy va xalqaro auditoriyani jalb etishning eng samarali yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov Sh., Yo‘ldosheva D. Turizm marketingi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. — 256 b.
2. Qurbonov H., Xudoyqulova N. Turizm asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 304 b.
3. Sharipov K. Turizm menejmenti. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. — 240 b.
4. Jo‘rayev A. Raqamli marketing asoslari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. — 210 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot. — Toshkent, 2023.
6. Abdurahmonov Q., To‘laganov N. Marketing asoslari. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. — 352 b.
7. Normatov S. Ijtimoiy kommunikatsiyalar va OAV. — Toshkent: Fan, 2018. — 280 b.
8. O‘zMilliyAxborotAgentligi (O‘ZA). O‘zbekistonda turizmning raqamlashtirilishi bo‘yicha yangiliklar. — Elektron resurs.Rejim: <https://uza.uz/Murojaat> sanasi: 2025.
9. Daryo.uz. Ijtimoiy tarmoqlarning turizmga ta’siri haqidagi maqolalar. — Elektron resurs.
10. UNWTO O‘zbekistan bo‘limi. Turizmda raqamlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar. — Elektron resurs.





## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH KITOBLARIDAGI ILMIY-OMMABOP MATNLAR VA ULARNI O'RGANISH USULLARI

**Normurodova Nigora Abdusattorovna**

O'zMPU "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi  
va metodikasi" kafedrası Dots.PHD

**Tulegenova Araylim Marat qizi**

Nizomiy nomidagi O'zMPU 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ilmiy-ommabop maqolalarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy - adabiy hodisalarni, ular o'rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy - siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutkini o'stiradi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf yoshidagi bola uchun o'yin faoliyatidan birdaniga aqliy faoliyat jarayoniga kirishi birmuncha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bilim egallash ishtiyohida bo'lgan va moddiy olamning turli qirralariga qiziquvchan bu yoshdagi bolalarda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, albatta, toliqish holati ro'y berishi muqarrar. Ana shunday vaziyatni nazarda tutgan holda, maktabda madaniy ko'nikmalarni shakllantiruvchi sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun maktabda qishki bog', suv havzasi va dam olish xonalari tashkil etish lozim. Bu esa kichik maktab yoshidagi bolaning ona tabiatga ijobiy munosabatini shakllantirib, har bir faslning o'ziga xos ko'rkini anglash va tabiat in'omlarini idrok eta olishiga undaydi. Shuningdek, maktabda dam olish xonalarining ham tashkil etilishi aqliy toliqish ro'y berayotgan o'quvchida ruhiy yengillanish imkonini beradigan qulay sharoit hisoblanadi. Maktabda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitining ta'minlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini bir qadar yengillashtiradi. Ya'ni, bunda o'qituvchi har bir o'quvchini yaqindan, yakka tarzda o'rganish imkoniga ega bo'lib, uning shaxsidagi individual xususiyatlarini aniqlash orqali yondashish yo'llarini belgilaydi. O'qituvchi o'quvchilar bilan doimiy suhbatda, hamkorlikda bo'lishi natijasida, ular bilan sirlashish, til topishish hamda qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab yo'naltirish imkoniyatiga ham ega





bo‘ladilar. Bu esa, o‘z navbatida ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘zlashtirish darajasining yaxshilanishi uchun muhimdir. hozirgi kunda o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish uchun o‘qituvchining o‘zi bilimdon, boy pedagogik tajribaga ega bo‘lishi lozimdir.

Ilmiy-ommabop matn va maqolalar ifodasi har bir sinfdan o‘ziga xos talqinga ega. Masalan, mustaqillik mavzusi 1-2-sinf O‘qish kitobida kichik hajmdagi she‘rlarda, ixcham matnlarda bayon etilsa, 4-sinfda esa bu publitsistik maqolalar tarzida beriladi. Safar Barnoyevning “Mangulikka tatigulik kun” maqolasi shu jihatdan e‘tirofqa loyiq. Maqola chinakam mushohadalarga boy bo‘lib, tarixiy dalillar asosida yozilgan. Kichik sinflardan farqli ravishda, mavzu haqida jiddiy, ilmiy ma‘lumotlar berilgan. Unda ko‘chma ma‘noli, obrazli, kinoyali so‘zlar qo‘llanib, o‘quvchini tafakkurlashga undash yetakchilik qiladi :

“1991- yil 31-avgust O‘zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi. Shu kundan boshlab O‘zbekiston zaminida mardona “Mustaqillik” so‘zi tilimizga ko‘chdi, *ongimiz, tilimizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi.*” Ta‘kidlab ko‘rsatilgan so‘zlar ko‘chma ma‘noda qo‘llangani ko‘rinib turibdi. Badiiy so‘z ustida ishlash orqali bu jumlar mohiyati teran anglatilsagina maqolaning muhim ahamiyati teran anglashiladi. Ya‘ni, tafakkurimiz fikrlashdan, tilimiz gapirishdan mahrum etilgan sho‘roviy mafkura haqida so‘z borayotgani, mustaqillik avvalo eng katta baxt– erkinlikni qaytarib bergani ayon bo‘ladi. Buning dalili sifatida esa O‘zbekistonda Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ezgu ishlar, ozod va obod Vatanimizning tamoman, yangidan bunyod etilayotganini ta‘kidlash kifoya. Maqolada qadim ajdodlarimiz, ulug‘ mutafakkirlarni tanish, yurtimizning keng dunyoga qaytadan tanitayotgan madaniyati va iqtisodiy taraqqiyyoti kabi mulohazalar shu ma‘noda, diqqatga sazovor.

Boshlang‘ich sinf O‘qish kitoblarida Mustaqillik mavzusi ilmiy-ommabop maqolalarda talqin etilayotganida mantiq bor. O‘quvchilar boshlang‘ich sinflardayoq “Vatanimiz mustaqilligi bayramini nima uchun nishonlaymiz?”, “O‘zbekistonning gerbi va bayrog‘ida nimalar tasvirlangan?”, “Mustaqillik o‘zbek xalqiga qanday erkinliklar berdi?”, tarzidagi savollarga ana shunday maqolalar tahlili orqaligina mushohada yuritish ko‘nikmasi shakllana boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish va sinfdan tashqari, o‘qish darslarida badiiy asar namunalari keng o‘rganiladi. Adabiyot bo‘stonining kurtaklari bilan endi tanisha boshlagan jajji o‘quvchilar o‘z darsliklarida berilgan matnlar mazmunini tushunmasa,





undan o'zgacha shuur, zavq olmasa, ularning kitob o'qishdan zerikib qolishi tayin. O'quvchilarni birinchi sinfidanoq badiiy asar o'qishga qiziqishlarini oshirish, ularni adabiyotga oshno qilib o'stirish zarur ahamiyatga ega. Ta'kidlash joiz, boshlang'ich sinf o'qish darsliklarning yangi avlodi adabiy va ilmiy-ommabop matnlarning mazmuni, mavzu-mundarijasiga ko'ra mukammallashdi. Shu ma'noda, 1-sinf o'qish kitobida ham rang-barang mavzudagi ilmiy-ommabop matnlarni kuzatish mumkin. O'quvchilar har bir matnni o'qigandan so'ng uning mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, matnda tilga olingan qahramonlarining xatti-harakati, tasviri ularni qiziqtiradi hamda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bunday matnlarga nisbatan obraz tushunchasini qo'llash mavhumlik uyg'otadi. Shuning uchun obraz so'zi o'rniga qatnashuvchi, ishtirokchi so'zlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganishda pedagogik texnologiyaning barcha interfaol usullaridan keng foydalanish mumkin. Faqat bunda ijtimoiy real voqelik, ijtimoiy hayotdagi hozirjavoblik hissi ustunligiga ko'ra, ma'lumotlarni yangilab, to'ldirib borish maqsadga muvofiq. Aytaylik, darslik 2010 yilda chop etilgan bo'lsa, o'tgan uch yil davomida Rustamjon Qosimjonov yangi g'alabalarni qo'lga kiritgan bo'lishi mumkin, yoxud, bunday mavzularni o'tishdan ilgari, kerakli ma'lumotlarni gazeta-jurnallardan izlash, ulardan eng muhimlarini ajratib ola bilish lozim. Bu jihat o'quvchilarda ham ko'nikmaga aylana borsagina maqsadga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari uchun nashr etilayotgan gazeta-jurnallarini muntazam o'qib borsagina, yuqoridagi kabi maqolalarni o'rganayotganda o'quvchilar mushohadasi ustunlik qiladi. Alal-oqibat teran mulohaza yuritishga ko'nikma shakllangach, o'quvchilarda ijodkorlik orta boradi. Zotan, o'qituvchining innovatsion faoliyatida ham o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish yetakchi vazifa qilib belgilangani bejiz emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Galperin P. Y. Bolaning intellektual rivojlanishini o'rganishga. // Psixologiya savollari, 1969, №1.
2. Lisova G.G., Ashtrafziyanov A.I., Nikiforova T.A., Prilezhayeva L.G., Saliyev N.N. Uslubiy maqolalar to'plami "Integratsiya rivojlanuvchi ta'lim uchun". ANO SOSH "Premier". 2014 yil



3. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o‘quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU, 2002. – 146 b.

4. Toshpulatova SH.O. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. ... (PhD) diss. avto-ref. – Samarqand. 2019. 14-20 b.

5. Yusupova SH.M. Ona tilini integral o‘qitish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. dok. – X., 2010. – 17 b.

6. Toshpulatova D.K. “The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school”. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Published 18.12.2019.

7. Toshpulatova D.K. “The role of mental arifmetics and thinking skills in mathematics lessons of primary schools”. International Engineering Journal For Research & Development – 2020





## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.

**Normurodova Nigora Abdusattorovna**

O‘zMPU “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi  
va metodikasi” kafedrası Dots.PHD

**Azizova Sabina Fahriddinovna**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy  
pedagogika universiteti 1-magistranti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining dars jarayonlaridagi hissiy holatini hisobga olgan holda ta‘lim berish va emotsional intellektini rivojlantirish, asosiy o‘rin egallagan. Emotsional intellekt o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ijtimoiy muloqotlarda muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi.


**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta‘lim, diagnostika, pedagogik yondashuv, ijodkorlik, emotsional intellektini rivojlantirish, o‘quvchi salohiyati, ta‘lim jarayoni.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития эмоционального интеллекта у учащихся начальной школы с учётом их эмоционального состояния в классе. Эмоциональный интеллект помогает учащимся управлять своими эмоциями, понимать эмоции других и успешно взаимодействовать с другими людьми.

**Ключевые слова:** Начальное образование, диагностика, педагогический подход, креативность, развитие эмоционального интеллекта, потенциал учащихся, образовательный процесс.

**Annotation:** This article focuses on teaching and developing emotional intelligence in primary school students, taking into account their emotional state in the classroom. Emotional intelligence helps students manage their own emotions, understand the emotions of others, and be successful in social interactions.

**Keywords:** Primary education, diagnostics, pedagogical approach, creativity, development of emotional intelligence, student potential, educational process.





Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy yuksaklikka doir islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarga ehtiyojni oshishi davr talabidir.

Hayotda ziyrak ko'z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda insonni erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash zarur.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki o'quvchilarning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan.

Emotsional intellekt-bu insonning o'z his-tuyg'ularini tushunish, boshqarish va ifoda etish, shuningdek boshqalar his-tuyg'ularini anglash va ularga to'g'ri munosabat bildirish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu "hissiy aql"- ya'ni his-tuyg'ularni ongli boshqarish san'atidir.

Emotsional intellektni birinchi bo'lib o'rgangan olimlardan biri Piter Salovey va Jon Mayer 1990-yilda bu atamani ilmiy jihatdan ishlagan.1995-yilda Daniel Goleman "Emotsional Intelligence" nomli mashhur kitobini yozgan va bu tushunchani ommalashtirgan.

Emotsional intellektning asosiy tarkibiy qismlari

1. O'zini anglash – o'quvchining o'z his-tuyg'ularini tanib olish, ularni ifoda eta bilish.
2. O'zini boshqarish – hissiyotlarni nazorat qilish, salbiy emotsiyalarga berilmaslik.
3. Motivatsiya – o'zini rag'batlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish.
4. Empatiya – boshqalar his-tuyg'ularini tushunish, ularga hamdard bo'lish.
5. Ijtimoiy ko'nikmalar – jamoada ishlash, do'stona muhit yaratish, muloqot madaniyatiga ega bo'lish.





Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra his-tuyg'ularini ifoda etishga moyil bo'ladilar. Shu bois o'qituvchi ularning emotsional rivojlanishiga e'tibor qaratishi lozim.

Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- O'yin texnologiyalaridan foydalanish: "His-tuyg'ularni tanish", "Men qanday his qilyapman?" kabi o'yinlar orqali bolalar o'z emotsiyalarini ifoda etishni o'rganadilar.
- Guruhli faoliyatlar: jamoada ishlash orqali o'quvchilar o'zaro hurmat va empatiya ko'nikmalarini shakllantiradilar.
- Muammoli vaziyatlar tahlili: hayotiy holatlar asosida "Agar sen shu holatda bo'lsang, nima qilarding?" kabi savollar orqali his-tuyg'ularni boshqarish o'rgatiladi.
- Ijodiy topshiriqlar: rasm chizish, hikoya tuzish, rolli o'yinlar orqali bolalar his-tuyg'ularini ifoda etadilar.
- O'qituvchi namunasining roli: o'qituvchining sabr-toqatli, samimiy va empatik munosabati o'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.


Hozirgi kunda insonning hissiy olami va ijtimoiy ko'nikmalarini ifodalovchi emotsional intellekt tushunchasi, ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish orqali bolalarning dunyo qarashini va his-tuyg'ularini boshqara olish muhim rol o'ynamoqda. Tengdoshlari va sinfdoshlari bilan sog'lom munosabat o'rnatishiga, stress holatlariga chidamli va bardoshli bo'lishga undaydi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarga shaxs sifatida qarashlari va ularni muvaffaqiyatli qilib tarbiyalashda emotsional intellekt bevosita yordam beradi.

Emotsional intellekt shaxslararo munosabatlarni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi, qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Yetakchilik va jamoaviy ishda muvaffaqiyatni oshiradi. O'quvchi va talabalarda o'qish samaradorligini kuchaytiradi.

## Xulosa

Boshlang'ich ta'limda emotsional intellektni rivojlantirish – nafaqat o'quvchilarning shaxsiy kamoloti, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va ta'limdagi muvaffaqiyati uchun ham muhim omildir. His-tuyg'ularni boshqara oladigan bola o'qishga, muloqotga va hayotdagi qiyinchiliklarga ijobiy yondashadi. Shu sababli har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida emotsional intellektni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.





Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib — emotsional intellektni rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish o‘rinli deb topildi:


- Ta’lim dasturlarida emotsional-intellektual rivojlanishga xizmat qiluvchi modul yoki mavzularni qo‘shish;
- o‘z o‘rtog‘lariga nisbatan hurmati oshadi va ular bilan ijtimoiylashadi;
- mehr-oqibat, hurmat, do‘stlik kabi sifatlar shakllanadi;
- egallangan axloqiy sifatlar malakasi orqali jamiyat bilan muloqotga kirishadi;
- ota-onalar bilan hamkorlikda bola emotsional holatini tahlil qilish va tarbiyaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar nafaqat o‘quvchilar shaxsining barqaror takomillashini ta’minlaydi, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli va baxtli inson bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. To‘xtasinova N. Pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 168 b.
2. Rahmonqulova Sh. Ta’limda iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash usullari. – Toshkent: Pedagogika, 2017. – 132 b. 10. Torrens, E. P. Creativity Tests and Their Application in Education. – New York: Wiley, 2000. – 210 p
3. Forobiy, A. N. (2002). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Ismoilova, M. (2021). Boshlang‘ich ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish. Boshlang‘ich ta’lim, 1(2), 44–48.
5. Abdullayeva, Z. M. (2022). Emotsional intellekt va uning bolalar rivojlanishiga ta’siri. O‘zbek pedagogik axborotnomasi, 3(1), 15–19.
6. G‘afurova, D. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy dunyosini o‘rganish va rivojlantirish usullari. Psixologiya va pedagogika muammolari, 2(3), 67–72.
7. Vygotskiy L.S. Ijtimoiy rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984. – 256 b.
8. Teplov B.M. Psixologiya asoslari. – Moskva: Nauka, 1978. – 312 b.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-11

9. Renzulli J. S. The Three-Ring Conception of Giftedness. – Journal for the Education of the Gifted, 1978. – Vol.1, No.4, pp. 243–254.
10. Gagné F. The Differentiated Model of Giftedness and Talent. – Journal of Educational Psychology, 2004. – Vol. 96, No. 3, pp. 582–597.
11. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 348 p.
12. Ismoilov M.T. Boshlang'ich ta'limda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 144 b.
13. Jo'rayev A. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 120 b.
14. To'xtasinova N. Pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 168 b.
15. Rahmonqulova Sh. Ta'limda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash usullari. – Toshkent: Pedagogika, 2017. – 132 b. 10. Torrens, E. P. Creativity Tests and Their Application in Education. – New York: Wiley, 2000. – 210 p



## IMPROVEMENT OF METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**\*Karimova Gavkhar Jakhongir kizi**

\*Master's student, Tashkent International University of Education

### Abstract

This article examines ways to improve foreign language teaching in vocational education institutions using modern innovative approaches and their methodological foundations. Based on a literature review, the advantages of communicative, competency-based, interactive, and CLIL (Content and Language Integrated Learning) approaches are analyzed. The need to develop a foreign language teaching model in vocational education institutions that meets the professional needs of students is also substantiated.

**Key words:** vocational education, foreign language, teaching methodology, communicative approach, CLIL, interactive education, professional competence.

### Introduction

In the context of global integration, foreign language teaching is an important part of the vocational education system, and the need to train specialists capable of meeting the demands of the labor market is growing [1]. Therefore, improving foreign language teaching methods in vocational education organizations is a pressing scientific issue. In our republic, foreign languages are taught at all levels of the continuous education system, from preschool to postgraduate education, in all fields and specialties. While foreign languages are taught to students prior to higher education based on a unified core curriculum, at the higher education level, two areas are distinguished: teaching a foreign language for philological purposes, that is, training future foreign language teachers, and teaching a language for specific purposes and professions in a non-philological field (Language for Specific Purposes, LSP). The purpose of this article is to analyze existing foreign language teaching methods in vocational education organizations and identify ways to improve them based on advanced international experience.



## Literature review

The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the system of teaching foreign languages" (PQ-5117, 2021) created a solid legal basis for the implementation of methodological innovations in this area [2]. Many researchers believe that the methodology of teaching foreign languages should be based on a communicative approach, since it is this approach that develops real communication skills in students [3], [4]. Islamova and Kadirova [5] emphasize the effectiveness of interactive methods in foreign language lessons in vocational educational institutions - such as "debates", "case studies", "role-playing games". A.K. Krupchenko emphasizes that professional linguodidactics arose on the basis of an objective public demand, that is, the need of representatives of various professions to master foreign languages as a means of international exchange of information and experience, and this direction has long been promoted by T. Hutchinson and A. Walters as "English for Specific Purposes" [6]. CLIL (Content and Language Integrated Learning) is also recognized as a modern method—a method of teaching foreign languages using professional disciplines [7], [8]. This approach develops students' language skills in a real professional context.

## Research methodology and empirical analysis

To date, more than 300 works on professional linguodidactics have been created in European linguodidactics, examining the basic principles of professional linguodidactics, such as integration, multi-levelness, modelability, variability, communicativeness, modularity, and professional focus. Professional linguodidactics, as a section of linguodidactics, is inextricably linked with didactics, professional pedagogy, professional psychology and psycholinguistics, linguistics, communication theory, and specialized disciplines, which is substantiated by the following provisions [9]:

- when it comes to personal qualities, abilities and professional competence in the formation of professional communicative competence in a foreign language, then a connection with professional psychology and psycholinguistics naturally suggests itself;
- teaching a foreign language is, of course, directly related to professional linguistics and didactics;





- the main goal of teaching foreign languages is to teach professional, industrial and intercultural communication, which means that professional language didactics is also connected with communication theory and ethical standards.

A.K. Krupchenko as the main tasks of professional language didactics [10]:

- clarify the objectives of teaching a foreign language for special purposes;
- determination of the content of professional and industry-specific training in foreign languages
- selection of forms and methods of teaching specialists a foreign language;
- covers issues such as the choice of teaching methods and technical means for professional and vocational teaching of a foreign language.

The core and additional principles of professional linguodidactics are described in detail by A.N. Kuznesov. The main principles include the creation of a socio-professional environment, the requirements of a competency-based approach, integrativeness, consideration of interdisciplinary connections, and a focus on the comprehensive development of professional competencies in a foreign language. Additional principles include the need to consider a number of factors, such as the age of the language learner, learning challenges, modularity, ensuring continuity in language teaching, and the originality and authenticity of materials. Based on these objectives and principles of professional linguodidactics, professional linguodidactics can be interpreted as a science that studies the theoretical foundations of professional and vocational language teaching, as well as its methodological, didactic, and linguistic features.

The content, forms, and means of teaching a foreign language in combination with specialized subjects, which is one of the fundamental principles of professional linguodidactics, were specifically studied by G. Dadamirzaev and K. Fayzullaev, who emphasized the interdisciplinary connections between the fundamentals of academic subjects or the integration of elements from different subjects. In his work, A. Gasanov identified the following types of interdisciplinary connections:

- ✚ methodological and conceptual relevance, contributing to the formation of the worldview of the future specialist;
- ✚ meaningful interdisciplinary connections that ensure the updating of knowledge and skills;





- ✚ educational significance aimed at developing professionally important qualities of the personality of a future specialist;
- ✚ methodological significance, based on the subject and the elements of future professional development.

### **Methodological approaches and ways of improvement**

The following areas are of great importance in improving the process of teaching foreign languages in professional education organizations:

1. Implementing a communicative approach. Lessons should be based on real-life communication situations [3].
2. Professionally oriented language teaching. Terminological vocabulary and exercises based on professional situations develop students' practical speech [5].
3. Using interactive technologies. Project-based work, gamification, and blended learning methods stimulate students' active thinking [4].
4. Digital educational tools. Online platforms (Quizlet, Kahoot, Duolingo for Schools) allow for individualized learning [7].
5. Continuing education for teachers. CLIL and ESP (English for Specific Purposes) training should be organized [8].


### **Conclusion**

Research and literature analysis demonstrate that adapting communicative and interactive approaches to professional needs improves the effectiveness of foreign language teaching in vocational education institutions. The application of cutting-edge pedagogical technologies and innovative approaches in the educational process, as well as the effective use of information technology, particularly artificial intelligence, also contribute to improving the quality of foreign language instruction in vocational education institutions. Therefore, alongside the introduction of methodological innovations, it is essential to develop the innovative competence of teachers.


### **References**

1. Mirzayeva, Z. (2022). Issues of improving the quality of foreign language teaching in the professional education system. *Pedagogical Research*, 4(3), 102–107.





2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ–5117. (2021). On measures to further improve the system of teaching foreign languages. Tashkent.
3. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Islomova, G., & Qodirova, N. (2023). The role of teaching foreign languages and the use of effective methods in it. Herald of Kokand University, 3(2), 45–49.
6. Khoshimova D.U. Linguistic and didactic foundations of the study of gaps in the context of modern Russian language activity and interlingual interactions: Diss. doc. ped. Sciences. -T.,2017. - 209 p.
7. Jumayeva, M. B. (2025). Use of educational methods in pedagogy. Икро журнал, 14(02), 168-174.
8. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
9. Chutpulatov, M. (2024). Prospects for the introduction of the CLIL method in higher and professional education. Zenodo Journal of Education Studies, 6(1), 1–7.
10. European Confederation of Language Centers in Higher Education [Electronic resource] // CercleS. – Mode of access: <http://www.cercles.org>. - Date of access: 15.05.2017
11. Krupchenko, A., Inozemtseva, K., Prilipko, E. Professional Development of a Foreign-Language Tertiary Teacher: Competence-Based Approach, Mediterranean Journal of Social Science. Vol. 6, No. 6, S5 (2015), pp. 257–261, available at: <http://www.mcser.org/journal/index.php/mjss/article/view/8555/8215> (accessed: 30.08.2019). (in Russian)






(Noyabr)

TABLE OF CONTENTS

1	<b>AQLLI SHARTNOMALAR: HUQUQIY SHARTNOMALARNING KELAJAGI SIFATIDA</b> Baxtiyorova Marjona	7-15
2	<b>KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SURXONDARYO VILOYATIDA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH</b> Hasanov Dilmurod, Jo‘rayeva Lola	16-20
3	<b>MARKAZIY ASAB TIZIMI VA UNING TUZILISHI</b> Baxtiyar Qiyamov , Zuhra Jurayeva , Sobir Mustanov	21-24
4	<b>FIZIK JARAYONLARNI MATEMATIK USULLAR ORQALI HISOBLASH VA TADBIQ ETISH</b> Shavkat Umidullayev , Elvira Settarova , Fazliddin Salaxitdinov , Raxmat Turniyazov	25-30
5	<b>MUAZZAM BOYSUN</b> Xurramova Munisa Xolto'rayevna	31-33
6	<b>THE HISTORY OF STUDYING THE VOCABULARY OF NATIONAL CUSTOMS IN THE UZBEK LANGUAGE</b> Abdurazzoqova Sevara	34-39
7	<b>SOG‘LIQNI SAQLASHDA TIBBIY PROFILAKTIKANING O‘RNI VA MOHIYATI.</b> Jurayev Abror Xolmurod o'g'li, Saitmurotov Mirzoxid Abdumuratovich	40-44
8	<b>BADIIY MATNDA MILLIY MENTALLIKNI AKS ETTIRUVCHI TASHQI VA ICHKI BELGILAR</b> __Cho‘liyev Ruhillo Abdullayevich	45-48
9	<b>BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA IJODKORLIK SOATI-LOYIHA ISHINI TASHKIL ETISHDA STEAMNING O‘RNI</b> __Nazokat Avvalova	49-53
	<b>LAZERLAR VA ULARDAN TIBBIYOTDA FOYDALANISH</b> Farxod Xaitov, Muborak Nasrulloeva	54-57
10	<b>OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHDA AMALIY-SIMULYATSION YONDASHUVNING SAMARADORLIGI</b> Dilshodbek Navruzov	58-63
11	<b>BREND IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY MEDIA KONTENTINING ROLI: VIZUAL KOMMUNIKATSIYA TAHLILI</b> __Alim Ahmedov	64-69



12	<b>INVESTIGATING CASES OF CRIMINAL VIOLATIONS OF THE RULES OF THE ROAD TRAFFIC ACT. INVESTIGATING THE CRIME OF TERRORISM</b> Mamanarov Xaitmurat	70-78
13	<b>IQTISODIY NUTQDA FRAZELOGIYA</b> Сафармахматова Заррина Нарзуллаевна.	79-83
14	<b>SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA DORIVOR PLANTAGO MAJOR (ZUBTURUM L.) O'SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA INTENSIV YETISHTIRISH</b> Sattarov Abdumurod Sattarovich, Eshpo'latov Sunnatullo Erkin o'g'li.	84-88
15	<b>ANTROPOLOGIYA FANI TADQIQOT MARKAZIDA TANOVLUL MADANIYATI</b> Fayzullayeva Mavlyuda Xamzayevna.	89-96
16	<b>ПРИМЕНЕНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ В МЕДИЦИНЕ И ФАРМАКОЛОГИИ</b> Исмаилов Улугбек	97-101
17	<b>REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA VAZN ORTISHI: SABABLARI VA YECHIMLARI</b> Mavftuna Abdixamidova Shavkat qizi, Qayumova Shaxnoza Jamshidovna	102-110
18	<b>SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA BEMORLARNI TASHXISLASH VA DORILARNI ISHLAB CHIQRARISH TEXNOLOGIYALARI</b> Xursanov Sherzod Ulaboyevich, Nabijonov Salimjon Sherqo'ziyevich	111-118
19	<b>O'ZBEKISTONDA OLIV BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING IQTISODIY-FALSAFIY ASOSLARI</b> Mamatkulov Eldor Safarovich, Alimova Sarvara	119-129
20	<b>УЛУЧШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПРИБРЕЖНЫХ РЕКРЕАЦИОННЫХ ЗОН ДАРГОМАИ.</b> С.Шукуров <sup>1</sup> , Л.И. Шукурова <sup>2</sup> , З. Аскарлова	130-136
21	<b>YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHI – TENDENSIYALAR VA TRANSFORMATSIYALAR</b> Faxriddin Yormatov	137-142
22	<b>KORRUPSIYANING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ILDIZLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI</b> Asadova Ruxsara	143-147
23	<b>SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI</b>	148-152





	<b>IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI</b> Turayev Baxrom	
<b>24</b>	<b>MIGREN KASALLIGI</b> _Borotov Mexroj	<b>153-156</b>
<b>25</b>	<b>OZIYQ-OVQAT ISHLAB CHIQRARISH ZANJIRIDA XALQARO STANDARTLARNI (ISO, HACCP, CODEX ALIMENTARIUS) JORIY ETISHNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH</b> Safayeva Sevaraxon Davlaterovna	<b>157-162</b>
<b>26</b>	<b>XXI ASRDAGI URUSHLARNING KELAJAKDAGI IQTISODIYOTGA TA’SIRI</b> Sadikova Dilrabo, Salomov Himoyiddin O’ral o’g’li	<b>163-175</b>
<b>27</b>	<b>BADIIY MATNDA MULOQOT MADANIYATINING FILOLOGOK EKSPERTIZASI</b> Qorjovov Elmurod Abdumo‘min o’g’li	<b>176-179</b>
<b>28</b>	<b>IJTIMOIIY TARMOQLARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA’SIRI</b> Mustafuqulova Diyora Azimjon qizi	<b>180-184</b>
<b>29</b>	<b>BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH KITOBLARIDAGI ILMIY-OMMABOP MATNLAR VA ULARNI O‘RGANISH USULLARI</b> Normurodova Nigora Abdusattorovna, Tulegenova Araylim Marat qizi	<b>185-188</b>
<b>30</b>	<b>BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI</b> Normurodova Nigora Abdusattorovna, Azizova Sabina Fahriddinovna	<b>189-193</b>
<b>31</b>	<b>IMPROVEMENT OF METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS</b> Karimova Gavkhar	<b>194-198</b>
	<b>MUNDARIJA</b>	<b>199-201</b>

